

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV PEDAGOGIKA VA TADBIRKORLIK INSTITUTI**

K.O‘.TO‘RABOYEVA

**SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI
MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
METODOLOGIK ASOSLARI**

MONOGRAFIYA

Modern Science and Research

Toshkent – 2025

UDK: 330.322:334.012.64

KBK: 65.011.3

T-68

To‘raboyeva, K. O‘.

Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning metodologik asoslari: monografiya / K. O‘. To‘raboyeva. — Toshkent: *Modern Science and Research*, 2025. — 186 b.

ISBN: 978-9910-8336-9-4

Mazkur monografiya sanoat tarmog‘i korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari, sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi holati tahlili, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning metodologik asoslari o‘z aksini topgan. Shuningdek, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur monografiya tadqiqotchilar, doktorantlar va tarmoq muammolari bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: To‘raboyeva K.O‘. - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, i.f.n., dotsent

Taqrizchilar:

O‘.D.Rajabov – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori;

R.X.Ergashov – QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

UDK: 330.322:334.012.64

KBK: 65.011.3

ISBN: 978-9910-8336-9-4

Monografiya Denov pedagogika va tadbirkorlik instituti Kengashining 2025-yil 25-sentyabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNING MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari	6
1.2. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari va unga ta’sir qiluvchi omillar ..	20
1.3. Sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullari va mezonlari	36
Birinchi bob bo‘yicha xulosa	49
II BOB. SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNING MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI HOLATI VA TAHLILI	51
2.1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoat korxonalarining o‘rni va ularning rivojlanish tendensiyalari tahlili	51
2.2. Sanoat korxonalarida faoliyatida investitsiya loyihalarining roli va ulardan samarali foydalanishni jarayonini optimallashtirish	62
2.3. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini statistik baholash	74
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	84
III BOB. SANOAT KORXONALARIDA AMALGA OSHIRILADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI ...	86
3.1. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha xorij tajribasi va ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari	86
3.2. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uslubiy jihatlari	106

Uchinchi bob bo'yicha xulosa	124
IV BOB. SANOAT KORXONALARIDA AMALGA OSHIRILADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	126
4.1. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud muammolar va ularning yechimlari	126
4.2. Sanoat tarmog'ining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning prognoz senariylari	146
To'rtinchi bob bo'yicha xulosa	161
XULOSA VA TAKLIFLAR	163
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	169

KIRISH

UNCTAD ma'lumotiga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda 2030-yilga borib Barqaror taraqqiyot maqsadlariga (SDGs) erishishda investitsiya taqchilligi kengayishi mumkin. Zero, 2022-yilda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) 12 foizga kamayganligi kuzatilgan¹. Ammo, sanoat loyihalarini investitsiyalash hajmi oshgan. Jumladan, AQShning xorijdagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 2021-yil oxiridagi 6,37 trln. dollardan 2022-yil oxirida 6,58 trln. dollarga oshgan. Sanoatdagi investitsiya loyihalari bo'yicha eng katta o'sish Gollandiya va Buyuk Britaniya hissasiga (172,8 milliard dollar) to'g'ri kelgan².

O'zbekistonda ham keyingi yillarda sanoatni rivojlantirishning strategik maqsadlari va loyihalarini boshqarish tizimida investitsiya dasturlarini amalga oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash, investitsiya faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish, ayniqsa sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"³ning "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli uchinchi yo'nalishining 26-maqsadida "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh-yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish" belgilangan. Mazkur maqsadlar ijrosini ta'minlash sanoat investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni talab etadi. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

¹ <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

² <https://www.bea.gov/data/intl-trade-investment/direct-investment-country-and-industry>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

I BOB. SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARINING MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi sharoitida ishlab chiqarish va investitsiyaviy munosabatlarning rivojlanishi hamda kengayishi kuzatilmoqda. Albatta, iqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlash, raqobatbardosh mahsulotlarni jadal ishlab chiqarish hamda eng muhimi yuqori foyda olishga qaratilgan sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ichki (o'z mablag'lari, byudjet mablag'lari, bank kreditlari, qarz mablag'lari, ichki investor mablag'lari ko'rinishida) va tashqi (xorijiy investorlar mablag'lari, tashqi qarzlar, xorijiy banklar kredit mablag'lari va boshqa shakldagi) investitsiyalar salmog'i oshib bormoqda.

So'nggi-yillarda turli turdagi loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish muammosi ayniqsa dolzarb bo'lib bormoqda. Investitsiyalar samaradorligini oshirish muammosining mohiyati ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va har bir xarajatlar birligi - mehnat, moddiy, moliyaviy foyda hajmini sezilarli darajada oshirishga erishishdan iborat. Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish muammolarini hal qilish ko'p jihatdan ularni rivojlantirish va boshqarishning to'g'ri tanlangan strategiyasiga bog'liq⁴.

Fikrimiz avvalida sanoat, sanoat korxonalari, investitsion loyiha va uning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini teran anglab olish hamda bu boradagi nazariy qarashlarni o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

⁴ Лавренко В.Д. Повышение эффективности инвестиционного проекта // Вестник Университета № 9, 2014. 130 с.

Sanoat jahon iqtisodiyotining eng dinamik tarmoqlaridan biri bo‘lib⁵, J.Church, R.Ware⁶, A.Marshall⁷lar fikricha, sanoat moddiy ishlab chiqarish asosi bo‘lib, o‘zidan boshqa barcha qolgan tarmoq va sohalarning ham barqaror faoliyat ko‘rsatishida ustun kuch hisoblanadi.

Iqtisodchi olim A.Ortiqov⁸ fikricha esa sanoat obektiv reallik (borliq)ning in‘ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya’ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo‘lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog‘liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sanoat insonlar xohlagan hamda zarur bo‘lgan ko‘pgina mahsulot va vositalarni ishlab chiqaruvchi tarmoq bo‘lib, u fan-texnika taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boradi.

Ma’lumki, sanoatning tarkibiy tuzilishi ko‘pgina davlatlarda Yevrostat qo‘mitasining⁹ iqtisodiy faoliyatlarning statistik tasnifi (NACE Rev. 2) shakliga asoslangan. Jumladan, mamlakatimizda ham iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2) ikkinchi tahriri statistik kuzatuvlarda yangi faoliyat turlarini, texnologik yoki tashkiliy o‘zgarishlar sababli ahamiyati oshgan faoliyat turlarini aks ettirish, shuningdek xalqaro miqyosda qiyoslash mumkin bo‘lgan statistik ma’lumotlarni tayyorlash va tarqatish maqsadida qabul qilindi.

IFUT-2 tahririga ko‘ra, sanoat tarmog‘i qo‘yidagi tarkibiy qismlardan iborat:

V. Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C. Ishlab chiqaradigan sanoat;

D. Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash;

E. Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

⁵ Грисак Ю.П. Промышленность стран мира: уровни развития и типы структур // Регион: стратегия та пріоритети. 2007, № 5. ст. 3

⁶ Church J., Ware R. Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000. – 960 p.

⁷ Marshall A. Industry and Trade: A Study of Industrial Technique and Business Organization; and of Their Influences on the Conditions of Various Classes and Nations. Harvard University. – Macmillan – 2005. – 874 p.

⁸ Ортиқов А. Саноат иқтисодиёти / дарслик. – Т.: “Сано-стандарт”, 2014. – 5 б.

⁹ <https://ec.europa.eu/eurostat/documents/3859598/5902521/KS-RA-07-015-EN.PDF.pdf/dd5443f5-b886-40e4-920d-9df03590ff91?t=1414781457000>

Ushbu iqtisodiy faoliyat yoʻnalishlari boʻyicha faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar – sanoat korxonalari hisoblanadi. Ularning yana bir ustunligi shundaki, sanoat korxonalarida qoʻshilgan qiymat, yuqori texnologiyali tovarlar ishlab chiqariladi.

Shu boisdan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun sanoat korxonalari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, daromadli soha boʻlishi bilan bir qatorda, mazkur tarmoq korxonalarini barpo etish va barqaror ishlashi uchun katta miqdorda kapital (investitsiya) talab qilinadi. Aksariyat sanoat korxonalari bundan mustasno emas, chunki, investitsiya mavjud moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki mavjud faoliyatni yangi turlar boʻyicha diversifikatsiya qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Boshqa tomondan esa investorlar uchun amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining samarali boʻlishi muhimdir. Shu bois, har doim investitsiyalar samaradorligini baholash dolzarbdir. Shuningdek, investitsion qarorlarni qabul qilishda investitsiya turi, investitsiya loyihasining qiymati, hajmi kabi omillarni hisobga olish lozim.

Investitsiyalar samaradorligini baholash investitsiya qarorini qabul qilishning eng muhim bosqichi boʻlib, uning natijalari asosan investitsiya maqsadini amalga oshirish darajasini belgilaydi. Oʻz navbatida, olingan natijalarning obektivligi va ishonchliligi asosan qoʻllaniladigan tahlil usullari bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan investitsiya imkoniyatlarini oqilona tanlash uchun investitsiyalarning samaradorligini baholashning mavjud uslubiy yondashuvlarini koʻrib chiqish va ularni qoʻllash imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.


Investitsiyalar – bu naqd pul, maqsadli bank depozitlari, aksiyalar, aksiyalar va boshqa qimmatli qogʻozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalari, litsenziyalar, shu jumladan savdo belgilari, kreditlar, boshqa mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual mulklar, tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga investitsiya qilish orqali foyda (daromad) olishdir¹⁰.

¹⁰ Плотников А.Н. Инвестиционная деятельность и подрядные торги: учеб. пос. / А.Н. Плотников. – М.: Инфра-М; Znanium.com, 2016. – 111с.

M.Q. Pardayevning ta'rifiga ko'ra, investitsiya – mulkdorning (investorning) pul mablag'i, qimmatbaho qog'ozlari, texnikasi va texnologiyasi, mashina va jihozlarini, mulkka egalik huquqi, intellektual mulki kabilarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan foyda olish maqsadida tadbirkor faoliyatiga qo'yish tushuniladi¹¹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, investitsiya – o'z mulkiy javobgarlik ostida foyda olish maqsadida o'z moliyaviy yoki moddiy yohud aqliy resurslarini biror bir iqtisodiy faoliyatga yo'naltirishdir.

Ma'lumki, investitsiyalar shakllan uch turga moliyaviy, moddiy va aqliy investitsiyalarga bo'linadi.



1.1.1-rasm. Investitsiya turlari va uning tarkibiy qismlari¹²

“Investitsiya loyihasi deganda foyda olish maqsadida qo'yilgan investitsiyadan foydalanish rejasining (strotegiyasining) asosli ravishda ishlab chiqilishi tushuniladi”¹³.

Investitsiya loyihasi ikki xil mazmunda talqin qilinadi:

1. Muayyan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi qandaydir faoliyatlar yig'indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida

¹¹ Pardayev M.K. Loyiha tahlili. Uslubiy qo'llanma. - SamDU.: 2001. 6 b.

¹² Muallif tomonidan ilmiy manbalar umumlashtirilgan.

¹³ Pardayev M. Q., Xoliqulov A.N., Jumayeva G. Investision loyihalar tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019. - 234 bet.

tushuniladi. Bunday hollarda “xo‘jalik tadbiri”, “ish”, “loyiha” terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi.

2. Qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to‘plami sifatida qaraladi.

O.A. Xalturina va N.YE. Tereshkinalar fikricha, investitsiya loyihasi – bu ma’lum maqsadlar va natijalarga erishishga qaratilgan investitsiya loyihasini ishlab chiqish jarayoni. Investitsiya loyihasi investitsiya faoliyatining muhim elementi bo‘lib, investitsiya loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi¹⁴.

Investitsion samaradorlik deganda esa korxonada investitsiyalari natijasida olingan samarali natijalar bilan iste’mol qilingan yoki ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi nisbat, ya’ni korxonaning investitsiya faoliyatining daromadlari va xarajatlari, ishlab chiqarilgan mahsulot va sarflar o‘rtasidagi mutanosib bog‘liqlik tushuniladi. Investitsion samaradorlik korxonaning investitsiya loyihalariga cheklangan resurslarni qanchalik samarali taqsimlashi va investitsiya imkoniyatlarini haqiqiy investitsiyaga aylantirishning o‘lchovidir¹⁵.

Investitsion loyiha vaqt davomida uchta asosiy pul oqimini rejalashtirishni o‘z ichiga oladi: investitsiyalar oqimi, joriy (operatsion) to‘lovlar oqimi va daromadlar oqimi. Joriy to‘lovlar oqimini ham, daromadlar oqimini ham aniq rejalashtirish mumkin emas, chunki bozorning kelajakdagi holatini aniq prognoz qilib bo‘lmaydi. Shuningdek, sotilgan mahsulotlarning narxi va hajmi, xom ashyo va materiallar narxlari hamda atrof-muhitning boshqa pul-xarajat ko‘rsatkichlari ularni kelajakda amalga oshirishda bugungi kun nuqtai nazaridan baholanadigan rejalashtirilgan qiymatlardan sezilarli darajada farq qilishi mumkin¹⁶.

¹⁴ Халтурина О.А., Терешкина Н.Е. Инвестиционное проектирование: учебное пособие. Новосибирск: Новосибирский государственный университет экономики и управления «НИИХ», 2020. 194 с.

¹⁵ Xuesong Q., Sheng F. Enactment of the Property Law, Financial Constraints and Investment Efficiency of Private-Owned Enterprises-Empirical Analysis Based on Difference-in-Differences Method. *China Economic Quarterly* 2021; 21:713–32.

¹⁶ Мирзабекова М.Ю. Оценка эффективности инвестиционного проекта // международный научный журнал «Инновационная наука». №1/2016. 140 с.

O‘z navbatida, investitsion loyihalar samaradorligini baholash ishlab chiqarish samaradorligi muammolarini hal qilishga yordam beradi, shu bilan birga uning yangi investorlar tomonidan jozibadorligini oshiradi. Baholashning uslubiy yondashuvi investitsiya faoliyatini tahlil qilish bilan birga korxonaning samaradorligi va joriy iqtisodiy holati to‘g‘risidagi eng to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi¹⁷.

Investitsiyalar samaradorligini baholashning xalqaro amaliyoti asosan pulning vaqt qiymati tushunchasi va quyidagi tamoyillarga asoslanadi¹⁸:

1. Investitsion kapitaldan foydalanish samaradorligi investitsiya loyahasini amalga oshirish jarayonida hosil bo‘lgan pul oqimi va dastlabki investitsiyalarni taqqoslash yo‘li bilan baholanadi. Agar loyiha dastlabki investitsiya summasining daromadlilikini va kapitalni taqdim etgan investorlar uchun zarur bo‘lgan daromadni ta’minlasa, samarali hisoblanadi.

2. Investitsiya qilingan kapital, shuningdek, pul oqimi hozirgi vaqtga yoki ma’lum bir hisobot-yiliga (odatda loyiha boshlanishidan oldin) qisqartiriladi.

3. Kapital qo‘yilmalar va pul oqimlarini diskontlash jarayoni investitsiya loyihalari xususiyatlariga qarab belgilanadigan turli diskont stavkalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Diskont stavkasini belgilashda investitsiyalar tarkibi va kapitalning alohida tarkibiy qismlarining qiymati hisobga olinadi.

Ta’kidlash lozimki, loyihaning taxminiy muddati - hozirgi paytdan boshlab vaqt davri loyihaning boshlanishi uning yakuniga qadar, buning uchun loyihaning rejalashtirilgan xarajatlari va natijalari uning samaradorligini aniqlashda hisoblab chiqiladi. U rejalashtirish intervallari yoki hisoblash bosqichlari soni bilan o‘lchanadi. Hisoblash bosqichi oy, chorak yoki-yil bo‘lishi mumkin¹⁹.

¹⁷ Астанакулов О.Т. Совершенствование анализа инвестиционной деятельности предприятия в условиях воздействия внешних факторов // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil. 43 б.

¹⁸ Савчук В.П. Оценка эффективности инвестиционных проектов: учебник [Электронный ресурс]. URL: <http://www.cfin.ru/finanalysis/savchuk/7.shtml>

¹⁹ Павлова Е.А., Тищенко Е.Б. Оценка инвестиционной привлекательности проекта. Учебное пособие. – М.: МГУ им. М.В. Ломоносова. 2019. 157 с.

Umuman olganda, loyihaning samaradorligi uning bozor qiymati bilan belgilanadi va shunga mos ravishda u maksimal darajaga ko'tarilishi uchun quyidagilarni hisobga olish lozim²⁰:

- loyiha bo'yicha to'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- investitsiya loyihasi haqidagi barcha risk va tahdidlarni aniqlash hamda ularni baholash kerak.

Har xil turdagi loyihalar va ularni amalga oshirish sharoitlarining xilma-xilligi o'rtasida sezilarli darajada farqlar bo'lsada, loyihalar samaradorligini baholash va ularni ekspertizadan o'tkazish ma'lum bir ma'noda bir xilda amalga oshirilishi kerak. Shu sababli, texnik, texnologik, moliyaviy, sanoat yoki mintaqaviy xususiyatlaridan qat'i nazar, har qanday turdagi loyihaning samaradorligini baholash umumiy asosiy qoidalarga (tamoyillarga) asoslanadi.

Bunday tamoyillarni uch guruhga bo'lish va ularning tarkibini quyidagicha keltirish mumkin: uslubiy, usulli va operativ²¹.

1.1.1-jadval

Investitsiyalar samaradorligini baholashning umumiy tamoyillarining guruhlanishi²²

Investitsiyalar samaradorligini baholashning umumiy tamoyillari		
Uslubiy:	Usulli:	Operativ:
Ijtimoiy maqbullik; Tizimlilik; Murakkablik; Adekvatlik; Resurslar uchun to'lov; Salbiy bo'lmaganlik va maksimal ta'sir; Taqqoslash qobiliyati; Foydalilik; Loyihaning turli ishtirokchilarining mavjudligi va ularning manfaatlarini muvofiqlashtirish.	Vaziyatlarni "loyihali" va "loyihasisiz" taqqoslash; O'ziga xoslik; O'lchov qobiliyati; Suboptimizatsiya; Dinamizm; Pulning vaqt qiymati; To'liq bo'lmagan ma'lumotlar; Kapital tarkibi.	Parametrlarning o'zaro bog'liqligi; Modellashtirish; Loyihani amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi; Ko'p bosqichli baholash; Axborotning foydaliligi; Davlat siyosatiga moslashuv; Axborot izchilligi; Uslubiy izchillik; Umumiy baholash.

²⁰ Савчук В.П. Оценка эффективности инвестиционных проектов: учебник [Электронный ресурс]. URL: <http://www.cfin.ru/finanalysis/savchuk/7.shtml> (гл. 7. «Основные критерии эффективности инвестиционного проекта и методы их оценки»).

²¹ Лившиц В.Н., Миронова И.А., Швесов А.Н. Оценка эффективности инвестиционных проектов в различных условиях // Экономика промышленности. 2019. Том 12. №1. 29 с.

²² Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов. Теория и практика. М.: «Поли Принт Сервис», 2015. 1300 с.

Investitsion loyihani moliyaviy-iqtisodiy baholash mablagʻlarni real aktivlar bilan turli operatsiyalarga (obektlarga) joylashtirishning mumkin boʻlgan variantlarini tanlash va asoslash jarayonida markaziy oʻrinni egallaydi. Moliyaviy tahlil loyihadan keladigan samaraning uning har bir ishtirokchilarining oʻz maqsadlaridan kelib chiqib, loyihani amalga oshirishdagi erishilishi mumkin boʻlgan natijalarni qoʻlga kiritish imkoniyatlarini ochib beradi. Iqtisodiy tahlilda esa loyihaning milliy iqtisodiyotga beradigan samarasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, Jahon banki xodimlari (mutaxassislari) har bir loyiha uchun uning iqtisodiyotga boshqa aniq resurslarni joylashtirishdagi oʻzaro ziddiyatli variantlarga qaraganda koʻproq samara keltirishni aniqlashda keng tahlil ishlarini amalga oshirishgan²³.

G.Birman va S.Shmidtlar investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholashda quyidagilarga alohida eʼtibor qaratgan:

- loyihaning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga taʼsiri;
- kiritilayotgan resurslar va olinayotgan mahsulotlar ularning milliy iqtisodiyot uchun haqiqiy qadr-qimmatini aks ettiradigan baholarda baholanishi;
- tahlilga iqtisodiyot uchun bevosita taʼsir etuvchi jihatlar (import, eksport, aholi bandligi, chet el valyutasi, talab va taklif, ekologik ahvol va b.), shuningdek bilvosita taʼsirlar (boshqa sohalarga boʻlgan taʼsiri)ning ham kiritilishi;
- ijtimoiy shart-sharoitlar hisobga olish va hokazolar²⁴.

I.Mazur, V.Shapiro, N.Olderoggelar oʻzlarining asarlarida investitsiya loyihalari samaradorligiga quyidagicha taʼrif berganlar: “Investitsiya loyihalarining samaradorligi – loyihaning uning ishtirokchilarini maqsadi va qiziqishlariga muvofiqligini koʻrsatib beruvchi kategoriya hisoblanadi”²⁵. Shunga koʻra, loyihaning samaradorligini butunligicha baholash, shuningdek loyihada qatnashuvchi har bir ishtirokchining samarasini aniqlash talab etiladi.

²³ Банковское дело и финансирования инвестиций, /Под редаксии Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том, 2-часть, 1995. – С. 281.

²⁴ Бирман Г., Шмидт С. Экономический анализ инвестиционных проектов М.: - Банки и биржи ЮНИТИ, 1997. – с. 613.

²⁵ Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пособие для вузов /Под общ. ред. И.И. Мазура.- М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2001. – С. 276.

V.Berens, P.Xavranekslar fikricha, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashga asoslangan, ularni o‘zaro taqqoslay oladigan usullar keng qo‘llaniladi²⁶.

Sanoat korxonalarida yangi yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini qo‘shimcha yuklashni shakllantirish, yangi mahsulot yoki biznes yo‘nalishini “noldan zavod (sex)” formatida ishlab chiqarishni tayyorlash bilan bog‘liq investitsiya loyihalari doimiy ravishda ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Qanday bo‘lmasin, ushbu loyihalarning barchasining maqsadi pul mablag‘lari oqimini kamaytirish va daromadlarning pul oqimini oshirishdir. Shu munosabat bilan, investitsiya qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish, ularning vaqt qiymatini hisobga olgan holda, ushbu pul oqimlarini boshqarishga yangi yondashuvlarga ehtiyoj yuqoridir²⁷.

Jahon banki tomonidan investitsion loyihalarni tanlashning asosiy mezonlari – bu xarajatlarni chiqarib tashlagandagi foydaning diskontlangan kutiladigan qiymat sifatida e‘tirof etilgan²⁸. Albatta, daromadlar ham, xarajatlar ham loyihani amalga oshirish jarayonida o‘zaro taqqoslanadi. Loyiha iqtisodiy tanlovdan o‘tishi uchun quyidagi ikki shartga muvofiq bo‘lishi lozim:

- loyihani tatbiq qilishdan kutilayotgan foydaning sof zamonaviy qiymati salbiy bo‘lmasligi lozim;

- loyihadan kutilayotgan sof qiymat boshqa muqobil loyihalardan kutilayotgan sof qiymatga teng yoki undan yuqori bo‘lishi lozim.

Moliyaviy baholash investitsiya loyahasini amalga oshirish jarayonidagi likvidligini tahlil qilishda ishlatiladi. Boshqacha aytganda, moliyaviy baholash vazifasi, loyihani belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun uning jami moliyaviy majburiyatlarini bajarishga korxonaning yetarli moliyaviy resurslari bo‘lishini belgilashdir. Iqtisodiy baholash esa, investitsiya loyahasining potensial

²⁶ Беренс В., Хавранекс П. Руководство по оценке эффективности инвестиций, пер.с англ. А.П. Бельих, М.: - Инфра-М, 1995. – С. 60-80. Богатин Ю.В., Швандар В.А. “Инвестиционный анализ”: Учебное пособие для вузов.-М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. – с. 142-162.

²⁷ Шагеев Д.А. Повышение эффективности инвестиционного проекта промышленного предприятия при помощи управления денежными потоками // Финансовая Экономика. Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 6. Экономика. 2017. № 2. 97 с.

²⁸ <https://www.worldbank.org>

qobiliyati shu loyihaga qo'yilgan mablag'larning qiymatini saqlab qolishda va ularning o'sish sur'atini yetarli darajasini yaratib berishda foydalaniladi²⁹.

L.L. Igoninaning fikricha, iqtisodiy samaradorlik – investitsiya loyahasini amalga oshirish jarayonining loyihadan tashqari atrof-muhitga ta'sirini aks ettiradi hamda loyiha ishtirokchilarining moliyaviy manfaatlariga bevosita bog'liq bo'lmagan loyiha natijalari hamda xarajatlari nisbatini hisobga oladi³⁰.

Investitsion loyihani moliyaviy baholash esa uning dastlabki texnologik tuzilmasi va pul oqimlarining dastlabki prognoz parametrlari asosida amalga oshiriladi³¹.

Umuman olganda, kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini hisoblash ko'rsatkichlari va tartibi kapital qo'yilmalar ijtimoiy samaradorligini aniqlash **namunaviy metodikasi**³²da belgilangan.

Mazkur namunaviy metodikaga binoan kapital qo'yilmalarning samaradorligi rejalashtirishning barcha bosqichlarida aniqlanadi. Ya'ni, obektlarni loyihalashtirishda samaradorlik ikki turdagi ko'rsatkichlar (koeffitsiyentlar) – kapital qo'yilmalarning umumiy (absolyut) iqtisodiy samaradorligi va nisbiy iqtisodiy samaradorligi orqali aniqlanadi.


Mazkur tadqiqot davomida mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni nazariy jihatdan o'rganish natijalaridan kelib chiqib, investitsiya loyihalari samaradorligini quyidagi turlarga ajratish mumkin (1.1.2-rasm).

²⁹ Бозоров Р.Н. Ўзбекистонда инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини баҳолашни такомиллаштириш // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил. 1-14 б.

³⁰ Инвестиции: учеб. пособие / Л.Л. Игонина; под ред. д-ра экон. наук, проф. В.А. Слепова. – М.: Экономистъ, 2005. - 478 с.

³¹ Герзелиева Ж.И. Финансовая оценка эффективности инвестиционных проектов (на примере компаний нефтеперерабатывающего комплекса). Автореферат дисс. к.н.э., - М.: РЭУ имени Г.В.Плеханова. -2013. 14 с.


³² Типовая методика определений экономической эффективности капитальных вложений. – М.: "Экономика", 1989. Собир иттифоқ Фанлар академияси Иқтисодиёт институтида қатор йиллар давомида капитал қўйилмалари самарадорлигини аниқлаш соҳасида илмийтадқиқот ишлари олиб борилган. Натижада академик Т.С.Хачатуровнинг илмий раҳбарлигида капитал қўйилмаларининг иқтисодий самарадорлигини аниқлашнинг Намунавий (типовой) методикаси ва соҳага харажатларнинг самарадорлигини аниқлашнинг вақтинчалик методикаси ишлаб чиқилган.



1.1.2-rasm. Investitsiya loyihalari samaradorligi turlari³³

Boshqacha aytganda, umumiy iqtisodiy samaradorlik nisbiy bo‘lib, samaraning uni olish uchun zarur bo‘lgan xarajatlarga nisbati orqali aniqlanadi³⁴.

Amaliyotda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda moliyaviy va iqtisodiy usullar asosida amalga oshiriladi. Ya’ni, investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi (1.1.3-rasm).



1.1.3-rasm. Investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullari³⁵

³³ Muallif tomonidan tuzilgan.

³⁴ Jumayeva S.K. Investitsiyalar samaradorligi va uni baholash uslublari // Iqtisod va moliY. № 11, 2012. 14-b.

³⁵ Ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullari turli sohalardagi investitsiya loyihalari investitsiya va atrof-muhit hamda sanoat xususiyatlarining ta'siri tufayli investitsiya loyihalarini baholash ko'rsatkichlarining turli xil tanlovlariga ega bo'lib, yakuniy baholash ko'rsatkichlarini taqsimlash tizimidan foydalanish har xil bo'ladi, ayniqsa sanoatdagi investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi haqida gap borganda loyihaning atrof-muhitga ta'sirini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Ammo, sanoatda ham investitsiya loyihalarida ichki ko'rsatkichlar hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki, korxonalar asosiy maqsad sifatida foyda ko'rgan investitsiya faoliyatining asosidir. Korxonalar sarmoya kiritishda investitsion loyihalarning iqtisodiy va tavakkalchiligiga ko'proq e'tibor qaratishlari kerak. Albatta, bunda risklarni baholash ko'rsatkichlari tizimini tanlash juda muhim, shuning uchun bu ikki turdagi ko'rsatkich tizimlari asosiy ko'rsatkichlar sifatida ishlatilishi kerak. Moliyaviy baholash ko'rsatkichlari asosan statik baholash ko'rsatkichlarini va dinamik baholash ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi³⁶. Shu bilan birga sanoat investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda moliyaviy natijalarni obektiv baholash talab e'tiladi³⁷.

Sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlarini iqtisodiy baholashning uslubiy rivojlanish bosqichlari quyidagilardan iborat³⁸:

1-bosqich. Sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlarini baholash maqsadini aniqlash, ya'ni, sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlarini rivojlantirish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish sohasida samarali qarorlar qabul qilish;

2-bosqich. Sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlarining rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash, ya'ni, salohiyatli imkoniyatlarni

³⁶ Bachelor's Thesis. University of finance and administration. Prague 2019. 16 p.

³⁷ Чудин О.В. Анализ и оценка эффективности инвестиций в развитие производственно-логистических систем. Автореферат дисс. к.э.н., -М.: ГУУ. 2009. 23 с.

³⁸ Kuzmin, O., & Stanasiuk, N. (2020). Assessment of the Financial and Investment Components of Industrial Potential. *Annales Universitatis Mariae Curie-Skłodowska, sectio. H – Oeconomia*, Vol. 57, No. 1.


aks ettirish uchun boshlang'ich ko'rsatkichlarni va imkoniyatni tavsiflash uchun natijaviy ko'rsatkichlarni ishlab chiqish;

3-bosqich. Moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlarini baholash ko'rsatkichlari tizimini aniqlash, ya'ni, sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlarining miqdor va sifat jihatdan rivojlanish ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar majmui;

4-bosqich. Sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlari bo'yicha baholash ko'rsatkichlarini guruhlash, ya'ni, sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlari uchun dastlabki va ishlab chiqarishni rivojlantirish parametrlari bo'yicha ko'rsatkichlarni tanlash;

5-bosqich. Sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlarini baholash metodologiyasini aniqlash, ya'ni, ishonchli statistik ma'lumotlar asosida sanoat salohiyatining moliyaviy va investitsiya tarkibiy qismlarining rivojlanish darajasining integral ko'rsatkichlarini hisoblash.

Ma'lumki, pul oqimi hajmi va diskont stavkasiga o'zaro teskari, shu jihatdan investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligini oshirishning umumiy yo'nalishlarini quyidagicha ifodalash mumkin³⁹ (1.1.4-rasm).



1.1.4-rasm. Investitsion loyihaning iqtisodiy samaradorligini oshirishning umumiy yo'nalishlari

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, sanoatdagi investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi sof pul oqimlarining oshishi va

³⁹ Муравьева Н.Н., Развозжаева Е.А. Направления повышения экономической эффективности инвестиционных проектов // журнал «Science Time», 2016. 341 б.

vaqt omilining salbiy ta'sirining kam bo'lishi oshiradigan bo'lsa, loyihaning moliyaviy samaradorligi butun loyihani amalga oshirish davrida korxonaning to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi bilan ifodalanadi. Loyihaning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligiga ushbu paragrafda keltirilgan barcha omillar ta'sir ko'rsatib, shulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- resurslardan foydalanishni muvofiqlashtirish va intensivligini oshirish hamda samarali mehnat taqsimotini amalga oshirish;

- ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishga solish asosida katta hajmdagi kapitalni qollashdan ko'riladigan samaraga erishish;

- qo'shimcha yoki yondosh mahsulotlar ishlab chiqarishini ham loyihalashtirish asosida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali qo'shimcha samaraga ega bo'lish;

- loyihaning butun jarayonlarida fan-texnika yutuqlaridan keng foydalanish va innovatsion texnologiyalar asosida yuqori rentabellikka erishish mumkin.

1.2. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir qiluvchi omillar

Oldingi paragrafda sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari yoritilgan bo'lsa, mazkur paragrafda esa sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hamda ularga ta'sir qiluvchi omillar batafsil yoritiladi.

Xo'sh, avvalo moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik deganda nimani tushunishimiz kerak? So'zimiz avvalida shu savolga javob topaylik.

Ma'lumki, har qanday korxonada ixtiyorida ma'lum bir resurslar mavjud bo'ladi. Bu iqtisodiyot nazariyasida "iqtisodiy resurslar" deb yuritiladi.

Iqtisodiy resurslarga yer, kapital, xom ashyo, mehnat va boshqa resurslar kiradi. Ushbu resurslarning ma'lum bir miqdordagi kombinatsiyasidan foydalanib tashkil etilgan iqtisodiy faoliyat natijasida korxonaning moliyaviy faoliyati yuzaga keladi.

Moliyaviy faoliyat – bu moliyaviy resurslar (tushumlar va majburiyatlar, ya'ni bir so'z bilan aytganda xususiy kapital)ni tashkil etish va uni taqsimlashni o'z ichiga oladi (1.2.1-rasm).

L.V. Chxutiashvilining fikricha, korxonada moliyaviy faoliyat moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish, moliyaviy tahlil, moliyaviy munosabatlar va fondlarni boshqarish, investitsiya siyosatini belgilash va amalga oshirish, byudjetlar, banklar bilan munosabatlarni tashkil etish va boshqalar kiradi⁴⁰.

⁴⁰ Чхутиашвили Л.В. Основы финансовой деятельности на предприятиях в современных рыночных условиях // Журнал "Международный бухгалтерский учет", 8 (140) – 2010, с.29

I. O‘z kapitali



- ustav kapitali
- qo'shilgan kapital
- zahira kapitali
- taqsimlanmagan (qoplanmagan zarar) foyda
- maqsadli tushumlar va fondlar
- kelgusi davr uchun zahiralar

II. Majburiyatlar



- Uzoq muddatli majburiyatlar
- Joriy majburiyatlar. Jumladan: joriy kreditorlik qarzlari, -qisqa muddatli bank kreditlari
-

1.2.1-rasm. Moliyaviy resurslarning manbasi⁴¹

Albatta, korxonalarining moliyaviy faoliyatini yaxshiroq bilish uchun uning tarkibiy tuzilishini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Demak, korxonaning moliyaviy faoliyati tarkibi quyidagilardan iborat:

1) Moliyaviy munosabatlar:

- boshqa korxonalar va tashkilotlar (yetkazib beruvchilar, xaridorlar, transport va boshqa hamda xorijiy korxonalar) bo‘yicha moliyaviy munosabatlar;
- korxonaning ichidagi (korxonalar ishchilari, filiallar va sexlar bilan) moliyaviy munosabatlar;
- yuqori tashkilotlar, moliyaviy kompaniyalar, xoldinglar bilan moliyaviy munosabatlar;
- moliya-kredit tizimi bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlar.

2) Naqd pul mablag‘lari bo‘yicha:

- ustav kapitali (asosiy va aylanma fond mablag‘lari);
- qo‘shimcha kapital;
- zahira kapital;
- investitsion fond (jamg‘arma fondi, amortizatsiya fondi, boshqa manbalar);
- valyuta fondi;

⁴¹ Ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

- iste'mol fondi;
- ish haqi fondi;
- byudjet to'lovlari fondi;
- boshqa fondlar bo'yicha moliyaviy faoliyatlar.

Ta'kidlash lozimki, moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik o'zaro integratsiyalashgan jarayon bo'lib, bular bir-biriga o'zaro bevosita ta'sir etuvchi integral ko'rsatkichlar tizimini qamrab oladi (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning integral ko'rsatkichlar tizimi⁴²

№	Ko'rsatkichlar
1	CIR (Cost Income Ratio) – xarajatlar va daromadlar nisbati
2	ROCE (Return on Capital Employed) – jalb qilingan kapital rentabelligi
3	ROYE (Return On Equity) – aksionerlik kapitali rentabelligi
4	Rentabellik (aktivlar bo'yicha)
5	Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti
6	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti
7	Kreditorlik qarzdorligi aylanuvchanligi, kun hisobida
8	Debitorlik qarzdorligi aylanuvchanligi, kun hisobida
9	To'lovga layoqatlilik

Yuqorida keltirilgan sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning integral ko'rsatkichlar tizimi korxonaga bo'yicha umumiy samaradorlikni baholash imkonini bersada, korxonaning moliyaviy aktivlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Moliyaviy aktivlarni baholash:

1. Moliyaviy aktivlarni amortizatsiyalanadigan qiymati bo'yicha baholash;
2. Moliyaviy aktivlarni adolatli qiymati bo'yicha baholash:
 - boshqa to'plam daromadlar orqali;
 - foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot orqali baholanadi.

Ammo, amaliyotda sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini yagona metodologiya yoki bitta usulda baholab bo'lmaydi. Chunki, bu murakkab jarayon bo'lib, ya'ni murakkabligi shundaki birinchidan

⁴² Ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

foydalanilayotgan omillarni real vaqt oralig'ida o'lchash yoki natijalarni (ko'rsatkichlarni) aniq hisoblash imkoni to'liq mavjud emas, shuningdek ayrim omillarni umuman o'lchab bo'lmaydi (masalan, sifat omillari va ekologik omillar). Shu boisdan, bu borada turlicha ilmiy qarashlar mavjud.

Masalan, A.T. Trofimovaning fikricha ham sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi aynan bir ko'rsatkich bilan emas, balki, moliyaviy-iqtisodiy samaradorlikni baholovchi integral ko'rsatkichlar tizimi dinamikasi asosida baholanishi lozim. Shu jumladan, mehnat unumdorligi, kapital samaradorligi, material samaradorligi, xarajat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish birligining zahira sig'imi, moddiy iste'mol, ish haqi intensivligi kabilar shular jumlasidandir.

A.Trofimova o'z tadqiqotlarida sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash metodikasini quyidagicha ifodalaydi⁴³ (1.2.2-rasm).

N.S. Kalita va G.I.Mantsurovlar moliyaviy-iqtisodiy samaradorlikni baholashning umumlashtirilgan metodologiyalar asosida baholashda quyidagilarni hisobga olish lozimligini ta'kidlashgan⁴⁴:

- mehnat va moddiy xarajatlarni tejashni hisobga olgan holda xarajatlarni kamaytirish;
- ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining o'sish sur'atlariga erishish;
- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish natijasida yuzaga keladigan kapital qo'yilmalarni shartli ravishda tejash;
- boshqaruvning butun tuzilmasi va tashkil etilishini takomillashtirish natijasida yuzaga keladigan boshqaruv xarajatlarini tejash.


Yuqorida ta'kidlanganidek, sanoat korxonalarining umumiy samaradorligini faoliyat yo'nalishlari bo'yicha quyidagilarga ajratish mumkin:

- boshqaruv samaradorligi;
- iqtisodiy samaradorlik;

⁴³ Трофимова А.Т. Особенности методики оценки экономической эффективности производства в современных условиях // Вестник ТГАСУ №2, 2005. 60-61 с.

⁴⁴ Калита Н.С., Мансуров Г.И. Социалистическое производственное объединение. М.: Экономика, 1972. С.91

- moliyaviy samaradorlik;
- innovatsion samaradorlik;
- investitsion samaradorlik;
- ijtimoiy samaradorlik.



1.2.2-rasm. Sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash modeli

Yuqorida keltirilgan sanoat korxonalarining umumiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha samaradorlik turlaridan “innovatsion samaradorlik” muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Chunki, innovatsion yo‘nalishdagi yechimlar nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki, texnik jihatdan loyihaning kutilayotgan raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanishini ta‘minlashga imkon yaratadi.

Qiyosiy iqtisodiy samaradorlikni baholashda faqat xarajatlarning tarkibiy qismlarini va variantlar bo‘yicha farq qiluvchi variantlarni hisobga olish kifoY. Qoida tariqasida, texnik va iqtisodiy jihatdan eng ilg‘or variant qimmatroq, ya’ni kapitalni ko‘p talab qiladigan, lekin ayni paytda yaxshiroq, tejamkor operatsion

ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi⁴⁵.

Masalan, K_1 - birinchi variant, K_2 - ikkinchi variant bo'lib, ular holati $K_1 > K_2$ bo'lsin. Mazkur variantlar uchun operatsion xarajatlar mos ravishda S_1 va S_2 bo'lib, ular $S_1 < S_2$ bo'lsa, qiyosiy samaradorlik ko'rsatkichi quyidagi formula bilan aniqlanadi⁴⁶.

$$\bar{E} = \frac{C_2 - C_1}{K_2 - K_1} \geq E_n \quad (1.2.1)$$

bu yerda: E_n – iqtisodiyotning o'xshash tarmoqlari va bozor segmentlarida jahon tajribasini o'rganish va tahlil qilish asosida aniqlangan qiyosiy samaradorlik standarti.

Standart sifatida qabul qilingan qiyosiy samaradorlik ko'rsatkichi umumiy samaradorlik ko'rsatkichidan past bo'lmagan, ba'zi hollarda undan ham yuqori, ya'ni qo'shimcha resurslarni jalb qilish zarurati va qabul qilingan qarorning innovatsionligini hisobga olgan holda qabul qilindi⁴⁷.

Qiyosiy samaradorlikni baholash usulidan qisqartirilgan xarajatlarni taqqoslash quyidagi usulda amalga oshiriladi.

Agar $\bar{E} \cdot (K_2 - K_1) = C_2 - C_1 \geq E_n$ bo'lsa, u holda minimal unumdorlikning varianti quyidagiga teng:

$$\begin{cases} C_1 + E_n \cdot K_1 \\ C_2 + E_n \cdot K_2 \end{cases} \quad (1.2.2)$$

Yuqoridagi usulga asoslanib, investitsiya loyihasining texnik holatining hayotiylik sikli xarajatlarini baholash usuli keyinchalik paydo bo'ldi va hozir keng qo'llaniladi. Investitsiya loyihasining texnik holatining hayotiylik sikli xarajatlari - bu tahliliy tadqiqotlar natijasida aniqlangan xarajatlarning umumiy ifodasidi. Usulning maqsadi bir qator muqobil variantlardan ushbu uskunaga egalik qilishning umumiy narxini minimallashtirishga imkon beradigan eng ko'p resurslarni

⁴⁵ Романова А.Т., Бакеркин Ю.Ю. Оценка инновационных проектов на железнодорожном транспорте. – М., 2008. – 100 с.

⁴⁶ Хачатуров, Т. С. Эффективность капитальных вложений. - М.: Экономика, 1979. – 335 с.

⁴⁷ Хачатуров, Т. С. Эффективность капитальных вложений. - М.: Экономика, 1979. – 337 с.

tejaydigan yondashuvni tanlashdir⁴⁸.

Yuqoridagi xarajatlar qiyosiy samaradorlikni baholash usulidan foydalanishning alohida holati bo‘lib, murakkab iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida bir qator muhim afzalliklarga ega⁴⁹:

- bir martalik va joriy xarajatlarni davrlar hamda bosqichlari bo‘yicha, shu jumladan inflyatsiya sur‘atlari, iqtisodiy o‘shish tendensiyalari va risklarni hisobga olgan holda taqqoslash imkonini beradi;

- bir nechta variantlarni solishtirish imkoniyatini ta‘minlaydi;

- kompleks baholashda qo‘shimcha xarajatlar tarkibiy qismlarini (bog‘liq xarajatlar, transportdan tashqari xarajatlar va qayta aloqa xarajatlari) aniq hisobga olish imkonini beradi.

Fikrimizcha, tarmoqdagi **investitsion** jarayonlarni samarali amalga oshirish va ishlab chiqish uchun quyidagi tamoyillardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Tanlangan loyihalarni yuqori samarador tarmoqlarga yo‘naltirish;
2. Investitsion faoliyatning strategik va taktik boshqaruv maqsadlarini birgalikda olib borish;
3. Yechimlar qabul qilish jarayonida investitsion risklar darajasini hisobga olish;
4. Ilmiy-texnik taraqqiyot natijalaridan keng foydalanish;
5. Investitsion faoliyatning investitsiyalar samaradorligiga o‘zaro ta‘sir etuvchi omillar o‘zgarishining mosligini ta‘minlash;
6. Investitsiya jarayonlariga malakali kadrlarni yo‘naltirish.

Mazkur tamoyillarning e‘tiborga olinishi tarmoqda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishini ta‘minlaydi va mazkur jarayon samaradorligini baholashni quyidagicha ifodalash mumkin⁵⁰.

⁴⁸ Савиская Г. В. Развитие анализа хозяйственной деятельности в условиях перехода к рыночной экономике // Экономический анализ: теория и практика, 2003, № 9, С. 15-19.

⁴⁹ Бахарев Е.В. Экономическое обоснование проектного управления инвестиционной деятельностью на железнодорожном транспорте. Дисс. к.н.э., МГУПС, 2017. 30-31 с.

⁵⁰ Баранников М.М. Эффективность инвестиционных процессов, машиностроительного производства. М.: Финансы и кредит, 2008.

$$INI_{\partial} = INI_{\partial 1} - INI_{\partial 2} \quad (1.2.3)$$

bu yerda, INI_{∂} – investitsiya hisobiga qo‘shimcha sof daromad, $INI_{\partial 1}$ – investitsiya amalga oshirilganidan keyingi qo‘shimcha sof daromad, $INI_{\partial 2}$ – investitsiya amalga oshirilguniga qadar qo‘shimcha sof daromad.

S.R.Umarovning fikriga ko‘ra, investitsiya mablag‘ining samaradorligi quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar yordamida ham aniqlanadi⁵¹:

- mehnat birligida tejalgan jonli mehnat. Bu ko‘rsatkich investitsiya mablag‘lari sarfida mehnat unumdorligini qancha ortganligi hamda mehnatning yengillashganligini ko‘rsatadi;

- mahsulot birligini yetishtirishda qilingan umumiy xarajat.

Odatda mamlakatda investitsiyalarning samaradorligini baholashda jahon amaliyotida *ICOR* (*Incremental Capital-Output Ratio*) indeksidan foydalaniladi (ya’ni, YAİM o‘shining kapital sig‘imi)⁵².

$$ICOR = \frac{\left(\frac{I}{GDP} \cdot 100 \% \right)}{\Delta GDP \%} \quad (1.2.4)$$

bu yerda, I - asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, GDP - mamlakatda YAİM hajmi, $\Delta GDP \%$ - YAİM miqdorining o‘shish sur‘ati.

Fikrimizcha, *ICOR* indeksi asosida sanoat tarmog‘i bo‘yicha investitsiya samaradorligini baholashda ham qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

$$ICOR_{industry} = \frac{\left(\frac{I_{industry}}{Q_{industry}} \cdot 100 \% \right)}{\Delta Q_{industry} \%} \quad (1.2.5)$$

bu yerda, $I_{industry}$ – sanoat tarmog‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, $Q_{industry}$ – sanoat mahsulotlari hajmi, $\Delta Q_{industry} \%$ – sanoat mahsulotlarining o‘shish sur‘ati.

Bundan tashqari, amaliyotda investitsiyalar samaradorligini baholashda

⁵¹ Умаров С.Р. Qiшлоқ хўжалигига инвестицияларни жалб этиш ва улардан самарали фойдаланиш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган авторферат. Т.: 2008. - 10 с.

⁵² Пулатова М.Б. Саноат корхоналарининг ташқи иқтисодий фаолиятини молиялаштиришда инвестициялардан самарали фойдаланиш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси авторферати. Тошкент-2018. - 14 б.

investitsiyalarning foyda normasi – *ARR* (*Accounting Rate of Return*) usulidan ham foydalaniladi⁵³.

$$ARR = \frac{PN}{1/2(IC - RV)} \quad (1.2.6)$$

bu yerda, *ARR* – sanoat tarmog‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar samaradorligi, *PN* – investitsiyalardan ko‘riladigan o‘rtacha-yillik foyda, *IC* – ma‘lum loyiha doirasida investitsiyalangan pul mablag‘lari, *RV* – aktivlarning qoldiq qiymati.

Investitsiyalar samaradorligini baholovchi navbatdagi usul bu kapital qo‘yilmalarning mutlaq va taqqoslama samaradorligini aniqlash uslubidir⁵⁴. Mazkur uslub ikki usuldan iborat:

Birinchi, kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (E_i^{abs}), ushbu ko‘rsatkich kapital qo‘yilmalarning mutlaq samaradorligini ifodalaydi.

$$E_i^{abs} = \frac{P}{K} \quad (1.2.7)$$

bu yerda, *R* - rejalashtirilgan davrdagi-yillik foyda, *K* - obekt qurilishiga kapital qo‘yilmalar (qurilayotgan obektning smeta qiymati).

Ikkinchi, kapital qo‘yilmalarning qoplash muddati (I_c^p).

$$I_c^p = \frac{K}{P} \quad (1.2.8)$$

Shuningdek, investitsiyalarning sof joriy qiymati - *NPV* (*net present value*) ko‘rsatkichi ham mavjud⁵⁵. Ya‘ni, *NPV* - investitsiyalash obektidan foydalanish davrida oldindan qat‘iy belgilangan va o‘zgarmas foiz stavkasida olinadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlarning alohida muayyan davridagi barcha kirim va chiqimlarning diskontlashtirilish yo‘li bilan olingan va ular o‘rtasidagi farqni ifodalovchi qiymat bo‘lib, u quyidagicha hisoblanadi.

⁵³ Михайлова Э. А., Орлова Л. Н. Экономическая оценка инвестиций: Учебное пособие. - Рыбинск: РГАТА, 2008. - 75 с.

⁵⁴ Кангро М.В. Методы оценки инвестиционных проектов: учебное пособие / М. В. Кангро. Ульяновск: УлГТУ, 2011. - 131 с.

⁵⁵ Мелкумов Я.С. Финансовые вычисления. Теория и практика: Учебно-справочное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2002. - 253 с.

$$NPV = \sum_1^n \frac{P_k}{(1+i)^n} - IC \quad (1.2.9)$$

bu yerda, $R_1, R_2, R_k, \dots, P_n$ - n -yil davomida-yillik kapital qo'yilmalari, IC - boshlang'ich kapital, i - solishtirma foiz stavkasi, $\frac{P_k}{(1+i)^n}$ diskontlashtirilgan kapital qo'yilmaning hajmi.

Mazkur metodga ko'ra, agar $NPV > 0$ bo'lsa, u holda loyiha qabul qilinadi, agar $NPV < 0$ bo'lsa, u holda loyiha rad etiladi, agar $NPV = 0$ bo'lsa, u holda loyiha foyda ham, zarar ham keltirmaydi, deb hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning yana bir muhim bosqichi (ko'rsatkichi) bu – mehnat resurslaridan foydalanish jarayonidir.

Umumiy qilib aytganda, sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar jumlasiga, fond qaytimi, fond sig'imi, texnologiyadan intensiv foydalanish darajasi, texnologiyadan ekstensiv foydalanish darajasi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti, mehnat unumdorligi, mehnat intensivligi, mehnat unumdorligining o'sish sur'ati, mehnatning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, aylanma kapitalning aylanma koeffitsiyenti, korxonaning balans foydasi, ishlab chiqarish rentabelligi, 1 so'm mahsulot uchun xarajatlar, mahsulotning hom ashyo sig'imi, mahsulot energiya intensivligi, mahsulotlarning yoqilg'i intensivligi, moliyaviy barqarorlik va likvidlik hamda mahsulot sifati ko'rsatkichlari, shuningdek mahsulot raqobatbardoshligi kabilar shular jumlasidan. Mazkur ko'rsatkichlarni hisoblash usullari va qabul qilinadigan mezonlari quyida keltirilgan (1.2.2-jadval).

1.2.2-jadval

Sanoat korxonalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning asosiy ko'rsatkichlari⁵⁶

№	Ko'rsatkichlar	Hisoblash usuli	Mezon
1	Fond qaytimi (F.q.)	Mahsulot hajmi / asosiy vositalar	F.q. → max
2	Fond sig'imi (F.s.)	Asosiy vositalar / mahsulot hajmi	F.s. → min

⁵⁶ Muallif tomonidan tuzilgan (ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida).

3	Texnologiyadan intensiv foydalanish darajasi (T.i.f.d.)	Soatlik haqiqiy ishlab chiqarish hajmi / Soatlik meyoriy ishlab chiqarish quvvati	T.i.f.d. → max
4	Texnologiyadan ekstensiv foydalanish darajasi (T.e.f.d.)	Haqiqiy ishlagan vaqt / samarali ish vaqti fondi	T.e.f.d. → max
5	Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti (I.ch.q.f.k.)	Mahsulot ishlab chiqarish / ishlab chiqarish quvvati	I.ch.q.f.k. → max
6	Mehnat unumdorligi (M.u.)	Mahsulot ishlab chiqarish / mehnat vaqt sarfi	M.u. → max
7	Mehnat intensivligi (M.i.)	Vaqt sarfi / mahsulot ishlab chiqarish	M.i. → max
8	Mehnat unumdorligining o'sish sur'ati (M.u.o'.s.)	M.u.2 / M.u.1	M.u.o'.s. → max
9	Mehnatning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi (M.a.v.t.)	Asosiy vositalar / xodimlar soni	M.a.v.t. → max
10	Aylanma kapitalning aylanma koeffitsienti (A.k.a.k.)	Sotilgan mahsulotlar / Aylanma mablag'lar	A.k.a.k. → max
11	Korxonaning balans foydasi (K.b.f.)	Balans boyicha	K.b.f. → max
12	Ishlab chiqarish rentabelligi (I.ch.r.)	Balans foydasi / ishlab chiqarish aktivlari	I.ch.r. → max
13	1 so'm mahsulot uchun xarajatlar (1.s.m.u.x.)	Ishlab chiqarish xarajatlari / mahsulot ishlab chiqarish	1.s.m.u.x. → min
14	Mahsulotning hom ashyo sig'imi (M.h.a.s.)	Hom ashyo xarajatlari / mahsulot ishlab chiqarish	M.h.a.s. → min
15	Mahsulot energiya intensivligi (M.e.i.)	Energiya xarajatlari / mahsulot ishlab chiqarish	M.e.i. → min
16	Mahsulotlarning yoqilg'i intensivligi (M.yo.i.)	Yoqilg'i xarajatlari / mahsulot ishlab chiqarish	M.yo.i. → min
17	Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari	Balans boyicha	Ko'p yo'nalishli
18	Likvidlik ko'rsatkichlari	Balans boyicha	Ko'p yo'nalishli
19	Mahsulot sifati ko'rsatkichlari	Mahsulot turi boyicha	Ko'p yo'nalishli
20	Mahsulotning raqobatbardoshligi	Mahsulot turi boyicha bozordagi ulushi	Ko'p yo'nalishli

Demak, sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni o'rganish va ularni tasnifi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asosan ushbu omillarni "moliyaviy", "tashkiliy", "iqtisodiy" va "innovatsion" kabi guruhlarga ajratish hamda ularning tarkibiy elementlarini quyidagicha keltirish mumkin.

1. Moliyaviy omillar (moliyaviy barqarorlik):

- moliyaviy strategiya;
- moliyaviy va investitsiyalarni boshqarish samaradorligi;
- aktivlarning tarkibiy tuzilishi;
- o'z mablag'lari bilan ta'minlash;
- to'plangan kapitalning qisqa muddatli manbalari ulushi;
- kapitalning yuqori qiymati.

2. Tashkiliy omillar (marketing (bozor) barqarorligi):

- marketing strategiyasi;
- talabga ega bo'lgan mahsulotlarni chiqarish;
- standartlarga javob beradigan mahsulotlarni chiqarish;
- diversifikatsiyalangan mahsulotlar turlari.

3. Iqtisodiy omillar (ishlab chiqarish barqarorligi):

- ishlab chiqarish strategiyasi va taktikasi;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish;
- asosiy fondlarning samaradorligi;
- mehnat qurollaridan foydalanish darajasi;
- korxonani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan - materiallarni etkazib berilishi;
- biznes jarayonlarining sifati;
- ma'muriy va boshqaruv xodimlari uchun xarajatlari va umumiy xarajatlar

o'rtasidagi eng yaxshi muvozanatga erishilganligi.

4. Innovatsion omillar (innovatsiyalarning barqarorlik):

- innovatsion strategiya;
- yangi g'oyalarni joriy etish qobiliyati;
- moslashuvchanlik va doimiy takomillashtirishga e'tibor;
- yaxshi asoslangan istiqbollari;
- rivojlanish senariylarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish holati;
- motivatsion barqarorlik;
- investitsion jozibadorlik.

Ayrim iqtisodchilar fikriga ko'ra, so'ngi-yillarda mamlakatimizda sanoat korxonalarida iqtisodiy jihatdan jadal o'sish kuzatilib, sanoatni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirib o'tish mumkin⁵⁷:

- sanoat korxonalarini modernizatsiya va diversifikatsiyalash jarayonlarini chuqurlashtirish;

- sanoat korxonalarining ishlab chiqarish sektoridagi tarmoqlarning o'sish salohiyatini kengaytirish;

- ishlab chiqarish korxonalariga energiya va resurslarni tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish orqali ishlab chiqarishning energiya va resurs intensivligini kamaytirish hamda mehnat unumdorligini oshirish hisobiga resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;

- xom ashyodan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va sanoat korxonalarining xom ashyo bazasini yaxshilash hisobiga ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni oshirish;

- sanoat korxonalarini ishlab chiqarishini rivojlantirishda innovatsion omil rolini kuchaytirish.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va amaliy tavsiyalari hamda mazkur tadqiqotdan kelib chiqib, sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi murakkab jarayon bo'lganligi, shu sababli unga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatishini hisobga olib, omillarni kelib chiqish manbasiga ko'ra:

- tashqi (ekstensiv);

- ichki (intensiv) omillarga ajratish mumkin.

Bundan tashqari, sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga yuqori ta'sir ko'rsatuvchi omillar fan-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalar hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibi tashqi (institusional, tabiiy,


⁵⁷ Рахматов К.У., Турдикулова Г.О. Роль промышленности в условиях модернизации экономики / Тенденции экономического развития XXI века. Секция 1. 143 с. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/237853/1/142-144.pdf>

demografik, iqtisodiy, raqobat va texnologik omillar) va ichki omillarga barcha resurslar samaradorlik ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Barcha ko'rsatkichlarni miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin emasligi sababli, moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarning integratsiyasini ta'minlaydigan muvozanatli ko'rsatkich kartasiga murojaat qilish kerak. Balanslangan ko'rsatkichlar kartasi kompaniyaning tegishli istiqbollari aks ettiruvchi to'rtta strategik zonani belgilaydi⁵⁸:

- 1) moliyaviy istiqbol: aksiyadorlar kompaniyani qanday baholaydilar;
- 2) mijozlar nuqtai nazari: mijozlar kompaniyani qanday baholaydilar;
- 3) ichki biznes-jarayonlarning istiqboli: qanday jarayonlar kompaniyaga raqobatdosh ustunliklarni beradi;
- 4) ta'lim va rivojlanish istiqbollari: innovatsiyalar, rivojlanish, motivatsiya va o'sish uchun dasturlar mavjudmi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat korxonalarining investitsiya samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin (1.2.3-rasm).




⁵⁸ Дамодаран А. Инвестиционная оценка. Инструменты и техника оценки любых активов / А. Дамодаран. – М., 2004. – 1342 с.

1.2.3-rasm. Sanoat korxonalarining investitsiya samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi⁵⁹

Fikrimizcha, yuqoridagi rasmda ifodalanganidek sanoat korxonalarining investitsiya samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar moliyaviy aktivlarning amortizatsiyasi va shu bilan bog'liq cheklovlar, doimiy investitsiyalar hamda ilmiy-tadqiqotlar hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, sanoat korxonalarida investitsion loyihalar rejalashtirish, jarayon va natija bosqichidan iboratligini hisobga olsak, u holda investitsion loyihalarning samaradorligini oshirishda quyidagi yondoshuv (omillar) asosida ta'minlash mumkin (1.2.4-rasm).



1.2.4-rasm. Sanoat korxonalarida investitsion loyihalar samaradorligini oshirishning tarkibiy elementlari⁶⁰

Mazkur sanoat korxonalarida investitsion loyihalar samaradorligini oshirishning tarkibiy elementlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

⁵⁹ Muallif ishlanmasi.

⁶⁰ Muallif ishlanmasi.

- rejalashtirish – loyiha doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarni samarali olib borish, zamonaviy ilmiy va texnologik natijalarni amalda qo‘llash – yuqori texnologik innovatsion samaradorlik;

- jarayoni – kapital va mehnat resurslari muvofiqligini ta’minlash, sahsulotlarning raqobatdoshligiga erishish – tashkiliy tuzilma samaradorligi;

- natija – resurslarni samarali taqsimlash va unumdorligini oshirish, intensiv samaradorlik va mehnat unumdorligini oshirish – ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash.

1.3. Sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullari va mezonlari

Oldingi paragrafda sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan bo'lsa, ushbu paragrafda esa sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash bosqichlari, usullari va ularni hisoblash yo'llari yoritilib beriladi.

Avvalo, investitsion loyihasining samaradorligini tasniflovchi ko'rsatkichlar tarkibi va investitsion loyihaning xususiyatlariga to'xtalib o'tish joiz.

An'anaga ko'ra, investitsiya loyihasi uchta asosiy ko'rsatkich bilan tavsiflanishi mumkin:

- loyiha maqsadiga erishish uchun ish hajmi;
- loyihani amalga oshirish muddati;
- loyihaning qiymati⁶¹.

Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarining asosiy xususiyatlari uning hayotlik sikli, maqsadning mavjudligi, mahsulotning o'ziga xosligi, loyihaga ajratilgan cheklangan resurslar, individual aniq belgilangan byudjetning mavjudligi, loyiha muddatining cheklanganligi, tashkiliy rejalashtirish hamda risklarning mavjudligi kabilardan iborat bo'lib, ularni quyidagicha izohlash mumkin (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval

Sanoat korxonalaridagi investitsiya loyihalarining asosiy xususiyatlari⁶²

№	Investitsion loyihaning xususiyatlari	Izoh
1	Investitsiyaning hayot tsikli	- belgilangan boshlanish va tugash vaqt doirasiga ega bo'lgan yagona hayot tsikli;
2	Maqsadning mavjudligi	- investitsiya loyihasi doimo uni amalga oshirish natijasida erishilishi kerak bo'lgan aniq maqsadga ega;

⁶¹ Шкуратов Н.В. Понятие инвестиционного проекта: виды, сели, регламенты по принятию инвестиционных проектов / Учетно-аналитические инструменты исследования экономики региона: Сборник материалов IV Всероссийской научно-практической конференции: Типография Алеф, 2021. – С. 446-451.

⁶² Халтурина О.А., Терешкина Н.Е. Инвестиционное проектирование: учебное пособие. Новосибирск: Новосибирский государственный университет экономики и управления «НИИХ», 2020. 194 с.

3	Mahsulotning o'ziga xosligi	- loyiha mahsulotining o'xshashlari bo'lishi mumkin, lekin ayni paytda u faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak;
4	Loyihaga ajratilgan cheklangan resurslar	- investitsiya loyihasi cheklangan miqdorda loyihani amalga oshirish uchun foydalaniladigan moliyaviy resurslarning mavjudligini nazarda tutadi;
5	Individual aniq belgilangan byudjetning mavjudligi	- ruxsat etilgan maksimal xarajatlarni cheklash;
6	Muddatning cheklanganligi	- investitsiya loyihasini amalga oshirishning ma'lum muddati mavjud bo'lib, undan oshmasligi kerak;
7	Tashkiliy cheklanganlik	- faoliyati faqat muayyan rivojlanishni amalga oshirishga qaratilgan ixtisoslashgan jamoani shakllantirish;
8	Risklar	- investitsiya loyihasi uni amalga oshirish va natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ma'lum risklar bilan bog'liq.

Ma'lumki, investitsion loyihalarning samaradorligi quyidagi bosqichlarda baholanadi:

- investitsiya imkoniyatlarini izlash (imkoniyatlarni aniqlash va biznes rejani baholash);

- investitsiya loyihasini dastlabki shaklini tayyorlash (saralash bosqichi, investitsiyalarni asoslash);

- investitsiya loyihasini yakuniy shaklda tayyorlash (loyihalash bosqichi, texnik-iqtisodiy asoslash);

- investitsiya loyihasini amalga oshirish (iqtisodiy monitoring).

Investitsion loyihalar samaradorligini baholash tamoyillari barcha bosqichlarda bir xildir. Ammo, baholash samaradorlik turiga, shuningdek, dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi to'plami va darajasiga va ularning tavsifi tafsilotlariga qarab farq qilishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilganidek, "investitsion imkoniyatlarni izlash" bosqichida umumiy jihatdan investitsion loyihaning samaradorligini baholanadi. Bunda pul oqimlari joriy narxlarda amalga oshiriladi.

Keyingi bosqichlarda yuqoridagi barcha samaradorlik turlari baholanadi. Bunday holda, haqiqiy dastlabki ma'lumotlardan, shu jumladan moliyalashtirish tizimidan foydalanish lozim. Bunda hisob-kitoblar joriy va prognoz narxlarda amalga oshirilishi mumkin.

Loyihaning iqtisodiy monitoringi jarayonida loyihaning haqiqiy ko'rsatkichlarini dastlabki hisob-kitob bilan baholash va taqqoslash talab etiladi.

Mazkur baholash natijalari bo'yicha agar dastlabki hisob-kitobda olingan samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilmaganligi aniqlansa, loyihani davom ettirish yoki unga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Amaliyotda investitsiya loyihalari risklarini baholashning miqdoriy usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- statistik usullar;
- ko'rsatkichlarning o'zgarishi (dinamik);
- kritik nuqtalarni hisoblash;
- mumkin bo'lgan qiymatlar senariylarini prognozlash;
- imitatsion modellashtirish;
- diskontlash.

Ushbu usullarning orasida eng ko'p qo'llaniladigan usul diskontlash bo'lib, bunda ko'rsatkichlarni hisoblash uchun diskont koeffitsiyenti qo'llaniladi, bu loyihaning har bir hisob-kitob davri (yil) uchun kelajakdagi pul oqimlarini bazis davriga o'tkazish uchun fo'llaniladi. Ya'ni, pul oqimlari investitsiyalarni moliyalashtirish boshlangan paytdan boshlab diskontlanadi:

$$K_t = \frac{1}{(1-d)^t} \quad (1.3.1)$$

Bu yerda: K_t – t-davridagi chegirma omili; d – diskont stavkasi;

t – loyiha muddati (yil).

O'z kapitali va qarz kapitali uchun o'rtacha vaznli diskont stavkasi (\overline{K}_t) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\overline{K}_t = \frac{FS_{o'z} \cdot K_{o'z} + FS_k \cdot K_k}{100} \quad (1.3.2)$$

Bu yerda: $FS_{o'z}$ – o'z mablag'lari bo'yicha foiz stavkasi;

$K_{o'z}$ – umumiy investitsiya xarajatlaridagi o'z mablag'larining ulushi;

FS_k – kredit bo'yicha foiz stavkasi;

K_k – umumiy investitsiya xarajatlarida kreditning ulushi.

Investitsion loyihalarning tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ko‘p bo‘lib, ularning eng asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (1.3.2-jadval).

1.3.2-jadval

Sanoat korxonalarini investitsion loyihalarining tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar⁶³

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi
1	Yillik ishlab chiqarish hajmi	mln. so‘m
2	Qurilishning umumiy qiymati	mln. so‘m
3	Qurilishga jami investitsiyalar	mln. so‘m
4	Kapital xarajatlar	mln. so‘m
5	Sof aylanma mablag‘larning o‘sishi	mln. so‘m
6	Umumiy investitsiya xarajatlari	mln. so‘m
7	Loyiha muddati	yil
8	Mahsulot sotishdan tushgan daromad	mln. so‘m
9	Xodimlarning o‘rtacha soni	kishi
10	Mehnat unumdorligi	mln. so‘m/ish vaqti
11	Eksport yetkazib berish ulushi	%
12	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	mln. so‘m
13	Sotishdan olingan foyda	mln. so‘m
14	Sof foyda	mln. so‘m
15	Sof daromad	mln. so‘m
16	Aylanma kapital	mln. so‘m
17	Yakuniy samaradorlik ko‘rsatkichlari	mln. so‘m
18	Ishlab chiqarish ob‘ektlari foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab to‘lash muddati: oddiy yoki dinamik	yil
19	Ichki daromad darajasi	%
20	To‘plangan sof pul oqimi	mln. so‘m
21	Sof joriy qiymati	mln. so‘m
22	Daromadlilik indeksi	marta
23	Zararsizlik darajasi	%
24	O‘z aylanma mablag‘larini ta‘minlash koeffitsiyenti	koeffitsiyent
25	Sotishdan tushgan daromad	mln. so‘m
26	Mahsulot rentabelligi	%

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar samaradorligini baholashning ko‘plab usullari mavjud. Eng keng tarqalgan usullar bu – to‘lov muddati, samaradorlik koeffitsiyenti, sof joriy qiymat (NPV), rentabellik indeksi va

⁶³ Muallif tomonidan umumlashtirilgan.

investitsiyalarning daromadliligining ichki darajasi⁶⁴. Shu bilan birga, ushbu usullar ba'zi ijobiy tomonlari bilan bir qatorda investitsiya loyihalarini tahlil qilishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan bir qator muhim kamchiliklarga ega.

Investitsion loyihalarni baholashning asosiy mezonlari rentabellik, rentabellik va o'zini oqlashdir. Diskontlashga asoslangan sof joriy qiymat (NPV) usuli asosan qo'llash doirasi kengligi va hisoblashning nisbatan qulayligi tufayli keng tarqaldi. Ushbu usul loyihadan olingan sof daromadni loyiha tomonidan ishlab chiqarilgan diskontlangan pul oqimlari summasi va loyihaga kiritilgan investitsiyalarning umumiy miqdori o'rtasidagi farq sifatida hisoblash imkonini beradi⁶⁵.

Fikrimizcha, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mazkur sanoat va u bilan bog'liq yondosh sohalar infratuzilmasining holati loyihaning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, loyiha samaradorligini istiqbolli baholash bunday baholashning obektiv usulini to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi. Bu esa loyiha bo'yicha kutiladigan turli risklarning salbiy ta'sirini yumshatish yoki kamaytirishga yordam beradi.


Albatta, investitsion loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini baholashning bir qator usullari mavjud bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash orqali ifodalash mumkin (1.3.1-rasm).

Yuqoridagi rasmda investitsion loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholash usuli umumiy shaklda ifodalangan. Ammo, investitsion loyihalarni moliyaviy baholash usullarini kengaytirilgan tarkibda quyidagicha keltirish mumkin:

1. Korxonaning investitsion faoliyati bo'yicha:
 - shakllanish bosqichi (o'zini qoplash muddati);
 - o'sish bosqichi (sof joriy qiymat, tuzatilgan joriy qiymat, real variantlar);

⁶⁴ Petryk, O., Semenov, A., Hnatenko, I., Samiilenko, A., Rubezhanska V. & Patsarniuk, O. (2020). Conceptual model for assessing the investment attractiveness of innovative projects of industrial enterprises, *Accounting*, 6(7), 1345-1350; Ganushchak-Efimenko, L., Hnatenko, I., Kozhushko, R., Rebilas, R., Rubezhanska, V. & Krakhmalova, T. (2020). Optimization models of investment management in the activities of innovative enterprises, *Management Theory and Studies for Rural Business and Infrastructure Development*, 42(3), 225-234; Samborskyi, O., Isai, O., Hnatenko, I., Parkhomenko, O., Rubezhanska V. & Yershova, O. (2020). Modeling of foreign direct investment impact on economic growth in a free market, *Accounting*, 6(5), 705-712.

⁶⁵ Методические рекомендации по оценке эффективности инвестиционных проектов на железнодорожном транспорте [Текст]. М.: МПС РФ, 1998. – 122 с.



1.3.1-rasm. Investitsion loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini baholash usullarining turkumlanishi⁶⁶

- barqaror rivojlanish bosqichi (rentabelligi, rentabellik indeksi, ichki daromad darajasi, o'zgartirilgan ichki daromad darajasi);

- saqlash bosqichi (diskontlangan to'lov muddati).

2. Vaqt o'tishi bilan pul qiymatining o'zgarishi bo'yicha:

- statik usullar (to'lov muddati, daromadning hisob-kitob darajasi);

- dinamik usullar (diskontlangan to'lov muddati, rentabellik indeksi, ichki daromad darajasi, o'zgartirilgan ichki daromad darajasi, sof joriy daromad, tuzatilgan diskontlangan daromad, real variantlar).

Yuqorida qayt etilgan - sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni va korxonaning investitsion faoliyatini tahlil qilishda qo'llaniladigan statistik va dinamik usullar quyidagicha mazmun-mohiyatga ega va ularni hisoblash usullari quyida keltiriladi:

1) Buxgalteriya yondoshuviga ko'ra – statistik usullar:

⁶⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

- to'lov muddati (Payback Period, **PP**) – sof pul oqimlaridan investitsiya xarajatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan minimal vaqt oralig'idir. Agar investitsiya loyihasining har bir davrida pul oqimi miqdori doimiy bo'lsa, hisoblash formulasi:

$$PP = \frac{I_0}{CF} \quad (1.3.3)$$

bu yerda: I_0 – dastlabki investitsiya hajmi;

CF – sof operatsion pul oqimi.

Agar CF turli davrlarda notekis bo'lsa, PP qiymati butun va kasr komponentlarining yig'indisi bilan aniqlanadi. Butun qism uchun:

$$PP = \sum CF \quad (1.3.4)$$

Kasr qism uchun:

$$D = \frac{I_0 - (CF_1 + CF_2 + CF_j)}{CF_j} + 1 \quad (1.3.5)$$

bu yerda: j, D – qoplanish davrining butun va kasr komponentlari.

Sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini to'lov muddati (PP) ko'rsatkichi bo'yicha baholash ayrim afzalliklar va kamchiliklarga ega⁶⁷.

Afzalliklari:

1. Loyihaning likvidligi va tavakkalchiligini baholashga imkon beradi:

- a) mablag'larni uzoq muddatli immobilizatsiya qilish;
- b) xavfning oshishi.

2. Foydalanish qulayligi.

Kamchiliklari:

1. Qoplanish muddatidan tashqari investitsiyalardan olingan daromadlarni hisobga olmaydi;

2. Qayta investitsiya qilish imkoniyati va pulning vaqtinchalik qiymati e'tiborga olinmaydi;

3. Qo'shish xususiyatiga ega emas;

⁶⁷ Oksana Isai et al. Methods of multi-criteria evaluation of economic efficiency of investment projects // Journal of Project Management. 6 (2021), pp. 93–98.

4. Loyihaning umumiy rentabelligini qoplash usulidan alohida foydalanish bilan o'lash mumkin emas.

- investitsiyaning rentabellik koeffitsiyenti (Accounted Rate of Return, **ARR**) – loyihaning o'rtacha ARR muddati davomida loyihaga o'rtacha investitsiyalar bilan taqqoslanadi.

$$ARR = \sum \frac{P_t}{n} + \frac{I_0 + (I_0 - SA_t)}{2} \quad (1.3.5)$$

bu yerda: P_t – loyiha foydasi;

n – investitsiya loyihasi muddati.

Agar loyiha tugagandan so'ng tugatish (CF)ni olish rejalashtirilgan bo'lsa, unda uning prognoz qilingan qiymati (SA_t) investitsiyalarning dastlabki miqdoridan chiqarib tashlanishi kerak.

Sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini investitsiyaning rentabellik koeffitsiyenti (ARR) ko'rsatkichi bo'yicha baholash ham ayrim afzalliklar va kamchiliklarga ega. Jumladan, afzalliklari:

- tushunish oson va oddiy hisob-kitoblarga asoslanganligidir.

Kamchiliklari:

1. Pulning vaqtinchalik qiymatini va daromadni qayta investitsiya qilish imkoniyatini hisobga olmaydi:

2. Xarajatlarning ayrim turlarining pulga bog'liq bo'lmaganligi va ular bilan bog'liq soliqlarni tejash hisobga olinmaydi;

3. Bir xil (ARR)ga ega bo'lgan loyihalarning afzalliklarini baholash mumkin emas.

2) Diskontlangan baholashga asoslangan – dinamik usullar:

- investitsiyalarning sof joriy qiymati (Net Present Value, **NPV**);

$$NPV = -I_0 + \sum \frac{CF_t}{1 - IRR} = 0 \quad (1.3.6)$$

Ushbu mezon asosida investitsion loyiha bo'yicha qaror qabul qilishda quyidagi shartlarga asoslaniladi:

- agar $NPV > 0$ bo'lsa, u holda loyiha musbat, uni qabul qilish mumkin;
- agar $NPV < 0$ bo'lsa, u holda loyiha manfiy, uni rad etish lozim;
- agar $NPV = 0$ bo'lsa, u holda loyiha o'zgarmas, loyihani qabul qilish foyda ham, zarar ham keltirmaydi.

- ichki daromad darajasi (Internal Rate of Return, **IRR**) – IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasidir. Shu boisdan IRR va NPV bir xil ko'rinishdagi formula bo'yicha hisoblanadi.

Umuman olganda, IRR va NPV usullari asosida sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashda quyidagi afzalliklar va kamchiliklar mavjud.

Afzalliklari:

- usulni tushunish juda qiyin emas va moliyaviy menejmentning asosiy maqsadi - aksiyadorlarning foydasini oshirishga qaratilganligi.

Kamchiliklari:

1. Hisoblashning murakkabligi;
2. Optimal loyiha har doim ham ajratilmaydi;
3. Loyihadan barcha oraliq pul tushumlarini ichki rentabellik darajasida qayta investitsiyalashning noreal holatini ko'rib chiqadi, chunki, mablag'larning bir qismi dividendlar shaklida to'lanishi mumkin, ikkinchisi esa - past rentabellikdagi, lekin ishonchli aktivlarga investitsiya qilinadi;
4. Noan'anaviy pul-kredit loyihalari uchun ichki daromad darajasining ko'pligi muammosini hal qilmaydi;
5. Loyihaning hajmini va shuning uchun korxonada farovonligini oshirishning mutlaq qiymatini hisobga olmaydi.

- investitsiyalar rentabelligi indeksi (Profitability Index, **PI**);

$$PI = \frac{PV}{I_0} \quad (1.3.7)$$

Bu yerda (PV) quyidagicha aniqlanadi:

$$PV = S \frac{CF_t}{1+r} \quad (1.3.8)$$

Agar, $PI > 1$ bo'lsa, loyiha qabul qilinishi kerak;

$PI < 1$ bo'lsa, loyiha rad etilishi kerak;

$PI = 1$ bo'lsa, u holda loyiha na foydali, na foyda keltirmaydi.

Investitsiyalar rentabelligi indeksi (PI) bilan sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashda ham bir qator afzallik va kamchiliklar mavjud bo'lib, afzalliklari: bu nisbiy ko'rsatkich, shu sababli, taxminan bir xil NPV qiymatiga ega bo'lgan bir nechta alternativlardan bitta loyihani tanlashda yoki maksimal NPV qiymatiga ega investitsiya portfelini yaratishda qulaydir.

Kamchiligi, investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonida yoki ular tugagandan so'ng sezilarli darajada mablag'lar chiqib ketishini o'z ichiga olgan favqulodda loyihalarni tahlil qilishda foydalanib bo'lmaydi.

- o'zgartirilgan ichki daromad darajasi (Modified Internal Rate of Return, **MIRR**);

$$MIRR = \sqrt[n]{\frac{FV}{PV}} - 1 \quad (1.3.9)$$

bu yerda: FV – kelajakdagi qiymat (oxirgi davr oxiridagi);

PV – joriy qiymat (birinchi davr boshidagi);

n – pul oqimlari sodir bo'ladigan teng davrlar soni.

- chegirmali to'lov muddati (Discounted Payback Period, **DPP**);

$$DPP = \frac{I_0}{CF_T} \quad (1.3.10)$$

bu yerda: CF_T - investitsiya natijasida hosil bo'lgan-yillik sof pul oqimi.

- investitsiyalar rentabelligi (Return on Investment, **ROI**).

$$ROI = \frac{R_t - C_t}{C_t} \cdot 100 \% \quad (1.3.11)$$

bu yerda: C_t – i -davrdagi xarajat, shu jumladan dividendlar va foizlar;

R_t – i -davrdagi daromad.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, amaliyotda sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashda optimallashtirish yoki optimal nuqta (variant)ni aniqlash usuli (albatta, bunda yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin) mavjud usullar orasida eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Ya'ni, investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligini qiyosiy reyting baholash algoritmi quyidagi bosqichlar ketma-ketlikda amalga oshirilishi mumkin:

1) Manba ma'lumotlari matritsa (a_{ij}) ko'rinishida taqdim etiladi;

bu yerda: i – ko'rsatkichlar soni ($i = 1, 2, 3, \dots, n$); j – loyihalar soni ($j = 1, 2, 3, \dots, m$).

2) Har bir ko'rsatkich uchun maksimal qiymat topiladi va mos yozuvlar loyiha ustuniga kiritiladi ($m + 1$);

3) a_{ij} matritsaning boshlang'ich ko'rsatkichlari quyidagi formula bo'yicha optimal loyihaning tegishli ko'rsatkichi uchun standartlashtiriladi.

$$X_{ij} = \frac{a_{ij}}{a_{ij}^{\max}} \quad (1.3.12)$$

bu yerda: X_{ij} – j -loyihani iqtisodiy samaradorligining standartlash-tirilgan ko'rsatkichi;

a_{ij} – j -loyihani iqtisodiy samaradorligining dastlabki ko'rsatkichi.

4) Baholanayotgan har bir loyiha uchun loyiha reytingi (r_j) qiymati quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$r_j = \sqrt{k_1(1 - x_{1j}^2)^2 + k_2(1 - x_{2j}^2)^2 + k_3(1 - x_{3j}^2)^2 + \dots + k_n(1 - x_{nj}^2)^2} \quad (1.3.13)$$

bu yerda: $k_{1,2,3,\dots,n}$ – ekspert tomonidan tayinlangan ko'rsatkichlarning vaznlari.

Yuqoridagi usuldan foydalanib, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning afzalligi shundaki, mazkur usul investitsiya loyihalari bo'yicha qarorlarni qabul qilishdagi noaniqlikni sezilarli

darajada kamaytiradi. Ya'ni, ko'rib chiqilayotgan investitsiya loyihalaridan eng samaralisini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan qaraganda, investitsiya loyihalarining turlari va ularni amalga oshirish shartlarining xilma-xilligi o'rtasidagi sezilarli farqlarga qaramay, loyihalar samaradorligini baholash va ularni ekspertizadan o'tkazish ma'lum ma'noda bir xilda, umumiy asosli tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak hamda ular uch guruhga bo'linadi⁶⁸:

1) Loyihaning tabiati va maqsadlaridan qat'i nazar, qo'llanilganda xo'jalik yurituvchi subektlarning oqilona xatti-harakatlarini ta'minlaydigan eng umumiy uslubiy usullar;


2) Loyihalar samaradorligini baholashning uslubiy, iqtisodiy asosliligini ta'minlash va ular asosida qabul qilingan qarorlar;

3) Operativ muvofiqligi loyihalar samaradorligini baholash tartibini osonlashtiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning konseptual modelini quyidagicha ifodalash mumkin (1.3.2-rasm).

Fikrimizcha, nazariy jihatdan yuqorida keltirilgan investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash usullari va mezonlarining aksariyatida nafaqat foyda va investitsiya o'rtasidagi munosabatni ko'rib chiqiladi, balki, vaqt qiymati ham hisobga olinadi. Chunki, pulning qiymati vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi, u ko'tarilishi yoki qadrsizlanishi mumkin. Shu boisdan ham investitsiya loyihasining joriy qiymatini statik va dinamik ko'rsatkichlar orqali har tomonlama baholash lozim va shunday baholash orqali aniqlangan kelajakda kutiladigan qiymat mazmunga ega bo'ladi.

⁶⁸ Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов. Теория и практика. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Дело, 2002. — 888 с.



1.3.2-rasm. Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning konseptual modeli⁶⁹

Bundan tashqari, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari bo'yicha qaror qabul qilishda quyidagi asosiy mezonlarni hisobga olish zarur:

- loyihaning ijtimoiy ahamiyati;
- investorning imidjiga ta'siri;
- investorning maqsad va vazifalariga muvofiqligi;
- investorning moliyaviy imkoniyatlariga muvofiqligi;
- investorning tashkiliy imkoniyatlariga muvofiqligi;
- yaratilgan mahsulotning bozor salohiyati;
- loyihani qoplash muddati;
- foyda;
- risk darajasi;
- loyihaning ekologik tozaligi va xavfsizligi;
- qonun hujjatlariga rioya qilish.

⁶⁹ Muallif ishlanmasi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va tadqiq etish natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- har qanday investor uchun amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining samarali bo'lishi muhimdir. shu bois, har doim investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash dolzarb masala bo'lib, investitsion qarorlarni qabul qilishda investitsiya turi, investitsiya loyihasining qiymati va hajmi kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir;

- investitsion samaradorlik – korxonaning investitsion faoliyatidan olinadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlari orasidagi farq bilan ifodalansa, bunda vaqt omili ta'siri ham hisobga olinadi;

- investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi resurslardan foydalanishni muvofiqlashtirish, samarali mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishga solish, qo'shimcha yoki yondosh mahsulotlar ishlab chiqarishini ham loyihalashtirish asosida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, fan-texnika yutuqlaridan keng foydalanish va innovatsion texnologiyalar asosida yuqori rentabellikka erishish orqali ta'minlash mumkin;

- sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga: fond qaytimi, fond sig'imi, texnologiyadan intensiv foydalanish darajasi, texnologiyadan ekstensiv foydalanish darajasi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti, mehnat unumdorligi, mehnat intensivligi, mehnat unumdorligining o'sish sur'ati, mehnatning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, aylanma kapitalning aylanma koeffitsiyenti, korxonaning balans foydasi, ishlab chiqarish rentabelligi, mahsulotning hom ashyo sig'imi, mahsulot energiya intensivligi, mahsulotlarning yoqilg'i intensivligi, moliyaviy barqarorlik va likvidlik hamda mahsulot sifati ko'rsatkichlarini kiritish mumkin;

- sanoat korxonalarining investitsiya samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar moliyaviy aktivlarning amortizatsiyasi va shu bilan bog'liq cheklovlar,

doimiy investitsiyalar hamda ilmiy-tadqiqotlar hisoblanadi. bundan kelib chiqadiki, sanoat korxonalarida investitsion loyihalar rejalashtirish, jarayon va natija bosqichidan iboratligini hisobga olsak, u holda investitsion loyihalarning samaradorligini oshirishda yuqori texnologik innovatsion samaradorlik, tashkiliy tuzilma samaradorligi va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash kabi yondoshuvlar mavjud;

- investitsion loyihalar samaradorligini baholash tamoyillari barcha bosqichlarda bir xildir. ammo, baholash samaradorlik turiga, shuningdek, dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi to'plami va darajasiga va ularning tavsifi tafsilotlariga qarab farq qilishi mumkin;

- sanoat korxonalarida investitsiya loyahalarini amalga oshirishda mazkur sanoat va u bilan bog'liq yondosh sohalar infratuzilmasining holati loyihaning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. shu boisdan, loyiha samaradorligini istiqbolli baholash bunday baholashning obektiv usulini to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi. bu esa loyiha bo'yicha kutiladigan turli risklarning salbiy ta'sirini yumshatish yoki kamaytirishga olib keladi.

**II BOB. SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION
LOYIHALARNING MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI
HOLATI VA TAHLILI**

**2.1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoat korxonalarining o‘rni va ularning
rivojlanish tendensiyalari tahlili**

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida mamlakatimiz iqtisodiyotining, xususan sanoat tarmog‘ining rivojlanish, uning bosqichlari va holatining tahlillari keltiriladi.

Ma’lumki, hozirgi O‘zbekiston hududida hunarmandchilik davlatlar paydo bo‘lishidan oldin paydo bo‘lgan va davlatlar vujudga kelgan paytda hunarmandchilik ancha taraqqiy etgan. Ammo, hunarmandchilik to‘g‘risidagi yozma manbalar mamlakatimiz hududida ham kechroq paydo bo‘lgan. Hunarmandchilik to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarni biz VI-VII asrlarda yaratilgan Avestodan topilgan⁷⁰.

Bundan kelib chiqadiki, mamlakatimiz hududida sanoatning ilk shakli (ko‘rinishi) bo‘lgan hunarmandchilik VI-VII asrlardan oldingi davrlarda ham mavjud bo‘lgan va u takomillashib kelgan.

O‘zbekiston hududida sanoat taraqqiyoti ildizini uzoq tarixga ega bo‘lgan hunarmandchilik tashkil etgan. Samarqand, Buxoro, Urganch, Toshkent, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Andijon kabi shaharlarda mayda va yirik hunarmandchilik rivoj topdi. O‘zbekistonda haqiqiy ma’nodagi sanoatning paydo bo‘lishi XIX asrning 2-yarmiga to‘g‘ri keladi. O‘rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida o‘lkaga rus sanoatchilari va Rossiya kapitali ham kirib keldi va hom ashyoga birlamchi ishlov beradigan paxta tozalash, vino, aroq, konserva, paxta moyi kabi mahsulotlarga ixtisoslashgan korxonalar paydo bo‘ldi hamda

⁷⁰ Abdullayeva R.G. Hunarmandchilik rivojlanishining ilmiy konsepsiyalari va uning milliy an’anaviy asoslari // Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2021, 12(148). 38 б.

O‘zbekistonda sanoati - Rossiya sanoati va iqtisodiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanishni boshladi⁷¹.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda “mashinalashtirilgan” sanoat tarmog‘ining paydo bo‘lishi va rivojlanishi XIX asrning 2-yarmidan boshlangan bo‘lsada, sha davrlarda mamlakatda iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi tarmog‘i ancha rivojlangan edi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 1927-yilda O‘zbekiston “xalq xo‘jaligi”da qishloq xo‘jaligining salmog‘i 62,6 foizni, sanoatning salmog‘i 34,8 foizini tashkil etardi. Sanoat ishlab chiqarishining 90 foizi qishloq xo‘jaligi xom ashyosini qayta ishlashga asoslangan edi. Shunday ekan, o‘lkada ishlab chiqaruvchi kuchlarni jadal rivojlantirishni ta’minlaydigan, shahar va qishloqlarda mavjud ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibi va texnikaviy negizini tubdan o‘zgartiradigan, zamonaviy texnika bilan muomala qilishga qodir yetarli miqdordagi milliy kadrlarni vujudga keltira oladigan sanoatni joylashtirish muhim edi⁷².

XX asrning 20-yillari oxiriga kelib O‘rta Osiyoda mashinasozlik ustaxonalari ko‘paygani munosabati bilan ilk bilim yurtlari tashkil qilindi va ularning zimmasiga ushbu soha uchun kerakli kadrlarni yetishtirish vazifasi yuklatildi⁷³. Shuningdek, shu davrda mashinasozlik va asbobsozlikka ixtisoslashgan texnikumlar soni 20 taga yetgan.

1928-1932-yillarda O‘zbekistonda 298 ta sanoat korxonasi qurilib, 79 ta korxonaga qayta tashkil etilgan bo‘lsa, 1931-yili hokimiyat qarori bilan Toshkent zonasida birinchi mashinasozlik “Tashqishloqmash” traktor zavodi ishga tushirildi va korxonaga traktorlar hamda ularga kerakli bo‘lgan butlovchi qismlarni ishlab chiqara boshladi⁷⁴.

⁷¹ Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahsid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., 1997; Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda, T., 1999; O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti, T., 1998; Ekonomika O‘zbekistana i stran SNG, T., 2001; O‘zbekiston Respublikasi, T., 2001. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sanoat-uz/>

⁷² O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq. 2000. –B. 339-340.

⁷³ Axmedov A., Saydaminova M. O‘zbekiston Respublikasi: qisqacha ma’lumotnoma. Ikkinchi to‘ldirilgan nashri. –Toshkent: O‘zbekiston, 1993. –B. 23.

⁷⁴ O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq. 2000. –B. 340.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda sanoat tarmog'ining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

O'zbekistonda sanoatning rivojlanish bosqichlari⁷⁵

Bosqichlar	Izoh
I bosqich (XIX asrning 2-yarmi)	Mazkur davrda hom ashyoga birlamchi ishlov beradigan paxta tozalash, vino, aroq, konserva, paxta moyi kabi mahsulotlarga ixtisoslashgan sanoat korxonalarining tashkil etilgan ⁷⁶ .
II bosqich (XX asr)	Ushbu davrda mamlakat sanoatida elektroenergetika, gaz, neft, ko'mir, qora va rangli metallurgiya, qishloq xo'jaligi mashinasozligi (traktorlar, paxta terish mashinalari), avtomobilsozlik, kabel, elektronika, paxta tozalash sanoati mashinasozligi, samolyotsozlik, irrigatsiya-qurilish mashinasozligi, kimyo, sement, qurilish materiallari, tibbiyot, yog'-moy, to'qimachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlari shakllandi. Jumladan, 1920-yildan boshlab yengil sanoatning pillakashlik, yigiruv-to'quv, tiquvchilik, poyabzal fabrikalari qurila boshladi. Xususan, 1937-yilda Toshkent to'qimachilik kombinati ishga tushirildi. 1940-50-yillardan ko'mir sanoati, gaz sanoati, neft sanoati jadal rivojlana boshladi ⁷⁷ . Shuningdek, shu davrda Toshkent aviatsiya zavodi qurilib, unda IL14 (1940), AN10, AN8, AN12, AN22, "Antey" (1956), superlayner IL76 (1973) ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1992-yildan IL114 samolyoti ishlab chiqarilgan ⁷⁸ .
III bosqich (XX asr oxiri – 2017-yil)	Bu bosqich mamlakat mustaqillikka erishgandan keyin davrni qamrab oladi. Bunda iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan strategik xarakterlar. Xususan, chet el kapitalining kirib kelishi va u bilan birga xaraj sanoatining ham kirib kelishi bilan izohlanadi. Jumladan, 1996-yilda Koreya bilan hamkorlikda "UzDEUavto" QK ishga tushirildi. Shu-yili avtobuslar va yuk mashinalari ishlab chiqaradigan "SamKochavto" zavodi barpo etildi. Bu davrdagi yana muhim bir qadam bu – mulkchilik shakllarining huquqiy asosi yaratilishi bo'ldi (O'RQ-152-XII-son ⁷⁹). Bu xususiylashtirishning boshlanishi bo'lib, mamlakatda xususiy kichik (o'rta) sanoat korxonalarining rivojlanishiga zamin yaratdi.
IV bosqich (2017-yildan h.v.)	Ushbu bosqichda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jadallashtirildi. Xususan, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari (PF-4947-son ⁸⁰), milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash (PF-60-son ⁸¹) hamda barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash (PF-158-son ⁸²)

⁷⁵ Muallif tomonidan umumlashtirilgan.

⁷⁶ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sanoat-uz/>

⁷⁷ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sanoat-uz/>

⁷⁸ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/samolyot-uz/>

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonuni, O'R-152-XII-son, 1990 y.

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi".

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi".

⁸² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasi".

	borasida keng qamrovli, izchil va samarali iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.
--	--

Albatta, yuqodagi tahlillardan ham ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda sanoatning rivojlanishi uzoq tarixni o‘z ichiga olgan bo‘lsada, ta’kidlash joizki, yaqin-yaqingacha mamlakat iqtisodiyotida qishloq ho‘jaligi ustuvor bo‘lib kelgan.

Tahlillarga ko‘ra, 2010-yilga kelib respublikada YAIM hajmi 2184,3 mlrd. so‘mga yetib, bu 1995-yilga nisbatan 164,2 marta, 2000-yilga nisbatan 16,5 marta, 2005-yilga nisbatan 3,6 martaga oshgan. Shuningdek, mazkur davrda Qoraqolpog‘iston Respublikasi YAHM hajmi 1095 mlrd. so‘mga yetib, bu 1995-yilga nisbatan 121,7 marta, 2000-yilga nisbatan 15,2 marta, 2005-yilga nisbatan 3,3 m., Andijonda 1325,7 mlrd. so‘mga yetib, bu 1995-yilga nisbatan 150,6 marta, 2000-yilga nisbatan 12,0 marta, 2005-yilga nisbatan 2,8 m., Buxoroda 2366,9 mlrd. so‘mga yetib, bu 1995-yilga nisbatan 197,2 marta, 2000-yilga nisbatan 16,3 marta, 2005-yilga nisbatan 3,5 m.ga oshganligi kuzatilgan.

1995-2010-yillarda YAIMning qo‘shimcha o‘shish sur‘ati o‘rtacha 2,4 foizni tashkil etgan. Shu davrdanoq tarkibiy o‘zgarishlar borasidagi siyosatning izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti tarkibi diversifikatsiya qilindi. Natijada, mamlakatda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko‘payib boshladi.

Xususan, 1995-yilda YAIM hajmi 302,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, unda tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati 263,0 mlrd. so‘mga yetib, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish hajmi 85,1 mlrd. so‘mni, sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) mahsulotlari hajmi esa 73,1 mlrd. so‘mni (jumladan, sanoat mahsulotlari hajmi 51,7 mlrd. so‘m va qurilish hajmi 21,4 mlrd. so‘m), jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 104,8 mlrd. so‘mni, shu jumladan savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 23,1 mlrd. so‘mni, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari hajmi 22,1 mlrd. so‘mni hamda boshqa xizmat tarmoqlarida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 59,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi YAIMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi⁸³, mlrd.
so‘m**

	1995	2000	2005	2010
I. YAIM, jami	302,8	3 255,6	15 923,4	62 388,3
<i>shu jumladan:</i>				
Yalpi qo‘shilgan qiymat	263,0	2 848,0	14 233,3	56 671,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	39,8	407,6	1 690,1	5 716,9
II. Yalpi qo‘shilgan qiymat	263,0	2 848,0	14 233,3	56 671,4
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	85,1	978,5	4 192,8	11 201,0
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	73,1	658,6	4 142,0	18 875,3
sanoat	51,7	462,4	3 370,9	15 114,8
qurilish	21,4	196,2	771,1	3 760,5
Xizmatlar	104,8	1 210,9	5 898,5	26 595,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	23,1	351,6	1 400,2	5 982,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	22,1	250,6	1 676,7	7 337,7
boshqa xizmat tarmoqlari	59,6	608,7	2 821,6	13 274,7

Tahlillarga ko‘ra, 2010-yilda YAIM hajmi 62388,30 mlrd. so‘mni tashkil etib, bu 1995-yilga nisbatan 206,0 martaga, 2000-yilga nisbatan 19,2 martaga va 2005-yilga nisbatan 3,9 martaga oshganligi qayt etilgan. Mazkur o‘shish tendensiyasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich sanoat tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Xususan, 2010-yilda sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarilgan (qazib olingan, qayta ishlangan) mahsulotlar hajmi 15114,80 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 1995-yilga nisbatan 292,4 martaga, 2000-yilga nisbatan 32,7 martaga hamda 2005-yilga nisbatan 4,5 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda YAIM hajmi 1066569,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Jumladan, respublika hududlarida yaratilgan YAHM hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri (181859,6 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, undan keyingi navbatni Toshkent viloyati (107918,1 mlrd. so‘m), Navoi (81943,2 mlrd. so‘m), Samarqand (74115,3 mlrd. so‘m), Andijon (68223,4 mlrd. so‘m) va Farg‘ona (65781,0 mlrd. so‘m) viloyatlari band etgan.

YAHM hajmi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar Qashqadaryo (58404,5 mlrd. so‘m), Buxoro (53232,3 mlrd. so‘m), Namangan (47112,6 mlrd. so‘m) va Surxondaryo (40909,8 mlrd. so‘m) viloyatlarida kuzatilgan bo‘lsa, bu borada nisbatan past ko‘rsatkichlar Xorazm (36916,5 mlrd. so‘m), Jizzax (33323,3 mlrd.

⁸³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari.

so‘m) va Sirdaryo (21549,9 mlrd. so‘m) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi (32916,1 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelgan (2.1.3-jadval).

2.1.3-jadval

Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi⁸⁴, mlrd. so‘m

	2011	2013	2015	2017	2019	2021	2023
YaiM	103232,6	153311,3	221350,9	317476,4	532712,5	738425,2	1066569
Qoraqalpog‘iston Res.	2800,3	4366,7	6703,8	10855,1	19557	25681,8	32916,1
Andijon	6183,4	9918,6	13914	19753	33581,3	43332,5	68223,4
Buxoro	6110,8	8325,9	12368,6	17191	27963,2	38350,1	53232,3
Jizzax	3048,2	4517,9	6730,8	9680,7	16056,1	23274,3	33323,3
Qashqadaryo	8858,9	12308,3	17247,7	21597,3	32223	42560,2	58404,5
Navoiy	5285,4	7708,5	10545,2	14681,5	36224,3	58730,3	81943,2
Namangan	4703,5	7217,2	10826,9	15311,1	23764	34194,1	47112,6
Samarqand	8218,5	12383	18513,7	27039	38765,9	52893,6	74115,3
Surxondaryo	5217,1	7436,4	11114,4	14404,4	22288,1	29693,2	40909,8
Sirdaryo	2374,3	3446,4	5076,9	6799,6	11865,2	15071,5	21549,9
Toshkent	10200,6	15420,7	22089	29092,8	54759,3	82221,8	107918,1
Farg‘ona	7228,5	10966,4	16342,4	20749,2	32520,8	47760,5	65781
Xorazm	3870,6	5815,3	8940,4	12008,1	19129,1	26464,3	36916,5
Toshkent sh.	13409,6	19838,9	29847,4	49259,1	84720,4	121779,8	181859,6

Tahlillarga ko‘ra, 2023-yilda YAIM hajmining o‘shish sur‘ati 106,0 foizni tashkil etgan. Shu jumladan, YAHM hajmining eng yuqori o‘shish sur‘ati Toshkent shahrida (109,3 %) kuzatildi (bu respublika darajasidan yuqori). Keyingi o‘rinlarni Sirdaryo (105,9 %), Navoi (105,8 %), Samarqand (105,6 %), Farg‘ona (105,5 %), Namangan 105,4 %), Buxoro (105,2 %), Andijon (105,1 %), Jizzax (105 %) va Qashqadaryo (105 %) hamda Toshkent (105 %) viloyatlari band egdi. Shuningdek, bu borada past o‘shish sur‘atlari Surxondaryo (104,4 %) va Xorazm (104,4 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi (103,5 %) hissalariga to‘g‘ri kelgan (2.1.4-jadval).

2.1.4-jadval

Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining o‘shish sur‘ati⁸⁵, %

	2011	2013	2015	2017	2019	2021	2023
YaiM	107,5	107,3	107,2	104,4	106	107,4	106
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	107,3	108	110,5	106,1	107	107,6	103,5
Andijon	110,4	108,6	103,4	104,1	105,8	104,8	105,1
Buxoro	111	108,3	108,5	102,4	106,3	106,5	105,2
Jizzax	110,7	108,9	108,3	104,1	108,3	107,7	105

⁸⁴ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

Qashqadaryo	106	105,4	106,6	103,5	101,8	106,8	105
Navoiy	107	104,4	103,8	101,5	105,2	107,3	105,8
Namangan	110,7	108	107,7	103,4	107,4	109,7	105,4
Samarqand	109,9	108	108,4	101,5	105,4	108,5	105,6
Surxondaryo	110,9	107,8	107,3	103,4	103,7	107,9	104,4
Sirdaryo	108,1	105	107,1	95,5	109,5	109	105,9
Toshkent	105,5	106,5	105,9	101	107,3	110,4	105
Farg'ona	109,6	107,5	107,3	98,9	104,4	108,2	105,5
Xorazm	106,8	109,7	109	104,5	105,7	108,1	104,4
Toshkent sh.	110,3	108,5	109,2	110,8	108,5	116	109,3

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda YAIM hajmi 1066569,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 106 foizga o'sgan. YAIM shakllanishida tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 1008423,1 mlrd. so'mni tashkil etib, jumladan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 245222,5 mlrd. so'm, sanoat (qurilishni qo'shgan holda) 325378,4 mlrd. so'm, sanoatda 262824,2 mlrd. so'm, qurilishda 62554,2 mlrd. so'm, xizmatlar sohasida 437822,2 mlrd. so'm, shu jumladan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bo'yicha 72382,4 mlrd. so'm, tashish va saqlash, axborot va aloqa bo'yicha 77833,1 mlrd. so'm hamda boshqa xizmat tarmoqlarida 287606,7 mlrd. so'm qo'shilgan qiymat yaratilgan (2.1.5-jadval).

2.1.5-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmi⁸⁶, mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar	2011	2013	2015	2017	2019	2021	2023
I. YaiM, jami	103 232,6	153 311,3	221 350,9	317 476,4	532 712,5	738 425,2	1 066 569,0
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91 605,1	137 382,9	201 204,0	282 684,4	487 449,8	686 432,4	1 008 423,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	11 627,5	15 928,4	20 146,9	34 792,0	45 262,7	51 992,8	58 145,9
II. Tarmoqlar-ning yalpi qo'shilgan qiymati	91 605,1	137 382,9	201 204,0	282 684,4	487 449,8	686 432,4	1 008 423,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30 658,6	42 636,8	64 680,3	90 983,9	129 885,0	181 787,7	245 222,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	20 417,3	32 646,9	49 849,2	74 799,0	164 635,7	232 535,7	325 378,4

⁸⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

sanoat	15 951,8	25 388,7	38 466,6	59 570,4	134 185,8	186 978,2	262 824,2
qurilish	4 465,5	7 258,2	11 382,6	15 228,6	30 449,9	45 557,4	62 554,2
Xizmatlar	40 529,1	62 099,2	86 674,5	116 901,5	192 929,1	272 109,1	437 822,2
savdo, yashash va ovqatlanish boyicha xizmatlar	7 619,7	11 217,9	16 145,3	21 540,6	32 179,7	46 750,0	72 382,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	9 432,2	14 609,1	19 158,2	25 305,6	36 028,6	47 934,3	77 833,1
boshqa xizmat tarmoqlari	23 477,2	36 272,3	51 371,0	70 055,4	124 720,8	177 424,8	287 606,7

2023-yilda YAIMning o'sish sur'ati 106,0 foiz (mazkur ko'rsatkich 2010-2023-yillar mobaynida o'rtacha hisobda 106,1 foiz)ni tashkil etgan. Jumladan, tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatlari o'sish sur'ati 105,9 foiz (106,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'ati 104,1 foiz (104,5 %), sanoat mahsulotlari o'sish sur'ati (qurilishni qo'shgan holda) 106,1 foiz (107,0 %), shu jumladan sanoat o'sish sur'ati 106,0 foiz (105,8 %), qurilish ishlarining o'sish sur'ati 106,4 foiz (111,5 %), xizmatlarning o'sish sur'ati 106,8 foiz (107,1 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 110,2 foiz (109,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarining o'sish sur'ati 112,3 foiz (109,0 %), boshqa xizmatlarning o'sish sur'ati 104,5 foiz (105,8 %)ni tashkil etgan (2.1.6-jadval).

2.1.6-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari⁸⁷, mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar	2011	2013	2015	2017	2019	2021	2023
I. YaiM, jami	107,5	107,3	107,2	104,4	106,0	107,4	106,0
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	107,7	107,4	107,3	104,3	106,1	107,6	105,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	106,6	106,7	106,5	105,7	104,7	104,6	107,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	107,7	107,4	107,3	104,3	106,1	107,6	105,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	106,1	106,4	106,1	101,2	103,1	104,0	104,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	105,2	109,8	108,3	105,4	108,3	108,4	106,1
sanoat	104,4	107,5	105,3	105,2	105,0	108,8	106,0
qurilish	108,1	118,4	118,8	106,0	122,9	106,8	106,4
Xizmatlar	110,0	106,8	107,6	106,0	106,7	109,5	106,8

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

savdo, yashash va ovqatlanish boyicha xizmatlar	115,7	113,8	111,3	102,1	107,1	113,6	110,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	111,2	103,4	106,1	111,3	106,6	117,8	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	107,7	106,0	107,0	105,3	106,7	106,3	104,5

2023-yilda yaratilgan YAIMning 94,5 foizi tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymatlari hissasiga to‘g‘ri keladi (mazkur ko‘rsatkich 2010-2023-yillar mobaynida o‘rtacha hisobda 90,8 foizni tashkil etgan). Shundan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 24,3 foiz (29,6 %), sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) 32,3 foiz (28,0 %), shu jumladan sanoat 26,1 foiz (22,2 %), qurilish 6,2 foiz (5,8 %), xizmatlar 43,4 foiz (42,4 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 7,2foiz (7,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 7,7 foiz (8,8 %), boshqa xizmat tarmoqlari 28,5 foiz (26,0 %) ulushga ega (2.1.7-jadval).

2.1.7-jadval


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti tarkibi⁸⁸, jamiga nisbatan foizda

Ko‘rsatkichlar	2011	2013	2015	2017	2019	2021	2023
I. YaiM, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	88,7	89,6	90,9	89,0	91,5	93,0	94,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	11,3	10,4	9,1	11,0	8,5	7,0	5,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	33,5	31,0	32,1	32,2	26,6	26,5	24,3
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	22,3	23,8	24,8	26,5	33,8	33,9	32,3
sanoat	17,4	18,5	19,1	21,1	27,5	27,3	26,1
qurilish	4,9	5,3	5,7	5,4	6,2	6,6	6,2
Xizmatlar	44,2	45,2	43,1	41,4	39,6	39,6	43,4
savdo, yashash va ovqatlanish boyicha xizmatlar	8,3	8,2	8,0	7,6	6,6	6,8	7,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	10,3	10,6	9,5	9,0	7,4	7,0	7,7
boshqa xizmat tarmoqlari	25,6	26,4	25,5	24,8	25,6	25,8	28,5

⁸⁸ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

Mazkur tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, ushbu paragraf bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar natijalariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida sanoat tarmog'ining o'rnini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) Mamlakat YAIMda sanoatning ulushi 26,1 foizni, qurilishni qo'shgan holda esa 32,3 foizni tashkil etadi (2.1.1-rasm. 2023-yil bo'yicha);



2.1.1-rasm. YaiMda sanoatning ulushi⁸⁹, %

2) 2023-yil mobaynida respublika bo'yicha jami amalga oshirilgan eksport hajmi 24426,2 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Shundan sanoatning ulushi 38,1 foizni tashkil etadi. Shuningdek, eksportning 33,4 foizi oltin hissasiga to'g'ri kelgan. Agar oltin sanoat asosida qazib, qayta ishlanishini hisobga olsak, demak, eksportda sanoatning ulushi 71,5 foizga yetadi;

3) Bugungi kunda mamlakatda jami mehnat resurslari soni 19517,5 ming kishini tashkil etsa, shuning 13538,9 ming nafarini iqtisodiyotda band bo'lganlar tashkil etadi. Shundan 13,5 foizi sanoat tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi;

4) 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, aholining umumiy daromadlari hajmi 728826,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. E'tiborli jihati shundaki, aholi umumiy daromadlar tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlarning ulushi 70,5 foizni tashkil etgan;

5) Mamlakat iqtisodiyotida sanoat o'rnining yana muhim jihati shundaki, sanoatning rivojlanishi fan-texnikaning rivojlanishini talab etadi. Bu esa mamlakat taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, sanoatlashuv mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

⁸⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagilar va shu kabilar mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida sanoat tarmog'ining o'rni nechog'lik muhim ekanligini ko'rsatadi.

2.2. Sanoat korxonalari faoliyatida investitsiya loyihalarining roli va ulardan samarali foydalanishni jarayonini optimallashtirish

Insoniyatning tadrijiy rivojlanish bosqichlari shundan dalolat beradiki, sanoat dunyo hayotining barcha sohalari uchun muhimdir. Chunki, sanoat insonlarga zaruriy mahsulot va vositalarni ishlab chiqaradi, turli tarmoqlar, hududlar va umuman mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

G.Kleyner va boshqalarning⁹⁰ fikricha ham iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga iqtisodiy tizimning birlamchi bo'g'inlari bo'lgan sanoat korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi orqali erishish mumkin.

Abbatta, sanoat korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi birinchi o'rinda mamlakatda olib borilayotgan sanoat siyosatiga bog'liq. Bunda iqtisodiy barqarorlik, samarali tashqi o'zaro ta'sirlarni qo'llab-quvvatlash va yangi hamkorlar topish, yangi qiymat zanjirlarini yaratish, etishmayotgan texnologik va boshqaruv vakolatlarini tezda shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi⁹¹.

Fikrimizcha, mamlakatdagi sanoat siyosati bilan bir qatorda sanoat korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun mamlakatning investitsion jozibadorligi, investitsion faoliyat yoki bir so'z bilan aytganda investitsiya siyosati ham muhim hisoblanadi. Chunki, investitsiyalar iqtisodiyotning, jumladan sanoat korxonalarining "tomiridagi qoni" bo'lishi bilan birga ulardagi innovatsion faoliyatning rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi.

T.Pasheeva va A.Zverevlarning fikricha, investitsiyalar sanoat korxonasining rivojlanishini yo'lga qo'yadigan va uni jadal rivojlanish bosqichiga o'tishiga imkon beradigan mexanizm sifatida qaraladi. Shu boisdan, sanoat korxonalari investitsiya faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini

⁹⁰ Клейнер Г.Б., Агафонов В.А., Балычева Ю.Е. Мезоэкономика России: стратегия разбега. М.: Научная библиотека; 2022. 808 с.

⁹¹ Симачев Ю.В., Федюнина А.А., Кузык М.Г. Новые контуры промышленной политики. Докл. к XXIII Ясинской (Апрельской) междунар. науч. конф. по проблемам развития экономики и общества. М.: Нас. исслед. ун-т «Высшая школа экономики»; 2022. 73 с.

rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim. Bu sanoat korxonalari faoliyatini yaxshilash uchun zarur⁹².

YE. Sulimova va P. Yakovlevalarning fikricha⁹³ esa investitsion loyiha sanoat korxonasiga o‘z foydasini oshirish, raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lish va uning uzoq muddatli o‘shirishini ta‘minlash imkonini beradi.

K.A. Muxitdinovanning fikricha⁹⁴, sanoat bo‘yicha investitsiya loyihalari – ish o‘rinlarini yaratish orqali ishsizlikni kamaytirishga yordam berib, aholi turmush darajasini oshiradi.

Ammo, O.A. Abramova fikricha, sanoatga investitsiyalarni jalb qilishda ekologik va ijtimoiy mas‘uliyat masalalari ham e‘tiborga olinishi kerak. Zero, har qanday mamlakat ekologik standartlar va ijtimoiy meyorlarga rioya qilishni o‘z ichiga olgan barqaror rivojlanishga intilishi lozim⁹⁵.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sanoat korxonalari faoliyatida investitsiya loyihalarining roli va uning samarasini oshirish uchun quyidagilarni inobatga olish lozim:

- investitsiya muhitini yaratish va innovatsion faollikni rag‘batlantirishga qaratilgan davlat va hududiy miqyosida chora-tadbirlarni kuchaytirish – sanoat korxonalarining innovatsion faolligini oshirishga olib keladi;

- sanoat korxonalarining investitsion strategiyasini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan innovatsion sanoat o‘shirishini va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirishni hisobga oluvchi kompleks chora-tadbirlarni kengaytirish;

- sanoat korxonalari, hududiy va davlat investitsiya siyosatida yuqori samarali, tez o‘zini oqlaydigan innovatsion loyihalarga ustuvorlik berish, ularni topish, jalb etish va samarali tashkil etish lozim.

⁹² Pasheeva T.Y., Zverev A.L. The role of investment in the development of industrial enterprises // Russian Journal of Industrial Economics. 2024;17(1):29–39

⁹³ Сулимова Е.А., Яковлева П.С. Роль инвестиционного проектирования в обеспечении устойчивости компании // «Инновации и инвестиции». № 7. 2023. 34-36 с.

⁹⁴ Мухитдинова К.А. Роль инвестиций в развитие промышленности в Узбекистане. LicenseCC BY 4.0.: ТГТУ. 2023. 188-189 с. DOI:10.60078/2023-vol1-iss1-pp187-189

⁹⁵ Абрамова О.А. Инвестиции в промышленность как условие ее экономического роста // Вестник ОГУ. 2008. №8. 78-84 с.

Bu borada mamlakatimizda so‘ngi-yillarda jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi⁹⁶ qabul qilingan bo‘lib, mazkur strategiyaning 49-maqsadi “Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish” deb, belgilangan. Ushbu maqsad doirasida mamlakatimizda 250 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 mlrd. AQSH dollari xorijiy investitsiyalar va 30 mlrd. AQSH dollari davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, 2021-yil 20 avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan masalalar ijrosini, shuningdek xorijiy hamda mahalliy investorlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25 avgustdagi “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5233-son qarori⁹⁷ qabul qilingan.

Mazkur qaror bilan respublikada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilmalari:

- kirish avtomobil yo‘llari, ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash;
- elektr energiyasi va gaz tarmog‘ini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash;
- aloqa tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash kabilar moliyalashtirish manbalari sifatida belgilab berilgan. Ushbu amaliy ishlarning bajarilishi – amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Buning amaldagi ko‘rinishi va pirovard natijalari sifatida quyidagilarni qayt etish mumkin.

⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

⁹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 25 августдаги “Инвестиция лойиҳаларини ташқи инфратузилма билан таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-5233-сон қарори.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1 yanvar holatiga respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) 485024 tani tashkil etadi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 37772 ta; jami sanoatda 69444 ta, shundan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 2439 ta, ishlab chiqarish sanoatida 65426 ta, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 518 ta hamda suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 1061 ta; qurilish sohasida 34749 ta, jami xizmatlar sohasida 343059 ta (shundan eng yuqori ulushga ega xizmatlar sohasi bu – ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda 158065 ta) korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda (2.2.1-jadval, 1-ilovaga qarang).

2.2.1-jadval

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)⁹⁸

№	Iqtisodiy faoliyat turlari	2014	2016	2018	2020	2022	2024
1	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	16936	17611	21019	29379	46501	37772
2	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	625	1139	1530	2349	2820	2439
3	Ishlab chiqarish sanoati	34711	39302	46426	66729	86566	65426
4	Qurilish	18618	21173	24118	36199	43695	34749
5	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	11344	11547	12744	14803	17333	18019
6	Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	5204	5787	8643	11520	13469	12659
7	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	11814	12359	12352	12407	12852	13485
8	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	3329	3608	3958	5314	6422	5972
9	Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	9814	10251	12343	15207	18771	18411
10	Uy xizmatchilari yollovchi va o'z iste'moli uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi uy xo'jaliklari faoliyati	0	0	1	1	1	2
11	Eksterritorial tashkilotlar faoliyati	1	3	0	0	0	0
12	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	366	336	326	381	478	518
13	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	1240	1000	903	1117	1288	1061

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

14	Axborot va aloqa	6438	6370	6403	7901	10587	10551
15	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	3966	4792	3867	3562	3279	2776
16	Tashish va saqlash	8404	9892	11996	15360	18251	17935
17	Yashash va ovqatlanish boyicha xizmatlar	12004	14299	17126	25636	33104	28364
18	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	57968	59432	63199	101081	157129	158065
19	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	10898	10850	12511	13529	14236	14637
20	Ta'lim	19042	19925	20226	27755	31756	31185
21	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8479	8082	5840	7903	10391	10998


Xitoylik iqtisodchi olimlarning fikricha, sanoat korxonalarining texnik samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardir⁹⁹.

Dastlabki statistik ma'lumotlarga ko'ra¹⁰⁰, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun 2023-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1 trln. so'mni tashkil etib, uning o'sish sur'ati 2022-yilga nisbatan 122,1 foizni tashkil etgan.

Mazkur asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar manbalari tarkibida eng yuqori ulush 24,1 % yoki 84,9 trln. so'm korxonalar mablag'lari hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, jami investitsiyalarning 23,9 % yoki 84,3 trln. so'mi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, 23,4 % yoki 82,4 trln. so'mi kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda 9,5 % yoki 33,3 trln. so'mi aholi mablag'lari hissasiga to'g'ri kelgan (2.2.1-rasm).

⁹⁹ Yao Y., Zhang Q. An Analysis of Technological Efficiency of Chinese Industrial Firm. Economic Research, No. 10, 2001, 13-19 p.

¹⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.



2.2.1-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar manbalari bo'yicha tarkibi¹⁰¹, (2023-yil)

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'ngi-yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik va barqaror iqtisodiy islohotlar natijasida mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar yo'naltirishga bo'lgan qiziqish oshib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2 may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida "Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o'zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o'tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O'zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo'llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo'lib qolaveradi" – deb, ta'kidladi¹⁰².

Yuqorida qayt etilgan O'zR PQlar belgilangan vazifalar va boshqa islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar shuni taqozo etadiki, sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy

¹⁰¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2 may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/7195>

samaradorligini yanada oshirish maqsadida investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini optimallashtirish lozim.

Ma'lumki, investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini optimallashtirish yuqori texnologiyali (qiymatli) mahsulotlarni ishlab chiqish va investitsiya loyihasining samaradorligini oshirishga olib keladi. Bu investitsiya rentabelligi bilan baholanadi va uning diskontlangan stavkasi (I_r) quyidagicha anaqlanadi:

$$I_r = \frac{\sum_{t=1}^t Q_t \cdot (1-d)^{t-1}}{\sum_{t=1}^t K_t \cdot (1-d)^{t-1}} \quad (2.2.1)$$

bu yerda: Q_t – investitsiyalarning hayotlik sikli davomida sanoat korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan yangi turdagi mahsulotlar hajmi;

K_t – investitsiya hajmi (yuqori texnologiyali mahsulotlar yaratish loyihasini amalga oshirishga kiritilgan investitsiyalar hajmi);

t – investitsiya loyihasini amalga oshirish davri (hayotlik sikli);

d – diskont stavkasi.

Demak, investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini optimallashtirish bevosita iqtisodiy-matematik va ekonometrik modellashtirish orqali amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalaridagi investitsion loyihalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning umumiy xususiyati tavakkalchilikka asoslangan bo'lib, bu korxonalar iqtisodiy-moliyaviy salohiyati bilan paralel kuzatiladigan kategoriyadir. Sanoat korxonasining tavakkal qilishga moyilligi, birinchidan bozor o'zgaruvchanligi va noaniqlikni o'z foydasiga o'zgartirishga intilishi, ikkinchi tomondan esa korxonalar boshqaruvini tavakkal qilishga majburlovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun korxonalar zimmasiga olgan tavakkalchilik miqdori bevosita iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalanishga va daromadning ko'paytirishiga undaydi.

Shuningdek, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish jarayonlari iqtisodiy xatarning mavjudligi bois, undan foydalanishda ehtiyotkorlik va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni hisobga olishga asoslanganligi bilan farq qiladi.

Bu yerda samaradorlikka erishish istagi har doim iqtisodiy javobgarlik bilan muvozanatlanadi, uning ko'lamlari asosan korxonalar uchun maqbul bo'lgan xatar (daromad yetishmasligi, yo'qotishlarga, mol-mulkning yo'qolishi) darajasini belgilaydi.

Foyda sanoat korxonalarining asosiy muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Odatga ko'ra erishilgan daromadga ko'ra, sanoat korxonalarining moliyaviy faoliyatiga baho beriladi. Foyda hajmining ko'payishi o'z mablag'i bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil etish hamda mehnat jamoasining ijtimoiy talabini qondirishni ta'minlaydi. Shuningdek, foyda hisobidan byudjet, bank va boshqa tashkilotlarga bo'lgan to'lov majburiyatlari bajariladi. Demak, sanoat korxonasi moliyaviy natijasini tahlil qilishda foydaning tashkil topishi, ishlatilishi va uning o'zgarishiga ta'sir etayotgan omillarni o'rganish maqsadga muvofiq.

Optimallashtirish masalalarini yechishda ishlab chiqarishni rejalashtirishda unga mos ishlab chiqarish funksiyasini tanlay bilish muhim ahamiyatga ega. Optimallashtirish masalalardan biri ishlab chiqarish korxonalarida foydani maksimallashtirish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish mahsulotlar hajmi $F(K, L)$ bo'lib, bir birligini bahosi (P_0) bo'lsin, u holda ishlab chiqarilgan mahsulot bahosi ($P_0 F(K, L)$) bo'ladi. Bu yerda bir birlik sarflangan asosiy fond (K) va mehnat resurslari (L) ning bahosi mos ravishda (P_K) va (P_L) bo'lsin, u holda, sarflangan resurslar bahosi ($P_K K + P_L L$) ga teng bo'ladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot bahosi sarflangan resurslar bahosidan kam bo'lmasligi lozim, aks holda ishlab chiqarish noto'g'ri rejalashtirilgan bo'ladi. Shuning uchun

$$\Pi = P_0 F(K, L) - (P_K K + P_L L) \geq 0 \quad (2.2.2)$$

deb qaraladi.

Ishlab chiqarish resurslarining $K \geq 0$, $L \geq 0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan qiymatlaridan ushbu

$$\Pi(K, L) = P_0 F(K, L) - (P_K K + P_L L) \quad (2.2.3)$$

funksiyaga maksimal qiymat beradigani topilsin, ya'ni

$$\begin{cases} \Pi(K, L) = P_0 F(K, L) - (P_K K + P_L L) \rightarrow \max \\ K \geq 0, L \geq 0 \end{cases} \quad (2.2.4)$$

Iqtisodiy jarayonlarda foyda cheksiz ortib bora olmaydi, u yuqoridan biror son bilan chegaralangan bo'ladi. Yuqoridagi masala uchun ishlab chiqarish hajmi xarajatlarga qaraganda sekinroq o'sishi mumkin bo'lsa, tegishli foyda yuqoridan chegaralangan bo'ladi. Bu shartni bir jinsli tartibi (δ) birdan kichik bo'lgan ishlab chiqarish funksiyalari qanoatlantiradi, chunki, ishlab chiqarish hajmi ortib borgan sari ishlab chiqarish salohiyati kamayib boradi.

Masalani shartsiz ekstremum masalasi deyish mumkin, chunki, $\Pi(K, L)$ funksiyaga maksimal beradigan nuqtalar ichidan $K \geq 0$, $L \geq 0$ tengsizlikni qanoatlantiradigani ajratib olinishi yetarli.

$$\begin{cases} \frac{\partial \Pi(K, L)}{\partial K} = P_0 \frac{\partial F(K, L)}{\partial K} - P_L = 0 \\ \frac{\partial \Pi(K, L)}{\partial L} = P_0 \frac{\partial F(K, L)}{\partial L} - P_K = 0 \end{cases} \quad (2.2.5)$$

$$K \geq 0, L \geq 0$$

Bu sistemaning yechimi (K_0, L_0) , bo'lsin. $K_0 \geq 0$, $L_0 \geq 0$ bo'lsin. Ma'lumki, agar quyidagi

$$\begin{cases} \frac{\partial \Pi(K_0, L_0)}{\partial K^2} < 0 \text{ yoki } \frac{\partial \Pi(K_0, L_0)}{\partial L^2} < 0 \\ \frac{\partial \Pi(K_0, L_0)}{\partial K^2} \cdot \frac{\partial \Pi(K_0, L_0)}{\partial L^2} - \frac{\partial \Pi(K_0, L_0)}{\partial K \partial L} > 0 \end{cases} \quad (2.2.6)$$

Tengsizlik o'rinli bo'lsa, u hoda (K_0, L_0) nuqtada $\Pi(K, L)$ funksiya maksimumga erishadi. $\Pi = P_0 F(K, L) - (P_K K + P_L L) \geq 0$

(2.2.3) tengsizlikda harajatlar bahosi ($P_K K + P_L L$) dan iborat. Bunda ishlab chiqarish hajmi berilgan miqdordan kam bo'lmashligi talab etiladi.

$$\begin{cases} P_K K + P_L L \rightarrow \min \\ F(K, L) \geq Q \\ K \geq 0, L \geq 0 \end{cases} \quad (2.2.7)$$

Agar $\gamma(K, L) = Q - F(K, L) \leq 0$ va $\varphi(K, L) = P_K K + P_L L$ shartli belgilashlar kiritilsa, odatdagi shartlar tengsizliklar bilan berilgan shartli minimum masalasiga keladi.

$$\begin{cases} \varphi(K, L) \rightarrow \min \\ \gamma(K, L) \leq 0 \\ K \geq 0, L \geq 0 \end{cases} \quad (2.2.8)$$

Bu masala shartlari tengliklar bilan berilgan shartli minimum masalasiga

$$\begin{cases} \varphi(K, L) \rightarrow \min \\ \gamma(K, L) + M^2 = 0 \\ K \geq 0, L \geq 0, M \geq 0 \end{cases} \quad (2.2.8)$$

keltiriladi.

$F(K, L)$ Kobb-Duglas funksiyasidan iborat bo'lganda xarajatlarni minimallashtirishni ko'rib chiqish mumkin.

$$\begin{cases} P_K K + P_L L \rightarrow \min \\ a_0 K^\alpha L^{1-\alpha} = Q \\ K \geq 0, L \geq 0 \end{cases} \quad (2.2.9)$$

Agar $d = P_K K + P_L L$ bo'lsa, u holda

$$K = \left(\frac{Q}{a_0} \cdot L^{\alpha-1} \right)^{\frac{1}{\alpha}} = \left(\frac{Q}{a_0} \right)^{\frac{1}{\alpha}} \cdot L^{\frac{\alpha-1}{\alpha}}$$

yoki

$$d = P_K \left(\frac{Q}{a_0} \right)^{\frac{1}{\alpha}} \cdot L^{\frac{\alpha-1}{\alpha}} + P_L L \quad (2.2.10)$$

Bu funksiya minimumga tekshirilishi lozim. Buning uchun (L) bo'yicha xosila olinib, nolga tenglanadi.

$$\frac{\alpha - 1}{\alpha} P_K \left(\frac{Q}{a_0} \right)^{\frac{1}{\alpha}} \cdot L^{-\frac{1}{\alpha}} + P_L = 0 \quad (2.2.11)$$

$$L_0 = \left(\frac{1 - \alpha}{\alpha} \cdot \frac{P_K}{P_L} \right)^{\alpha} \cdot \frac{Q}{Q_0} \quad (2.2.12)$$

Sayenoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha tavakkalchilik holatidan keyingi yechimi, muammolar va risk manbalarini aniqlash, sabablari va oqibatlarini tahlil qilish bilan bog'liq.

Mavjud muammoli masalalarni aniqlash va shakllantirish qobiliyati ma'lumotlarning hajmi, aniqligi, obektivligi, o'z vaqtida bo'lishiga, shuningdek ushbu ma'lumotlarning qanchalik to'g'ri tahlil va talqin qilinishiga bog'liq. Vujudga kelgan muammolarga mumkin bo'lgan yechimlarni izlash va ishlab chiqish – bu mezonlarni shakllantirish va hal qilinmagan muammoli masalalar uchun muqobil variantlarini yaratish juda mashaqqatli jarayondir.

Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, sanoat korxonalaridagi investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish jarayonlarini optimallashtirishning navbatdagi bosqichi avvalgisi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, muammolarni hal qilishning mavjud variantlarini noaniqlik sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy salohiyatini oshirishda foydalanish mumkin. Iqtisodiy tavakkalchilikni mutloq va nisbiy jihatdan miqdoriy baholashning taklif etilayotgan tizimi moliyaviy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishda risk darajasini baholash uchun qo'llanilishi mumkin.

Ammo, boshqaruv qarorlarining sifati obektivligi va o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq bo'lib, bu mavjud ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyatida risk darajasini minimallashtirish kabi muammoli vaziyatni hal qilishdan iborat. Korxonalarining beqarorlik, noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida faoliyat olib borishi ushbu holatda yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga alohida e'tibor berish lozim. Bu ularning salbiy ta'sirini kamaytirish va risklarni pasaytirishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan sanoat korxonalaridagi investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish jarayonlarini optimallashtirish

modelida avvalambor ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda uning asosiy manbalari va ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish lozim bo'lib, buning uchun birinchi navbatda asosiy vositalarning holati, foydalanish muddatlari, eskirishi va texnik tavsifida ko'rsatilgan meyorlarni o'rganish, moddiy resurslarning mavjudligi, xom ashyo zahirasining hajmi, sifati, qiymati, mehnat resurslarining tajribasi, ma'lumoti, yoshi va malaka ko'nikmasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bundan tashqari, sanoat korxonalaridagi investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun eng asosiysi moliyaviy resurslar yetarli bo'lishi talab etiladi. Jumladan, asosiy vositalar, moddiy, mehnat, moliyaviy, axborot resurslaridan foydalanishga ham bog'liq. Ya'ni, tavakkalchilik holati ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarning to'liq yoki qisman yo'qolishiga ta'sir qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, sanoat korxonalarining ichki omillari odatda ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatga ta'sir qiladigan, ishlab chiqarish resurslari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy resurslar va risk subekti bilan kichik guruhlarga bo'linadi.

Albatta, istiqbolda barqaror faoliyatga erish uchun har bir korxonada sarflangan resurslarni hech bo'lmaganda qoplanishi yoki daromadini oshirish (zararga yo'l qo'ymaslik) va korxonada ishlab chiqarayotgan mahsulotini o'z xaridoriga ega bo'lgan holda aktivlarning aylanmasini doimiy nazoratga olishi maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilayotgan sanoat korxonalaridagi investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish jarayonlarini optimallashtirish modelining so'ngi bosqichida oldingi amalga oshirilgan bosqich natijalari bo'yicha ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish darajasini optimallashtirishga oid mumkin bo'lgan chora-tadbirlardan foydalanib, alternativ variantlar orasidan eng optimal variantni tanlab olish lozim. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib sanoat korxonalarida uchun mavsumiy jarayonlarda ham turli xil risklar vujudga kelish va korxonaning istiqboldagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini e'tiborga olgan holda risklarni aniqlashning alohida modellarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

2.3. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini statistik baholash

Sanoat korxonalarining investitsion faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini umumiy ko‘rinishda mazkur investitsion loyiha bo‘yicha faoliyatning natijadorligini, erishilgan natijalar bilan jonli va moddiylashgan mehnat o‘rtasidagi nisbatni anglatadi. Samaradorlikning darajasi ikkita qiymat (miqdor) – iqtisodiy samara (natija) va shu natijaga erishishdagi resurslar sarfi (xarajat)ni taqqoslash orqali aniqlansa, moliyaviy samara esa uning to‘lov qobiliyatining mavjudligi bilan baholanadi.

Sanoat korxonasi investitsion faoliyatining natijalari bilan mahsulot (ish, xizmat)ni yaratish va sotish sikli bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligi korxonaning investitsion faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash tamoyilini ifodalaydi. Sanoat korxonalarini investitsion faoliyati marketingi va monitoringini, shuningdek loyihalashtirish hamda reja-tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishda foyda shakllanmaydi, u faqat sotish bosqichida yuzaga keladi.

Sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar)ni sotish bosqichida baholovchi ko‘rsatkichlar tizimida foyda ustunlikka ega bo‘ladi. Foyda (daromad) sanoat mahsulotining hayotiylik siklidagi bosqichli o‘zgarishlarning indikatori bo‘lgan holda, shu bosqich mohiyatining o‘zini – iste‘molchi tomonidan mahsulotni tan olinganligini aniqlagan (determinatsiya qilingan) holda, foyda o‘sishining barqarorlashuvini, uning tannarxini pasayishini aks ettiradi. Biroq, bosqichning oxiriga kelib, foydaning mutloq pasayishidagi dastlabki belgilar ko‘zga tashlanib qolganda, qator mahsulotlarni yangilash hamda mahsulot (ish, xizmatlar)ning yangi turlarini ishlab chiqish vazifasi dolzarblashadi. Bu bosqichda yangi g‘oyalarni qidirib topish, ularni ishlab chiqish, sinab ko‘rish, sanoat bozoriga jo‘natish va hokazolar kabi strategik vazifalarning ahamiyati oshadi, samaradorlikni baholash esa – yana sanoat korxonalarining bozordagi barqarorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanishga undaydi. Sanoat mahsulotining hayotiy siklidagi yakunlovchi

bosqichda, odatda, eskirgan mahsulot bozoridan tezda chiqib ketish va faol bozor harakatlaridan voz kechish amalga oshiriladi.

Demak, sanoat korxonalarining investitsion faoliyatidagi natijalovchi ko'rsatkichlarining sanoat mahsuloti (ish, xizmat) hayotiylik siklining bosqichiga bog'liq holda o'zgaruvchan ekanligini, shuningdek ularni kombinatsiyalash imkoniyati mavjudligini ta'kidlash mumkin.

Investitsion faoliyat ko'rsatkichlarini o'lchash uchun sanoat korxonalari tomonidan har xil usullardan foydalaniladi. Sanoat mahsulotining raqobatbardoshligini baholash uchun bir qancha xususiy xususiyatlarni, ularning salmog'i va muhimligini hisobga olgan holda birlashtiradigan umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar olishga asoslangan uslubiy yondashuv qo'llaniladi:

1. Sanoat mahsulotining raqobatlilik xususiyatini xarakterlovchi xususiy ko'rsatkichlar aniqlanadi;

2. Har bir alternativ variantlar bo'yicha xususiy ko'rsatkichlarning qiymatlari (o'lchovning natural birliklarida, zarur bo'lgan holda – ballarda) – K_i aniqlanadi;

3. Ekspert usuli yordamida raqobatbardoshlik xususiy ko'rsatkichlarining iste'molchi uchun muhimlik darajasi bo'yicha ketma-ketligi tuziladi;

4. Xususiy ko'rsatkichlarni taqqoslashda asos bo'ladigan optimal variant tanlanadi;

5. Raqobatbardoshlikning xususiy ko'rsatkichlari optimal variant bilan taqqoslanadi va har bir variant bo'yicha xususiy ko'rsatkichlarning statistik indeksi (J) aniqlanadi:

$$J = \frac{K_i}{K_{io}} \quad (2.3.1)$$

bu yerda: K_{io} – optimal variantga mos keladigan xususiy raqobatbardoshlik ko'rsatkichi.

6. Prognozlash usuli yordamida xususiy raqobatbardoshlik ko'rsatkichi – (k_i) ning asoslanganlik (ishonchlilik) koeffitsiyenti aniqlanadi;

$$k_i = \frac{i}{2} - 1 \quad (2.3.2)$$

bu yerda: i – muhimlik darajasi bo‘yicha tartiblashtirilgan ketma-ketlikning tartib raqami.

7. Mahsulot raqobatbardoshligining yalpi (integral) ko‘rsatkichi (Y_{k_i}) ni taqqoslanayotgan variantlarning har biridan hisoblab chiqarish;

$$Y_{k_i} = \frac{\sum_{i=1}^{i=n} k_i J}{\sum_{i=1}^{i=n} k_i} \quad (2.3.3)$$

bu yerda: n – baholanayotgan (k_i)ning soni.

Bu ko‘rsatkich korxonaning investitsion faoliyati samaradorligini qiyosiy baholash uchun foydalaniladi. Ammo, u “absolyut baho” emas, balki, “nisbiy baho” ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Natijaviy ko‘rsatkich sifatida foyda ko‘rsatkichidan foydalanilganda, namunaviy model asosida tuzilgan keng miqyosda ma’lum bo‘lgan funktsiya modelini qo‘llash mumkin:

$$I'_{\max} = (TR_t - \sum_{i=1}^{i=n} f_i x_i - FC - R_t B_t) / \frac{1}{(1-T)} \quad (2.3.4)$$

bu yerda: I'_{\max} – sanoat korxonasining soliqlar va foizlar to‘lovi chiqarib tashlanganidan keyingi daromadi;

TR_t – umumiy daromad;

f_i – i -omil birligining narxi;

x_i – i -omilning soni;

n – omillarining soni;

FC – qilingan to‘lovlar;

R_t – o‘z qarzlari bo‘yicha to‘lanayotgan o‘rtacha foiz stavkasi;

B_t – qarzlarning umumiy miqdori;

T – korporativ soliq stavkasi.

Amaliyotda natija va xarajat ko‘rsatkichining nisbati mexanizmidan foydalanishda murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Agar natijaning ko‘rsatkichi qiymatlarda ifodalansa (masalan, foyda), bir miqdorli qiymatlarni taqqoslashning

oddiy mexanizmidan foydalanish mumkin. Ammo, agar natija ko'rsatkichi boshqa o'lchov birliklarida berilgan bo'lsa (bozor ulushi, raqobatbardoshlik), u to'g'ridan-to'g'ri qiymat ko'rsatkichi bilan taqqoslanishi mumkin emas. Bu holda turli sifatli va turli miqdorli xarakteristikalarni o'lchaydigan maxsus mexanizm zarur bo'ladi.

Muhim qarorlarni ilmiy asoslash va tanlash uchun mo'ljallangan nisbiy miqdor sifatidagi samardorlik ko'rsatkichini qo'llayotib, xarajat va natija ko'rsatkichi hajmiga ega bo'lmagan hamda taqqoslash protsedurasini amalga oshirish imkonini beruvchi indeks shaklida ifodalangan holda indeksli yondashuvdan foydalanish mumkin.

Keltirilgan ko'rsatkichlar sanoat korxonalaridagi investitsion loyihalarning umumiy natijasini ifodalaydi. Ular ko'pgina omillar orqali birlashgan va mohiyatan integral ko'rsatkichlar deb atalishi mumkin. Integral ko'rsatkichlardan tashqari yana alohida xo'jalik jarayonlari (ishlab chiqarish, marketing, resurslarni tashkil etish va ulardan foydalanish, sotish, ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlari) korxonalarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyat ko'rsatishini, korxonani boshqarish, ishlab chiqarishni, mehnat va boshqarishni, innovatsiyalarni (yangilik kiritishlarni) va boshqalarni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodlarini ajratib ko'rsatish mumkinki, ularning har biri yakuniy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi va sanoat korxonasi investitsion faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada aniqlaydi. Faoliyatning har bir turi o'zining (xususiy) natijalari bilan tavsiflanadiki, ularning asosda tadbirkorlik tarkibiy qismlari faoliyatining alohida turlarini amal qilish samaradorligini aks ettiruvchi tegishli ko'rsatkichlar hisoblab chiqilishi mumkin.

Investitsion loyihalar samaradorligini statistik jihatdan baholash uchun ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlar amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lgan qator vazifalarni yechishga imkon beradi:

- optimal strategik mo'ljallarni tanlash;
- investitsion faoliyatning maqsad va vazifalarini asoslash;
- investitsion faoliyat natijalarini prognozlash;

- maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘zaro bir-birlarini to‘ldirish tamoyillarini amalga oshirgan holda natijadorlikni birga qo‘shib olib borish;

- ishlab chiqarish - sanoat tizimlarining strategik egiluvchanligi va moslashuvchanligi tamoyillaridan foydalanish.

Iqtisodiy samaradorlik bo‘yicha tadqiqotlarning asosiy uslubiy vazifalaridan biri bu uni baholash usullarini tanlab olish hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari va ko‘rsatkichlarini ilmiy hamda iqtisodiy jihatdan asoslash korxonalarining iqtisodiy salohiyatini ta‘minlash va istiqbolda uni oshirish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, iqtisodiy salohiyatini baholash - korxonalarining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi¹⁰³:

- korxonalarining mavjud imkoniyatlarini aniqlashtirish;

- iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish darajasini baholash;

- iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi va uni oshirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;

- zahira va foydalanilmagan imkoniyatlarni topish uchun uning alohida elementlaridan foydalanish darajasini aniqlash kabilar.

Bugungi kunda mahalliy va xorijlik olimlar tomonidan sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini baholash uslubiyati to‘liq ishlab chiqilmagan. Shu nuqtai nazaridan, korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar va usullarni tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan qiziqish uyg‘otadi.

Ayrim iqtisodchi olimlar¹⁰⁴ tomonidan iqtisodiy salohiyat tarkibida ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatlar ajratib olinadi hamda ishlab chiqilgan shkalalar asosida moliyaviy- xo‘jalik ko‘rsatkichlarni ball va ekspert baholash tizimiga asoslanadi. Shu jumladan, L.C.Sosnenko¹⁰⁵ korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholash asosida mulkiy salohiyat (aktiv va passiv) qiymatini baholash yotadi deb hisoblaydi. Uning fikricha, qiymat bahosi ko‘rinishidagi mulkiy salohiyat bu iqtisodiy salohiyat,

¹⁰³Абдуллаев Ё., Иброхимов А., Рахимов М. Иқтисодий таҳлил. - Т.. Мехнат. 2001. - 159-161 б.

¹⁰⁴Абдукаримов И.Т., Пардаев М.К., Исроилов Б.И. Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили. Т.: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси" нашриёт уйи, 2003, 6-б.

¹⁰⁵Сосненко Л.С. Анализ экономического потенциала действующего предприятия. - М.: Экономическая литература, 2004. - 208 с.

uni sifat jihatdan baholash esa korxonaning moliyaviy barqarorligi holati darajasi hisoblanadi.

S.Stepanova, N.Rogojinalarning fikricha¹⁰⁶, sanoat doirasida amalga oshiriladigan investitsion loyihalar iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini baholashda qator usullar mavjud bo‘lib, jumladan, moliyaviy, mulkiy, mehnat, moddiy, axborot, innovatsion va energetika bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash shular tarkibidan hisoblanadi. Shuningdek, har bir tarkibiy qism uchun alohida ko‘rsatkichlar ajratilib ko‘rsatilgan:

1. Moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari:

- aylanma mablag‘lar aylanuvchanlik koeffitsiyenti;
- o‘z mablag‘lari aylanuvchanlik koeffitsiyenti;
- joriy likvidlik koeffitsiyenti;
- tezkor likvidlik koeffitsiyenti;
- mutloq likvidlik koeffitsiyenti;
- moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
- o‘z mablag‘lari rentabelligi;
- sof foyda bo‘yicha aktivlar rentabelligi.

2. Mulkiy samaradorlik ko‘rsatkichlari:

- asosiy vositalar yangilanishi koeffitsiyenti;
- asosiy vositalarning ishlab chiqarishdan chiqib ketish koeffitsiyenti;
- asosiy vositalarning o‘sish koeffitsiyenti;
- asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti;
- mavjud uskunalar parkidan foydalanish koeffitsiyenti;
- o‘rnatilgan uskunalar parkidan foydalanish koeffitsiyenti;
- foydalanishga topshirilgan uskunalardan foydalanish koeffitsiyenti;
- uskunlarning ishlash koeffitsiyenti;
- uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti;
- uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsiyenti;
- uskunalardan integral foydalanish koeffitsiyenti.

¹⁰⁶Степанова С.М., Рогожина Н.Н. Управление экономическим потенциалом текстильного предприятия // Технология текстильной промышленности - 2011, - №3(332). - С.7-12

3. Kadrlar salohiyati ko'rsatkichlari:

- ishga qabul qilish bo'yicha aylanish koeffitsiyenti;
- ishdan bo'sh bo'yicha aylanish koeffitsiyenti;
- kadrlar qo'nimsizligi koeffitsiyenti;
- kadrlar doimiyliги koeffitsiyenti;
- rahbarlar ulushi;
- ishchi mutaxassislar ulushi;
- jami ishchilar ulushi;
- oliy ma'lumotli xodimlar ulushi;
- o'rta maxsus ta'lim xodimlari ulushi;
- personal rentabelligi.

4. Moddiy samaradorlik ko'rsatkichlari:

- notekis ta'minot koeffitsiyenti;
- moddiy vositalar aylanuvchanligi koeffitsiyenti;
- moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti;
- mahsulotning moddiy resurs sig'imi;
- mahsulot rentabelligi.

5. Axborot samaradorligi ko'rsatkichlari:

- so'ralgan ma'lumotga javob berish tezligi;
- tuzilmalar o'rtasidagi ma'lumot almashish tezligi;
- informatsiya resurslariga kirish xuquqi;
- ma'lumotlarning o'z vaqtida berilishi;
- olingan ma'lumotlar hisobiga qaror qabul qilish samaradorligi.

6. Innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari:

- mahsulot tannarxida innovatsiya ishlanmalar uchun xarajatlar ulushi;
- jami tovar aylanmasida yangi mahsulotlar ulushi;
- innovatsiya ishlanmalari samaradorligi.

7. Energetika samaradorligi ko'rsatkichlari:

- mahsulot tannarxida elektr energiya uchun xarajatlar ulushi;
- elektr energiyadan foydalanish samaradorligi.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar orqali sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash murakkab hisoblanadi. Chunki, aynan bir ko‘rsatkich asosida sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash imkoni mavjud emas. Shuningdek, mazkur loyihaning kelajakdagi moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini belgilab bermaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

- aksariyat olimlar tomonidan sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullari yaxlit holda emas, balki, ko‘pgina moliyaviy va iqtisodiy integral ko‘rsatkichlar asosida baholash ilgari surilgan;

- bugungi kunda sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning juda ko‘p ko‘rsatkichlari mavjud, biroq aynan sanoat korxonalarini investitsion faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan ko‘rsatkichlar mavjud emas;

- hozirgi vaqtgacha sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash bo‘yicha ilmiy va iqtisodiy asoslangan yaxlit uslubiyat yoki usul ishlab chiqilmagan.

Boshqa bir tomondan qaraganda sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashda loyihani ishlab chiqish va uni amalga oshirish hamda boshqaruv jarayonlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning uyg‘unligi va samarali tashkil etilishi – loyiha faoliyati natijalari to‘g‘risida ma’lumot olish, zahiralarni aniqlash, loyiha faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini baholash va ularni prognozlash, shuningdek tashkiliy-boshqaruv qarorlarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashni yuqorida keltirilganidek miqdor va sifat usullaridan foydalanmasdan baholash mumkin emas. Bunday usullarga matritsa usuli, balli baholash usuli, samaradorlikni qiymat orqali baholash usuli, indeks usuli, optimallashtirish va regressiv usullarni kiritish mumkin.

Yuqorida o‘rganilgan va tahlil qilingan sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning turli xil uslubiyat va

usullariga asoslangan holda mamlakatimiz sanoatining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek sanoat korxonalarida resurslar va zahiralar muhim ahamiyat kasb etishi hamda valyuta bozori liberallasuvi sharoitida sanoat sohasiga investorlarning jadal kirib kelishini inobatga olgan holda sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini qisqa va uzoq muddatli davrlar bo'yicha integral ko'rsatkichlar asosida baholash mumkin.

Bunda sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi baholashda o'zaro uyg'unlikdagi manbalar, ya'ni korxonalar faoliyati ko'rsatkichlari o'sishini ta'minlash imkonini beruvchi resurslar, zahiralar va salohiyat zahiralar kabi ko'rsatkichlar hisobga olinishi lozim.

Chunki, resurslar, zahiralar va salohiyat zahiralar investitsiya loyihalarining iqtisodiy (moliyaviy) samaradorligini oshirish manbalari hisoblanadi. Bu holatda:

- sanoat korxonalarida resurslariga – asosiy vositalar, aylanma mablag'lar va mehnat resurslari;

- zahiralariga – korxonalar belgilangan maqsadlar uchun vaqtincha ishlatilmayotgan, biroq ayni vaqtda ishlab chiqarish faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan jami moddiy resurslar;

- salohiyat zahiralariga – ayni vaqtda amalga oshirish iqtisodiy jihatdan qiyin, biroq kelajakda foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan jami moddiy resurslarni kiritish mumkin.

Fikrimizcha, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini statistik baholashda tavakkalchilik (risk) darajasiga alohida e'tibor berish lozim. Chunki, investitsion loyihalarining yuqori tavakkalchilikka asoslanganligi ayni haqiqat. Ammo, har qanday risklar biror bir usullar asosida baholanishi lozim.

Hozirgi vaqtda investitsiya loyihalari uchun risklarni baholashning ko'plab usullari mavjud, Semenova va Protopopovalar buni quyidagi uch guruhga bo'lib qayt etgan¹⁰⁷:

¹⁰⁷ Semenova T.V., Protopopova O.S. (2016), Porivnialna Otsinka Investytsiinykh Proektiv z Urakhuvanniam Yikh Efektivnosti i Rivnia Ryzkyu, "Young Scientist", No. 12.1, pp. 962-965.

1. Loyihaning diskont stavkasini va ishonchli ekvivalentlarini tuzatish usullari. Bunda investitsiyalar samaradorlik mezoni yoki bozor bahosining matematik taxminlari asosida baholanadi. Matematik kutilmaga nisbatan moliyalashtirishni pasaytirish investitsiya xavfi darajasiga qarab ham mumkin;

2. Xavf darajasini individual baholash imkonini beruvchi usullar. Bularga quyidagilar kiradi: o'zgarishlar ta'sirini tahlil qilish usuli va analitik risk modellari. Ular xavf darajasini standart og'ish, uning hosilasi yoki maxsus risk koeffitsiyentlari ko'rinishida baholashga imkon beradi.

3. Tarqatish shaklining ehtimolini baholash imkonini beruvchi usullar. Ushbu guruhga skriptlash usuli, simulyatsiya kiradi. Ushbu usullarni qo'llash jarayonida hodisalarning bir qator variantlari tahlil qilinadi, buning natijasida tahlilchi grafik yoki jadval ko'rinishidagi ehtimollik egri chizig'iga ega bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat korxonalaridagi investitsion loyihalarga doir risklarni ahamiyatiga ko'ra tartiblash va ushbu ustuvorlik darajasiga ko'ra og'irliklarni belgilash hamda baholash quyidagi algoritm bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Risklarning maksimal va minimal darajalar nisbati quyidagicha aniqlanadi:

$$q = \frac{k_1}{k_n} \quad (2.3.5)$$

Kutilayotgan risk darajalar orasidagi masofa quyidagicha hisoblanadi:

$$s = \frac{k_n(q-1)}{n-1} \quad (2.3.6)$$

Individual risk (m) ning og'irlik koeffitsiyenti shunday aniqlanadi:

$$k_m = k_n + (n-m)s \quad (2.3.7)$$

Shu boisdan, individual risk (m) ni quyidagiga teng deb olish mumkin:

$$k_m = k_n + (n-m) \frac{k_n(q-1)}{n-1} = k_n \left(1 + \frac{(n-m)(q-1)}{n-1} \right) \quad (2.3.8)$$

Agar oddiy risklar ahamiyatlilik darajasi bo'yicha tartiblanmagan bo'lsa, unda ularning tortish koeffitsiyentlari ($1/n$) ga teng bo'ladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi holati bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

- mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida sanoat tarmog'ining o'rni quyidagilarda namoyon bo'ladi: mamlakat YAIMda sanoatning ulushi 26,1 foizni, qurilishni qo'shgan holda esa 32,3 foizni tashkil etadi; 2023-yil mobaynida respublika bo'yicha jami amalga oshirilgan eksport hajmi 24426,2 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Shundan sanoatning ulushi 38,1 foizni tashkil etadi. Shuningdek, eksportning 33,4 foizi oltin hissasiga to'g'ri kelgan. Agar oltin sanoat asosida qazib, qayta ishlanishini hisobga olsak, demak, eksportda sanoatning ulushi 71,5 foizga yetadi; bugungi kunda mamlakatda jami mehnat resurslari soni 19517,5 ming kishini tashkil etsa, shuning 13538,9 ming nafarini iqtisodiyotda band bo'lganlar tashkil etadi. Shundan 13,5 foizi sanoat tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi;

- mamlakatdagi sanoat siyosati bilan bir qatorda sanoat korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun mamlakatning investitsion jozibadorligi, investitsion faoliyat yoki bir so'z bilan aytganda investitsiya siyosati ham muhim hisoblanadi. Chunki, investitsiyalar iqtisodiyotning, jumladan sanoat korxonalarining "tomiridagi qoni" bo'lishi bilan birga ulardagi innovatsion faoliyatning rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi;

- sanoat korxonalaridagi investitsion loyihalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning umumiy xususiyati tavakkalchilikka asoslangan bo'lib, bu korxonalar iqtisodiy-moliyaviy salohiyati bilan paralel kuzatiladigan kategoriyadir. Sanoat korxonasining tavakkal qilishga moyilligi:

birinchidan bozor o'zgaruvchanligi va noaniqlikni o'z foydasiga o'zgartirishga intilishi;

ikkinchi tomondan esa korxonalar boshqaruvini tavakkal qilishga majburlovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun korxonalar zimmasiga

olgan tavakkalchilik miqdori bevosita iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalanishga va daromadning ko'paytirishiga undaydi.

- ushbu bobda korxonalaridagi investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish jarayonlarini optimallashtirish modeli ishlab chiqildi. Unda avvalambor ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda uning asosiy manbalari va ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish lozim bo'lib, buning uchun birinchi navbatda asosiy vositalarning holati, foydalanish muddatlari, eskirishi va texnik tavsifida ko'rsatilgan meyorlarni o'rganish, modiy resurslarning mavjudligi, xom ashyo zahirasining hajmi, sifati, qiymati, mehnat resurslarining tajribasi, ma'lumoti, yoshi va malaka ko'nikmasiga alohida e'tibor qaratish lozim;

- sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash murakkab hisoblanadi. Chunki, aynan bir ko'rsatkich asosida sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash imkoni mavjud emas. Shuningdek, mazkur loyihaning kelajakdagi moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini belgilab bermaydi. Bundan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

- aksariyat olimlar tomonidan sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullari yaxlit holda emas, balki, ko'pgina moliyaviy va iqtisodiy integral ko'rsatkichlar asosida baholash ilgari surilgan;

- bugungi kunda sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning juda ko'p ko'rsatkichlari mavjud, biroq aynan sanoat korxonalarini investitsion faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan ko'rsatkichlar mavjud emas;

- hozirgi vaqtgacha sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy va iqtisodiy asoslangan yaxlit uslubiyat yoki usul ishlab chiqilmagan.

III BOB. SANOAT KORXONALARIDA AMALGA OSHIRILADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari

Mazkur bobning birinchi paragrafida sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorij mamlakatlar tajribalari va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish yo'llari yoritiladi. Chunki, mamlakatimiz singari rivojlanayotgan davlatlar uchun rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish ularning joriy rivojlanishini jadallashtirib, rivojlanish jarayonidagi yo'qotishlarni (sinov davridagi) kamaytirishga imkon beradi.

Bugungi jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida innovatsiyalarni keng joriy etish va investitsiya loyihalarini bosqichma-bosqich baholashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalari hisob-kitoblarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda¹⁰⁸.

Fikrimizcha, har qanday investitsiya loyihalarining samaradorligi tashqi tomondan mamlakat iqtisodiyotining "rang-barangli"gi, undagi yaratilgan shart-sharoitlar va daromad olish imkoniyatlari, darajasiga hamda barqarorligiga bog'liq bo'lsa, ichki tomondan esa loyihaning mukammalligi, uni optimal tashkil etilishi, aniq hisob-kitoblar asosida har tomonlama, xususan moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baholanganligi kabilarga bog'liqdir.

Qisqacha qilib aytganda, investitsiya loyihalarining samaradorligi tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy institutlarni yaratish orqali ta'minlanadi¹⁰⁹.

¹⁰⁸ Hertz, D. B. (1964). Risk analysis in capital investment. Harvard Business Review, 42, 95-106.

¹⁰⁹ Lin, J. Y. (2011). New structural economics: A framework for rethinking development. The World Bank Research Observer, 26(2), 193-221.

Shu munosabat bilan sanoat tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish sharoitida investitsiya loyihalarini baholash samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha jabhalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bunda xorijiy va milliy investorlarni jalb etgan holda investitsiya loyihalarini amalga oshirish, xususan, bozor mexanizmlarini chuqur joriy etish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish, zamonaviy ishlab chiqarishlar va infratuzilmani tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mazkur islohotlarni jadallashtirish va ularning yuqori samarasini ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri bu – sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish asnosida ulardan samarali foydalanishni tashkil etishdir. Quyida ayrim mamlakatlar tajribalari keltirilgan:

AQSH tajribasi. AQShning Iqtisodiy tahlil byurosi (BEA) ma'lumotlariga ko'ra¹¹⁰, Qo'shma Shtatlarning real YAIM hajmi 2023-yilda 2,5 foizga (2022-yilga nisbatan) yoki 334,5 milliard dollarga oshib, 27,36 trillion dollarni tashkil etgan.

BEA ma'lumotlariga ko'ra, keyingi davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlarning AQSH korxonalarini sotib olish, tashkil etish yoki kengaytirish yo'naltirayotgan investitsiyalarida pasayish kuzatilayotgan bo'lsada, 2023-yilda Qo'shma Shtatlardagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 227,0 milliard dollarga ko'payib, jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 5,39 trillion dollarni tashkil etgan. E'tiborli jihati shundaki, mazkur yangi kiritilgan investitsiyalar asosan sanoatga, xususan ishlab chiqarish sanoati hissasi to'g'ri kelib, uning hajmi 58,6 milliard dollarga oshib, umumiy hajmda 2,22 trillion dollarni tashkil etmoqda. Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, AQShning xorijdagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari hajmi 2023-yilda 364,0 milliard dollarga oshib, jami hajmi 6,68 trillion dollarga yetgan¹¹¹.

¹¹⁰ <https://www.bea.gov/news/2024/gross-domestic-product-fourth-quarter-and-year-2023-second-estimate>

¹¹¹ <https://www.bea.gov/news/2024/direct-investment-country-and-industry-2023>

“Industryselect.com” nashrining ma’lumotiga ko‘ra, AQShda 2024-yil yanvar va fevral oylarida sanoat investitsiyasi loyihalarining soni 1274 tani tashkil etib, shuningdek yana investitsiya loyihalari asosida 447 ta yangi qurilayotgan obektlar, 208 ta korxonani modernizatsiya qilish loyihalari, 534 ta sanoat obektini ta’mirlash, 200 ta sanoat obektini kengaytirish, 509 ta sanoat obektini ko‘chirish va 43 ta korxonalarining yopilishi bo‘yicha investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda¹¹².

Xo‘sh, AQSH bunday katta hajmdagi investitsiyalar portfeliga qanday erishmoqda, bu borada davlatning o‘rni, investitsiya siyosati va olib borilayotgan o‘ziga xos amaliyotlari nimadan iborat?

AQSH davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanadigan intensiv investitsiya jarayonlariga ega mamlakatlardan biridir. Amerika davlatining investitsiya faoliyatini rivojlantirishdagi rolini baholashda bir qator prinsipial muhim jihatlarga e’tibor qaratish lozim. Jumladan, innovatsion investitsiya faoliyati samaradorligiga ko‘p jihatdan davlat-xususiy sheriklik salohiyatini ro‘yobga chiqaradigan turli institusional shakl va vositalar orqali ta’minlangan turli subektlarning say-harakatlarini birlashtirish orqali erishiladi. Ular orasida shtatlar va federal idoralar, universitetlar va sanoat yangi texnologiyalardan foydalanishdagi to‘siqlarni bartaraf etish va an’anaviy ravishda kamroq davlat tomonidan moliyalashtiriladigan hududlarning texnologik raqobatbardoshligini rag‘batlantirish dasturini amalga oshirilishi diqqatga sazovordir¹¹³.

Bunda davlat hokimiyat faoliyatining strategik yo‘nalishi ma’muriy-hududiy tuzilmalarning ijtimoiy-iqtisodiy makonini klasterlash jarayonlarini rag‘batlantirishdan iborat. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, eng jadal rivojlanish innovatsion klasterlar shakllangan hududlarda - korxonalar (sanoat korxonalari, ilmiy markazlar, ilmiy muassasalar), ixtisoslashtirilgan etkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar tarmoqlarining hududiy konsentratsiyasiga

¹¹² <https://www.industryselect.com/blog/us-industrial-capital-projects-in-2024>

¹¹³ Круглякова В.М. Опыт США в сфере государственного регулирования инвестиций в реальный сектор экономики // Регион: системы, экономика, управление. № 1(8), 2010. 99 с.

asoslangan davlat organlari majmualarida, ya'ni texnologik zanjir orqali sodir bo'ladi¹¹⁴.

AQSH hokimiyati faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- universitetlarda intellektual kapitalni rivojlantirish;
- klasterlarni shakllantirish;
- qulay soliq muhitini yaratish;
- tadbirkorlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish¹¹⁵.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, AQSH sanoat siyosatining o'ziga xos modeli – xususiy kapitalni rivojlantirish va buyrokratiyaning keskin kamaytirilganligidir. Ya'ni, mamlakatda sanoatni rivojlantirish maqsadlari makroiqtisodiy siyosatning elementlari bo'lib, bunda asosiy e'tibor sanoat raqobatbardoshligini oshirish, ichki va tashqi tovar bozorlarida o'rnini mustahkamlash, uni rivojlanishining mutanosibligini oshirish uchun qulay muhitni shakllantirishga qaratilgan.

Shu boisdan, AQSH zaminida sinovdan o'tgan ko'plab konseptual yondashuvlar va iqtisodiy vositalar keyinchalik u yoki bu shaklda butun dunyo bo'ylab keng tarqaldi. Jumladan:

- istiqbolli yuqori texnologiyali loyihalarga sarmoya kiritishda venchur kapital mexanizmidan foydalanish;
- universitetlar va xususiy sanoat kompaniyalari o'rtasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlikni davlat tomonidan rag'batlantirish;
- aholidan yangi texnologiyalar transferi sektorini sanoatga yo'naltirish;
- ilmiy tadqiqotlar uchun soliq imtiyozlaridan foydalanish va hokazo¹¹⁶.

AQSH tajribasining yana bir e'tiborli jihati shundaki, mamlakat sanoat korxonalarini, jumladan sanoatning investitsion loyihalarini samarali tashkil etish yoki mavjudlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun katta miqdorda subsidiyalash amaliyoti mavjud.

¹¹⁴ Заварухин В.П. Содействие инновационно-технологическому развитию: механизмы государственно-частного партнерства / В.П. Заварухин // США: государство, человек, экономика: региональные аспекты. – М., 2001. – С. 82-106.

¹¹⁵ Зименков Р. Опыт США в создании и функционировании свободных экономических зон / Р. Зименков // Инвестиции в России. – 2005. – №8. – С. 3-8.

¹¹⁶ Андрианов К.Н. Опыт США в реализации промышленной политики // Экономика. Налоги. Право. 2011. 6 с.

Halqaro valyuta fondining ma'lumotlariga ko'ra¹¹⁷, AQSH yarimo'tkazgichlar ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari bo'yicha Yaponiya va Xitoyga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan say-harakatlarining bir qismi sifatida 57 ta kompaniyalarga ichki investitsiyalarni rag'batlantirish uchun 500 million AQSH dollaridan ortiq subsidiyalar ajratgan.

AQSH tajribasining yana bir muhim jihati shundaki, yirik investitsiya loyihalari ishlab chiqarish sanoatiga, xususan kimyo sanoati va transport hamda elektrotexnika uskunalari ishlab chiqarishga qaratiladi. Ya'ni, mazkur sanoat mahsulotlari eksportbol mahsulotlar ekanligi e'tiborga olingan.

Germaniya tajribasi. Federal Statistika boshqarmasi (Destatis) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Germaniya YAİM hajmi qariyb 4,5 trilion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsada, mazkur ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 0,3 % ga kamaygan¹¹⁸.

2023-yilda mamlakatga investitsiyalar oqimining kamayishi kuzatilib, bu iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, shu-yilning o'zida Germaniya 34,8 milliard yevrolik xalqaro biznes loyihalarini jalb qilishga erishgan¹¹⁹.

Germany Trade & Invest (GTAI)ning ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat miqyosida 2023-yilda 1759 ta to'g'ridan-to'g'ri investitsiya loyihalarini ro'yxatdan o'tkazilgan. Ammo, bu ko'rsatkich o'tgan-yilga nisbatan 1 foizga pasayganligi kuzatilgan. Mazkur loyihalarni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar energiya resurslari va raqamlashtirish kabi strategik sohalarga sarmoya kiritishni afzal ko'rishib, ularning 17 foizi Germaniyadan ishlab chiqarishning ilmiy-tadqiqot markazi sifatida foydalanadi¹²⁰.

Deutsche Industrie – und Handelskammer (DIHK) ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalarning katta qismini xorijiy kompaniyalar tashkil etadi. Jumladan, 2023-

¹¹⁷ <https://www.imf.org/ru/Publications/fandd/issues/Series/Analytical-Series/industrial-policy-and-the-growth-strategy-trilemma-ruchir-agarwal>

¹¹⁸ https://www.destatis.de/EN/Press/2024/02/PE24_066_811.html

¹¹⁹ [https://www.gtai.de/en/invest/business-location-germany/foreign-direct-investment#:~:text=Germany%20attracted%2034.8%20billion%20euros,\(GTAI\)%20annual%20FDI%20study.](https://www.gtai.de/en/invest/business-location-germany/foreign-direct-investment#:~:text=Germany%20attracted%2034.8%20billion%20euros,(GTAI)%20annual%20FDI%20study.)

¹²⁰ [https://www.gtai.de/en/invest/business-location-germany/foreign-direct-investment#:~:text=Germany%20attracted%2034.8%20billion%20euros,\(GTAI\)%20annual%20FDI%20study.](https://www.gtai.de/en/invest/business-location-germany/foreign-direct-investment#:~:text=Germany%20attracted%2034.8%20billion%20euros,(GTAI)%20annual%20FDI%20study.)

yil ma'lumotlari bo'yicha jami sanoat (qurilishsiz) korxonalarining 41 foizi, ishlab chiqarish sanoati korxonalarining 49 foizi, oraliq mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining 41 foizi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining 33 foizi, avtotransport sohasi (qurilish) korxonalarining 57 foizi, mashinasozlik sanoati korxonalarining 48 foizi, elektrotexnika sanoati korxonalarining 51 foizi hamda kimyo sanoati korxonalarining 49 foizi xorijiy kompaniyalar hissasiga to'g'ri keladi (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

Germaniyada faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha xorijiy kompaniyalarning ulushi va investitsiya kiritishining sabablari¹²¹

	Sanoat (qurilishsiz)	Ishlab chiqarish sanoati	Oraliq mahsulot ishlab chiqarishi	Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi	Avtotransport sohasi (qurilish)	Mashinasozlik sanoati	Elektrotexnika sanoati	Kimyo sanoati
<i>Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha xorijiy kompaniyalarning ulushi, %</i>								
2023	41	49	41	33	57	48	51	49
2022	44	52	41	38	67	54	53	52
2021	43	49	42	39	60	49	50	51
<i>Xorijiy kompaniyalarning Germaniyaga investitsiya kiritish sabablari, %</i>								
O'z kompaniyalarining xarajatlari uchun	32	29	36	34	51	22	33	28
Bozor rivojlanishi uchun	30	26	36	19	44	24	27	40
Savdo va xizmat ko'rsatish uchun	38	45	28	47	5	54	40	32

Germaniya davlatining sanoat tarmog'idagi investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini oshirish bo'yicha tajribalarining yana bir e'tiborli jihati shundaki, mamlakat sanoat tarmoqlari (korxonalari)da energiya tejamkor texnologiyalardan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratiladidir. Ya'ni, energiyani ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlari uchun energiya

¹²¹ Foreign Investment of German Industry 2023. © German Chamber of Commerce and Industry (DIHK) | Berlin | Brussels. 2023. 3 p. <https://www.dihk.de>

resurslari bilan barqaror ta'minlash hamda mazkur tarmoqlarga energiya tejamkor texnologiyalarni jadal joriy etish bo'yicha amaliy choralar ishlab chiqilgan.

Natijada, mamlakatda o'rtacha 1000 yevro qiymatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi uchun 2003-yilda 2,8 GJ (1 GJ = 277,778 kVt/s), 2010-yilda 2,6 GJ, 2019-yilda 2,3 GJ va 2021-yilda 2,6 GJ elektr energiyasi sarflanilgan bo'lsa, 2022-yilda esa shuncha mahsulot ishlab chiqarilishi uchun 2,4 GJ elektr energiyasi sarflanishiga erishilgan¹²².

Bu o'z-o'zidan ma'lumki, sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishi va mahsulot tannarxining pasayishi hamda narx vositasi asosida mahsulot raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida korxonalar rentabelligining yuqori bo'lishiga olib keladi.

Bundan tashqari, Germaniya tajribasining yana bir muhim jihati shundaki, sanoat korxonalarining investitsion faoliyatini samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan infratuzilma, xususan xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning samarali integratsiyasi yo'lga qo'yilgan¹²³.

Mamlakatda sanoatning to'g'ridan-to'g'ri qo'shilgan qiymatidan tashqari, sanoat va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasidagi o'zaro xaridlar ham hisobga olinadi. Ushbu tarmoq mazkur mamlakatdagi umumiy iqtisodiy mahsulotlarning 8-9 foizini tashkil qiladi. Bu Yevropaning boshqa yirik iqtisodiyotlariga qaraganda ancha yuqori ko'rsatkich hisoblanadi¹²⁴.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Germaniya iqtisodiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, xususiy sektor tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy qismi, ya'ni, 85 foizi sanoat tarmoqlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda ilmiy-tadqiqot ishlariga-yiliga o'rtacha 106 mlrd. yevro sarfladi, bu mamlakat YAIMning 3 foizidan ortiqdir¹²⁵.

¹²² <https://www.statista.com/statistics/1386372/industrial-energy-consumption-and-production-value-germany/>

¹²³ Grömling M. Makroökonomische Daten zur Messung von Outsourcing, in: AStA – Wirtschafts- und Sozialstatistisches Archiv 2/2010, S. 185–199.

¹²⁴ Grömling M. Herausforderungen der Industrie am Standort Deutschland // Bundeszentrale für politische Bildung. CC BY-NC-ND 3.0, 2024.

¹²⁵ <https://www.tatsachen-ueber-deutschland.de/ru/globalnyy-torgovyy-partner/promyshlennost-v-germanii>

Germaniyaning aynan shu amaliyot bilan dunyoda yetakchilik qiladi. Bu borada faqat birgina Yaponiyada ustunlikka ega. Boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda esa mazkur ko'rsatkich Germaniya ko'rsatkichidan past. Jumladan, Fransiyada bu ko'rsatkich yarmiga yaqin, Buyuk Britaniyada esa deyarli 40 foizni tashkil qiladi.

Bu bir tomondan, mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishining farqli jihatlarini bilan ifodalansa, boshqa tomondan, bu tarmoqlarda ilmiy-amaliy tadqiqot infratuzilmalaridagi aniq farqlar va avval boshidan rivojlanishning o'ziga xos strategik jihatlarini joriy etishdagi muvofaqiyatli xarakterlar bilan izohlash mumkin.

Germaniyaning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida eksport alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning qariyb 80 foizi eksport qilinadi. Ahamiyatli jihati mazkur tovarlarning aksariyati sanoat mahsulotlari bo'lganligidir. Bu borada Germaniyaga faqat Yaponiya va Italiya raqobatchi bo'lishi mumkin.

Shu boisdan ham jahon bozorlarida Germaniya sanoati mahsulotlari alohida o'ringa ega bo'lib, bu mamlakat eksportining 50 foizini tashkil qiladi. Mamlakatda eksport faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilganligi uning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Xitoy tajribasi. Xitoy Milliy statistika byurosi (NBSCH)ning ma'lumotlariga ko'ra¹²⁶, 2023-yilda Xitoy YAIM hajmi qariyb 17,8 trillion AQSH dollarini tashkil etgan.

Ma'lumki, Xitoy Xalq Respublikasining investitsiya siyosati uzoq-yillar mobaynida xorijiy strategik investorlar uchun kirish to'siqlarini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, bu mamlakatning investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Buning natijasi o'laroq birgina 2023-yilning o'zida Xitoyga 189,13 milliard AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TDI) kiritilgan¹²⁷. Mazkur investitsiyalarning yo'nalishi asosiy ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va

¹²⁶ https://www.stats.gov.cn/english/PressRelease/202402/t20240228_1947918.html

¹²⁷ <https://www.statista.com/statistics/257099/value-of-foreign-direct-investment-in-china-by-country/#:~:text=In%202023%2C%20total%20annual%20foreign,around%20189.13%20billion%20U.S.%20dollars>

texnik xizmatlar, lizing va biznes xizmatlari, axborot uzatish, dasturiy ta'minot va IT xizmatlari, ko'chmas mulk, ulgurji va chakana savdo hamda moliya yo'nalishlari hissasiga to'g'ri kelgan. 2023-yilda 163,3 milliard AQSH dollar xorijiy investitsiyalar hisobidan 53766 ta yangi korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, bu esa 2022-yilda 38497 ta yangi korxonalar 189,1 milliard AQSH dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobidan tashkil etilgan¹²⁸.

Ta'kidlash joizki, 2023-yilda Xitoyning boshqa davlatlarga umumiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari (ODI) hajmi 147,9 milliard AQSH dollarini tashkil etadi, bu o'tgan-yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga o'sgan bo'lsa, moliyaviy bo'lmagan investitsiyalar (ODI) hajmi 130,1 milliard AQSH dollariga yetgan, bu o'tgan-yilning shu davriga nisbatan 11,4 foizga ko'pdir¹²⁹.

Xitoyning o'sish strategiyasining yana bir asosiy tamoyili bo'lgan "yangi turdagi sanoatlashtirish" tashabbusi ilg'or ishlab chiqarishni, xavfsiz ta'minot zanjirlarini va texnologik o'zini-o'zi ta'minlashni rag'batlantirish orqali "NQPF"ni qo'llab-quvvatlaydi va shu bilan Xitoyni yuqori texnologiyali sektorlarda yetakchiga aylantiradi. "Kelajak sanoatlari" esa hali rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lgan yangi texnologiyalarga, masalan, "kvant hisoblash" va "6G" tarmoqlariga e'tibor qaratadi. Bu strategiyalar birgalikda Xitoyning texnologik innovatsiyalar va chegara sohalarida yetakchilik orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan kengroq maqsadini aks ettiradi¹³⁰.

Xorijiy kapitalning Xitoyga kirib kelishiga yordam beradigan boshqa obektiv omillar ham mavjud bo'lib, bular quyidagilarni o'z ichiga oladi¹³¹:

- ichki bozorning katta sig'imi;
- katta resurslar;
- qulay valyuta kurslari;
- qulay tarif stavkalari;

¹²⁸ <https://www.china-briefing.com/news/chinas-fdi-trends-2024-key-sources-destinations-and-sectors/>

¹²⁹ Ernst & Young Global Limited kompaniyasi. https://www.ey.com/en_cn/newsroom/2024/02/ey-releases-overview-of-china-outbound-investment-of-2023

¹³⁰ <https://www.china-briefing.com/news/opportunities-in-chinas-emerging-and-high-tech-industries/>

¹³¹ Ахмедова Л.А., Булатова У.Б. Зарубежный опыт привлечения иностранных инвестиций и возможности его использования // Общественные науки. Серия 3. 2016. Том. 31. Вып. 2. 36 с.

- siyosiy barqarorlik shular jumlasidan¹³².

Xitoyga xorijiy sarmoya kiritilishi iqtisodiy o'sishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, bugungi kunda xorijiy kapitalni jalb qilish bo'yicha jahonda yetakchi o'rinni egallab turgan XXRning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari yaqqol dalolat beradi. So'nggi o'n-yillikda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha hukumat siyosati natijasida Xitoy rivojlanayotgan mamlakatlarga jami sarmoyaning qariyb 25 foizini kiritdi¹³³.

Ammo, 2006-yil oxirida Xitoyda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning miqdoriy yondashuvidan sifatga o'tishni nazarda tutgan yangi hukumat siyosati e'lon qilindi. Arzon eksport tovarlari va yig'ish sanoatiga xorijiy sarmoya kiritishdan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tarmoqlarga sarmoya kiritishga alohida e'tibor qaratildi. Mahalliy hokimiyat organlarining chet el investitsiyalarini jalb etishga bo'lgan cheksiz va beg'araz intilishlariga ham chek qo'yildi, xorijiy firmalar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarga nisbatan ekologik talablar ham kuchaytirildi¹³⁴.

Xitoy dunyodagi eng yirik ishlab chiqarish quvvatidir. U dunyodagi asosiy sanoat tovarlarining qariyb 50 foizini, jumladan, xom po'lat (AQSH darajasining 800 foizi va global ta'minotning 50 foizi), sement (jahon ishlab chiqarishining 60 foizi) va ko'mir (dunyo ishlab chiqarishining 50 foizi), transport vositalari (jahon ta'minotining 25 foizidan ko'prog'i) ishlab chiqaradi. Shuningdek, kemalar, tezyurar poyezdlar, robotlar, tunnellar, ko'priklar, avtomobil yo'llari, kimyoviy tolalar, dastgohlar, kompyuterlar, uyali telefonlar va boshqalarni ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchi hisoblanadi¹³⁵.

¹³² Zhai S. Q. Steady Growth in Fixed Asset Investment and Continuous Optimization of Investment Structure (2024). http://www.ce.cn/xwzx/gnsz/gdxw/202401/18/t20240118_38870847.shtml.

¹³³ Ван Гуаншэн. Иностранный капитал в экономике КНР // Международный журнал «Проблемы теории и практики управления». URL: <http://www.vasilievaa.narod.ru/ptpu/current/htm/>

¹³⁴ Инвестиционный климат в России: мнение иностранных инвесторов URL: <http://www.fiac.ru/pdf/EY-investment-climate-in-russia-2015-rus.pdf>

¹³⁵ Yi Wen. China's Rapid Rise: From Backward Agrarian Society to Industrial Powerhouse in Just 35 Years. [https://www.stlouisfed.org/publications/regional-economist/april-2016/chinas-rapid-rise-from-backward-agrarian-society-to-industrial-powerhouse-in-just-35-years#:~:text=Today%2C%20China%20is%20the%20world's,the%20world's%20production\)%2C%20vehicles%20](https://www.stlouisfed.org/publications/regional-economist/april-2016/chinas-rapid-rise-from-backward-agrarian-society-to-industrial-powerhouse-in-just-35-years#:~:text=Today%2C%20China%20is%20the%20world's,the%20world's%20production)%2C%20vehicles%20)

Xitoy sanoatining katta qismi og'ir sanoat hissasiga to'g'ri keladi. Bu sanoatda energiya iste'moli 65 % (jamiga nisbatan) va elektr energiyasi iste'moli 60 % ni tashkil etadi. Bu esa YAIM doirasida oraliq istemolni ortishi tufayli jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, og'ir sanoat tufayli juda ko'p miqdorda tabiiy resurslar sarflanadi. Shu sababli og'ir sanoat energiya, xom ashyo yetkazuvchilar va uglerod chiqindilarini qayta ishlovchi sanoat korxonalariga katta miqdorda subsidiyalar ajratadi¹³⁶.

Sanoatda yuqori samaradorlikka erishish bo'yicha Xitoy amaliyotining eng muhim jihati bu – sanoat korxonalarining texnik samaradorligi ta'minlashdir. Ya'ni, ishlab chiqarilgan tovarlar va ishlab chiqarishning maksimal quvvati o'rtasidagi farqni kamaytirishga qaratilgan xarakatlar hisoblanadi.

Xitoylik tadqiqotchilarining fikricha, texnik samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillarni mulkchilik shakllari, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, institusional omillar va ilmiy-tadqiqotlar kabilar sifatida e'tirof etishadi¹³⁷.

Ammo, Y.Quning fikricha, texnik samaradorlikka to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va sanoatda samarali texnologiyalarning ko'payishi emas, balki, katta hajmda ishchilar sonining ko'payishi ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot institutlari orqali ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan mablag'lar sanoat korxonalarida texnologik samaradorlikni sezilarli darajada oshirmaydi. Balki, sanoat korxonalarini tomonidan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan mablag'lar nafaqat shu korxonaning, balki, mazkur hududda texnologik samaradorlikning sezilarli darajada oshishiga olib keladi¹³⁸.

Xitoyning samarali sanoatining yana bir muhim jihati shuki, sanoat korxonalarining samaradorligi resurslarning optimal taqsimlanishi orqali ta'minlanishidir¹³⁹. Ya'ni, Xitoy sanoat korxonalarida resurslar, jumladan mehnat,

¹³⁶ Boqiang Lin & Kui Liu. How Efficient Is China's Heavy Industry? A Perspective of Input–Output Analysis // Emerging Markets Finance and Trade. Volume 52, 2016 - Issue 11. Pages 2546-2564

¹³⁷ Yao, Y., & Zhang, Q. (2001). An Analysis of Technological Efficiency of Chinese Industrial Firm. Economic Research, No. 10, 13-19 p.

¹³⁸ Qu, Y. (2016). The Productivity Differences and the Losses of Allocative Efficiency of China's Industries, World Economic, 39, 121-142.

¹³⁹ Bing Li. Measurement and Analysis of China's Industrial Technical Efficiency // Journal of Financial Risk Management. Vol.7, No.1, March 2018, DOI: 10.4236/jfrm.2018.71007

kapital va boshqa resurslar samaradorligi doimiy tahlil qilinishi asosida ishlab chiqarish resurslarining optimal taqsimoti ta'minlanadi va shu orqali korxonada umumiy samaradorlikning oshishiga erishiladi.

Rossiya tajribasi. Federal davlat statistika xizmati (Rosstat) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakat YAIMning nominal hajmi 171,1 trilion rublni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan fizik hajmi indeksi 103,6 % ni tashkil etgan¹⁴⁰.

Ta'kidlash joizki, so'ngi-yillarni hisobga olmaganda mamlakatda uzoq-yillardan buyon xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha e'tiborga molik islohotlar amalga oshirilganligi sir emas.

Masalan, mamlakatda sanoatning jadal rivojlanish davri keng ko'lamli davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda o'z ifodasini topgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarishning maqsadli dasturlarining qabul qilinishi bilan boshlangan¹⁴¹.

Xususan, Federal Hukumatning 2010-yil 11 noyabrdagi 1950-R-sonli qaroriga muvofiq sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari quyidagi bir qator dasturlarni o'z ichiga oladi¹⁴²:

- 1) Sanoatni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha davlat dasturi;
- 2) 2013-2025-yillarda aviatsiya sanoatini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi;
- 3) 2013-2030-yillarda dengiz konlarini o'zlashtirish uchun kemasozlik va uskunalarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi;
- 4) 2013-2025-yillarda elektron va radioelektron sanoatni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi;
- 5) 2013-2020-yillarda farmatsevtika va tibbiyot sanoatini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi;

¹⁴⁰ <https://rosstat.gov.ru/folder/313/document/230009>

¹⁴¹ Ремизова Т.С. Анализ и оценка эффективности реализации государственной программы в области развития промышленности России // Финансовая аналитика: проблемы и решения, 2017, т. 10, вып. 12, стр. 1380–1392

¹⁴² РФ от 11.11.2010 № 1950-р.

6) Atom energetika-sanoat kompleksini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari shular jumlasidan.

“Rosstat” ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar 26083,0 milliard rublni (shundan 98,8 foizi asosiy kapitalga investitsiyalar), asosiy kapitalga 34036,3 milliard rubl yoki o'tgan-yil darajasiga nisbatan 109,8 foiz investitsiyalar o'zlashtirilgan¹⁴³.

Hozirgi vaziyat bo'yicha qaraydigan bo'lsak, mamlakatda investitsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 2023-yilda sanoat korxonalari tomonidan 2022-yilga nisbatan investitsiya faolligi oshgani, sanksiyalar joriy etilishi bilan investorlar yangi loyihalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorona munosabatda bo'lgan va mavjudlarini amalga oshirish ayrim hollarda to'xtatilgan. So'rov shuni ko'rsatadiki, so'rovda qatnashgan kompaniyalarning 88 foizi ma'lum sohalarga sarmoya kiritishni rejalashtirgan¹⁴⁴.

Rossiya Federatsiyasi tajribasining asosiy bir o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ya'ni mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar samaradorligining yuqori bo'lishining omillaridan biri – loyihani amalga oshirish jarayonlarining shaffofligidir. Ya'ni, amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning holatini onlayn platformalar (investprojects.info) orqali kuzatib borish imkoniyati yaratilgan (3.1.1-rasm).

INVESTITSION LOYIHALARNING KUNLIK MONITORINGI

	Bugun *	dan boshlab 24.02.22
Yangi loyiha - amalga oshirishning faol bosqichi	14 loyihalar	73 921 loyihalar
Loyiha yangilandi - amalga oshirishning faol bosqichi	15 loyihalar	92 286 loyihalar
Loyiha yangilandi - loyiha to'xtatildi / loyiha bekor qilindi	5 loyihalar	12 725 loyihalar

* Ma'lumotlar oxirgi 24 soat uchun, ma'lumotlar har soatda yangilanadi

** Rossiyada investitsiya loyihalarini amalga oshirishning kunlik monitoringi bo'yicha joriy ma'lumotlar (investprojects.info)

3.1.1-rasm. Rossiya Federatsiyasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning monitoring ma'lumotlari platformasi¹⁴⁵

¹⁴³ https://rosstat.gov.ru/storage/mediabank/Inv_nef_2023.doc

¹⁴⁴ Карлова Н., Пузанова Е., Инвестиционная активность в промышленности в 2023 году: результаты опроса предприятий. © Центральный банк Российской Федерации, 2024. 6 с.

¹⁴⁵ <https://investprojects.info/>

E'tiborli jihati shundaki, hozirgi vaqtda mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning 151405 tasi sanoat tarmog'i hissasiga to'g'ri kelib, bunga qariyb 353,0 trilion rubl investitsiya mablag'lari yo'naltirilgan¹⁴⁶.

Umuman olganda, mamlakatning iqtisodiy siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni saqlagan holda YAIM o'sish sur'atini jahondagi o'rtacha darajadan yuqori bo'lishini ta'minlash, uy xo'jaliklari daromadlarining barqaror o'sish sur'ati va pensiya ta'minoti darajasi inflyatsiya darajasidan past bo'lmasligini ta'minlash, mehnat unumdorligi va muvaffaqiyatli tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur islohotlar doirasida bir qator loyihalar tashkil etilib, samarali natijalarga erishilgan. Jumladan, "Natsionalniy proyekt "Proizvoditelnost truda".

Rossiya Federatsiyasining Iqtisodiy rivojlanish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mazkur loyiha tejamkor ishlab chiqarishni amalga oshirish, boshqarish, logistika va mahsulot sotishni yaxshilash, shuningdek mehnat unumdorligi va korxonalar daromadlarini oshirishga ko'maklashadi. Ushbu loyiha 2019-2021-yillarda 2300 dan ortiq korxonalarni jamlab (bugungi kunda a'zolar soni 5000 dan ortiq), ularning mahsulot ishlab chiqarishida qo'shimcha qiymatlarining 383 mlrd. rublga oshishiga erishilgan. Shuningdek, mazkur sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi 24 foizga, ishlab chiqarish hajmi 46 foizga va ishlab chiqarish zaxiralari 36 foizga oshgan bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish vaqti esa 35 foizga qisqarishiga erishilgan¹⁴⁷.

Bundan tashqari, mamlakatda sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, jamg'arma mablag'lari hisobidan sanoat ishlab chiqarish korxonalarini uchun (oziq-ovqat sanoatidan tashqari) imtiyozli kreditlar, ya'ni, 5-yil muddatga-yillik 3 foiz bilan 50-300 mln. rubl miqdorida kreditlar ajratiladi. Ayni damda jamg'arma mablag'laridan 17 mlrd. rubl qiymatidagi 100 ta loyiha moliyalashtirilib kelinmoqda. Shuningdek, mamlakatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar uchun 90 % investitsiya solig'idan chegirma hamda mol-mulk solig'i bo'yicha "0" soliq stavkasini qo'llaniladi¹⁴⁸.

¹⁴⁶ <https://investprojects.info/sectors>

¹⁴⁷ https://www.economy.gov.ru/material/directions/nacionalnyy_proekt_proizvoditelnost_truda/

¹⁴⁸ https://xn--b1aedfedwqdbfnzkf0oe.xn--p1ai/national-project/system_measures/

Bundan tashqari, keyingi-yillarda mamlakat YAIM tarkibida sanoat, xususan ishlab chiqarish sanoatining ulushini oshirish, texnologik innovatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalar safini kengaytirish, sanoatga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini va tarmoqda mehnat unumdorligini ikki baravar oshirish bo‘yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda¹⁴⁹.

Xususan, mamlakatning turli mintaqalarida joylashgan davlat va sanoat korxonalari o‘rtasidagi raqamli o‘zaro aloqani ta‘minlaydigan raqamli platforma tashkil etilgan. Ushbu platforma korxonalar faoliyatini o‘rganish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan chora-tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini tahlil qilish uchun sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi¹⁵⁰.

Sanoat tarmog‘ida samaradorlikni oshirish borasida Rossiya tajribasining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, mamlakatda ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish bo‘yicha iqtisodiy islohotlarining asosini “texnologik suverenitet”ga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar tashkil etadi.

Qozog‘iston tajribasi. 2023-yilda mamlakatda ishlab chiqarilgan YAIM hajmi 119,8 mlrd. trillion tengeni tashkil etib, u o‘tgan-yilga nisbatan real ko‘rsatkichlarda 5,1 foizga oshgan¹⁵¹.

Qozog‘istonning Milliy statistika byurosi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi 18 trillion tengega tashkil etib, bu 2022-yilga nisbatan real ko‘rsatkichlarda 13,7 foizga oshgan. Ahamiyatli jihati shundaki, mazkur investitsiyalarning asosiy qismi sanoatga – 45,7 % yo‘naltirilgan bo‘lib, jumladan tog‘-kon va metallurgiya sanoatiga – 26,3 %, qayta ishlash sanoatida – 9,4%, ko‘chmas mulk operatsiyalari (qurilish)ga – 17,9 % va transport sohasiga – 14 % investitsiyalar o‘zlashtirilgan¹⁵².

¹⁴⁹ <http://government.ru/news/49489/>

¹⁵⁰ Федерального закона от 31.12.2014 N 488-ФЗ «О промышленной политике Российской Федерации» стала государственная информационная система промышленности (ГИСП).

¹⁵¹ <https://stat.gov.kz/en/news/gross-regional-product-of-the-republic-of-kazakhstan-for-2023-with-the-allocation-of-the-unobserved-/>

¹⁵² <https://stat.gov.kz/en/industries/business-statistics/stat-invest/publications/198866/>

“KAZAKH INVEST” NK boshqaruvi raisi Jandos Temirgalining “Forbes” jurnaliga bergan intervyusida “2023-yilning birinchi yarmi yakunlariga ko‘ra, Qozog‘istonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning sof oqimi 4,1 milliard dollarni tashkil etdi, bu o‘tgan-yilning shu davriga nisbatan 86 foizga ko‘p. Shuningdek, investitsiyalar tarkibidagi sifat o‘zgarishlari – ishlab chiqarish sanoatiga yo‘naltirilgan investitsiyalar 60 foizga oshganini ta’kidlash lozim. Joriy-yilda “KAZAKH INVEST” ko‘magida qariyb 1,1 milliard dollarga xorij ishtirokidagi 47 ta yangi ishlab chiqarish obektlari foydalanishga topshirildi. Mazkur loyihalar asosida 4,5 mingdan ortiq ish o‘rlari yaratdi”¹⁵³, deb ta’kidlab o‘tgan.

Qozog‘iston iqtisodiyoti eksportga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning 73 foizi neft va neft mahsulotlaridir. Shuningdek, qora metal, mis, alyuminiy, rux va uran kabi sanoat mahsulotlarini Italiya, Xitoy, Niderlandiya, Rossiya, Fransiya, Shveysariya, Ukraina, Kanada va AQSH kabi davlatlarga eksport qiladi¹⁵⁴.

Mamlakatning iqtisodiy, xususan sanoat tarmog‘ining rivojlanishida yuqorida nomlari keltirilgan tabiiy resurslarning mavjudligi bilan bir qatorda “iqtisodiy erkin” muhitining tashkil etilishi muhim jihati hisoblanadi. “Doing Business” reytingi ma’lumotlariga ko‘ra¹⁵⁵, Qozog‘iston 190 mamlakatlar ichida 25-o‘rinni egallab turibdi.

Mamlakatda keyingi davrlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga qulay muhit yaratish yo‘lida iqtisodiy obektlarni qurilishiga ruxsat berish va yer ajratish, mulklarni ro‘yxatga olish, oson va qulay shartlar asosida kreditlash, investitsiya loyihalarini samarali tashkil etish kabi qator yo‘nalishlar bo‘yicha samarali islohotlarni amalga oshirilib kelinmoqda.

Jahon banki tahliliga ko‘ra, jahonda samaradorlik tarmoq korxonalarining mehnat va kapital samaradorligini mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish uchun optimal integratsiyalash orqali umumiy samaradorlikni oshirish – iqtisodiy

¹⁵³ <https://invest.gov.kz/media-center/press-releases/head-of-kazakh-invest-in-2023-foreign-investors-launched-47-production-facilities/>

¹⁵⁴ <https://www.privacyshield.gov/ps/article?id=Kazakhstan-Market-Overview#:~:text=Kazakhstan%20has%20an%20export%20oriented,%2C%20aluminum%2C%20zinc%20and%20uranium.>

¹⁵⁵ <https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/country/k/kazakhstan/KAZ.pdf>

o‘shining asosiy omildir. Aynan shunday islohotlarni Qozog‘istonda ham kuzatilmoqda. Qozog‘iston 2050-yilga borib “yuqori daromadli mamlakat” maqomiga erishishi va eng rivojlangan 30 ta davlat qatoriga kirishi mumkin. Buning uchun iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish, ichki iste‘mol va eksport uchun sifatli mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish uchun mehnat resurslari malakasini moliyaviy va jismoniy resurslar bilan samarali integratsiyasiga erishishi lozim¹⁵⁶.

Bundan tashqari, mamlakat qonunchiligiga ko‘ra, ustuvor investitsiya loyihasini amalga oshiruvchi tashkilot mol-mulk solig‘ini asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan aktivlar bo‘yicha 0 % stavka qo‘llaniladi¹⁵⁷. Bu esa o‘z navbatida investitsiya loyihalari samaradorligini ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqorida o‘rganilgan sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalaridan mamlakatimiz sharoitida samarali foydalanish mumkin bo‘lgan asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishda raqobat ustunligini ta‘minlash, loyihalashtirishda ilg‘or innovatsiyalar va bilimli iqtisodiyotga alohida e‘tibor berish hamda bu yo‘nalishga katta miqdorda investitsiya kiritish, shuningdek ishlab chiqarish jarayonini optimal tashkil etish uchun ishchi kuchi (inson kapitali) va boshqa iqtisodiy resurslardan foydalanishni muvofiqlashtirish asosida yuqori samaradorlikni ta‘minlash (*AQSH tajribasi*). Bundan tashqari, mamlakatda, ayniqsa ishlab chiqarish sanoati korxonalarida zarur bo‘lgan vosita yoki resurslar importi faoliyatida ham sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda moslashuvchan korxonalar va bandlik tizimini yaratish maqsadga muvofiq;

– sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarida energiya tejankor texnologiyalardan keng foydalanishga alohida e‘tibor berish va uni keng qo‘llash, sanoat korxonalarining samarali investitsion faoliyat yuritishi uchun zarur

¹⁵⁶ <https://blogs.worldbank.org/en/europeandcentralasia/kazakhstan-productivity-quest-unleashing-financing-dynamic-firms>

¹⁵⁷ Комитета государственных доходов МФ РК от 2 октября 2020 года № 642835
https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=32051704&

bo'lgan infratuzilmalarni, xususan xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning samarali integratsiyasini tashkil etish, sanoat korxonalarining o'zida ilmiy tadqiqotlarni olib borish va buning uchun mablag' ajratish hamda ulardan samarali foydalanish sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligining oshishini ta'minlaydi (*Germaniya tajribasi*). Bundan tashqari, ichki va tashqi bozor uchun ham sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksport faoliyatini mustahkamlash asosida yuqori qiymatli sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirish hamda investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini yangi darajalarga to'tarilishiga erishish uchun investitsiya loyihalarida xorijiy investorlar ulushini oshirish lozim;

– sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish va ularning barqarorligiga erishish uchun mazkur loyiha asosida tashkil etiladigan sanoat korxonalarini faoliyatini uzluksiz va arzon yoqilg'i-energiya manbalari bilan ta'minlash (bunda yoqilg'i-energiya yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi)larini mazkur sanoat orqali subsidiyalash), sanoat korxonalarining investitsion loyihalarining yuqori texnik samaradorligi ta'minlash. Ya'ni, ishlab chiqarilgan tovarlar va ishlab chiqarishning maksimal quvvati o'rtasidagi farqni kamaytirishga erishish asosida yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash (*Xitoy tajribasi*);

– bundan tashqari, sanoat korxonalarini, xususan investitsion loyihalarda texnik samaradorlikni ta'minlash uchun foydalanilayotgan resurslar sarfini optimallashtirish lozim. Shuningdek, sanoat korxonalarini tomonidan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga kapital ajratish hamda innovatsion faoliyatni ham samarali tashkillashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, xorijiy investrlar ishtirokidagi investitsion loyihalarni ko'paytirish va kuchli raqobat muhitini yaratish asnosida sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar samaradorligini oshirishga erishish mumkin;

– mamlakatni jadal sanoatlashtirish, xususan davlat kafolati asosida sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy

samaradorligini oshirish davlat dasturlari asosida tashkil etish hamda ularning holatini onlayn kuzatib borish imkoniyatini yaratish samarali hisoblanadi (**Rossiya tajribasi**);

– bundan tashqari, ushbu dasturlar doirasida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish hamda u asosida mehnat unumdorligi va korxonalar daromadlarini oshirish bo'yicha sanoat korxonalariga amaliy ko'maklashish, shuningdek, uy xo'jaliklari daromadlarining barqaror o'sishini hisobga olish lozim;

– texnologik innovatsiyalarni amalga oshiruvchi investitsiya loyihalari safini kengaytirish, sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini va sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarida mehnat unumdorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish. Shuningdek, sanoat loyihalarini samarali tashkil etish va ularga ta'sir etuvchi yordamchi xo'jaliklar faoliyatini ham paralel tarzda rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jadallashtirish lozim. Ya'ni, sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini texnologik innovatsiyalar asosida tashkil etish orqali ularning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, xususan ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish sanoatini investitsiyalashni jadallashtirish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq;

– mamlakatda sog'lom va erkin iqtisodiy muhit yaratish, xususan sanoat korxonalarini va loyihalarini jadal rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri - "iqtisodiy erkinlik" va "moliyaviy erkinlik" omillari sanaladi. Shu boisdan, sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari uchun qulay muhit va munosib shart-sharoitlar yaratish hamda sanoat korxonalarini uchun yer ajratish, shuningdek kam foizli - imtiyozli kreditlash tizimini joriy etish orqali sanoat loyihalari samaradorligini oshirish mumkin (**Qozog'iston tajribasi**);

– bundan tashqari, sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ko'pgina mamlakatlar tajribasida kuzatilgan xalqaro tajribalarning yana bir muhim jihat shundaki, sanoat loyihalarida mehnat unumdorligi va kapital samaradorligining samarali integratsiyasini yaratish asosida mahsulot ishlab chiqarish jarayonini

optimallashtirish eng optimal usullardan biri hisoblanadi. Shuningdek, sanoatdagi investitsiya loyihalarining zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari bilan ta'minlanganligi ham loyiha faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarini investitsiya faoliyatining samaradorligiga iqtisodiyotni innovatsion yangilashga izchil va ortib borayotgan yo'nalishi, tabiati va ta'sir ko'rsatish uslubiga ko'ra har xil tartibga solish shakllari, usullari va vositalaridan foydalanishga asoslangan tizimli harakatlar orqali erishiladi. Shu munosabat bilan davlat ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosati maqsadlarini o'zaro bog'liq holda belgilashga e'tibor qaratishi hamda sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalariga ham shu talabni qo'yish orqali uning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini yanada oshirilishini ta'minlashi mumkin.

3.2. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uslubiy jihatlari

Oldingi paragrafda sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha rivojlangan va ayrim qo'shni mamlakatlar tajribalari o'rganilib, ulardan O'zbekiston sharoitida samarali foydalanish yo'llari keltirilgan. Mazkur xorijiy tajribalar va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari va mexanizmlari ushbu paragrafda batafsil yoritiladi.

Avvalo, sanoat korxonalaridagi investitsiya loyihalarining samaradorligi, unga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, uni oshirish usullari va mavjud holatning keng qamrovli tahlilini amalga oshirish, so'ngra olingan xulosalar asosida sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash va uni oshirish mexanizmini ishlab chiqish hamda uni ilmiy asoslash maqsadga muvofiq.

Samaradorlik umuman olganda foydali samaraning (natijaning) uni olishga sarflangan xarajatlarga nisbati hisoblanadi. Ammo, barcha qo'llanadigan samaradorlik ko'rsatkichlari to'liqsizligi bilan ajralib turadi. Ularda yoki xarajatlar, yoki samara yetarlicha hisobga olinmaydi, yoki ularning ikkalasi ham yetarlicha hisobga olinmaydi¹⁵⁸.

M.Kondratyuk va K.Laktionovalarning fikricha, investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmining ishlashi sanoat korxonalarining yagona iqtisodiy mexanizmining elementlari bo'lgan moliyaviy va investitsiya mexanizmlarining alohida tarkibiy qismlarini birlashtirish orqali amalga oshirilishi kerak¹⁵⁹.


O'z navbatida, investitsion tahlil – ishlab chiqarish samaradorligi muammolarini hal qilishga yordam beradi, shu bilan birga uning yangi investorlar

¹⁵⁸Bekmurodov A., Tojiyev R., Qurbonov X., Alimardonov M.. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 4-qism. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. –T.: TDIU, 2005. - 63 b.

¹⁵⁹ Kondratyuk M. V., Laktionova K. S. Ways of improvement of process of management investment activity of enterpris // 2014. №48. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-of-improvement-of-process-of-management-investment-activity-of-enterpris>.

tomonidan jozibadorligini oshiradi. Baholashning uslubiy yondashuvi investitsiya faoliyatini tahlil qilish bilan birga sanoat korxonasi samaradorligi va joriy iqtisodiy holati to'g'risidagi eng to'liq ma'lumotlarni taqdim etadi¹⁶⁰.

Shu boisdan, mazkur tadqiqot davomida sanoat korxonalarining mavjud holatini hisobga olgan holda sanoat korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish mexanizmini institusional-huquqiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy-iqtisodiy qismlarga ajratgan holda quyidagicha ifodalash mumkin (3.2.1-rasm).



3.2.1-rasm. Sanoat korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish mexanizmi¹⁶¹

Yuqorida sanoat korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish mexanizmining tarkibiy qismlari keltirilgan bo'lib, fikrimizcha, sanoat korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish mexanizmi institusional-huquqiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy-iqtisodiy jihatlarni qamrab olishi zarur. Chunki, mazkur tadqiqotning birinchi bobida mavzuning nazariy asoslarini yoritishda bu borasida keng to'xtalib o'tilgan va asoslangan.

¹⁶⁰ Астанакулов О.Т. Совершенствование анализа инвестиционной деятельности предприятия в условиях воздействия внешних факторов // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil. 41-b.

¹⁶¹ Muallif ishlanmasi.

Bundan tashqari, investitsion faoliyat samaradorligi va uning rivojlanishi bevosita sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatiga ham bohliq. Shu boisdan, sanoat korxonalarining innovatsion salohiyati va uning tuzilmaviy tarkibini statistik baholashni amalga oshirish bilan bog‘liq uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ushbu tizimning afzalliklari va uning tarkibiy qismlarini hisobga olish zarur. Shuning uchun ham bunday uslubiy yondashuvlarning bevosita qo‘llanilish sohasi bilan biriktirilishi quyidagi mezonlarga asoslanishi zarur:


- 1) Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatining har tomonlama to‘laroq baholanishini, uslubiy yondashuvlarining maqsadi sifatida belgilab qo‘yish;
- 2) Qayta ishlash sanoatida korxonaning tarmoqdagi o‘ziga xosliklarini hisobga olish;
- 3) Sanoat korxonalarining tashkiliy va boshqaruvdagi o‘ziga xosliklarini qarab chiqish;
- 4) Korxonadagi innovatsion jarayonlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va qabul qilinayotgan qarorlarni chuqur tahlil qilish.

Ushbu omillarning sanoat korxonalari iqtisodiyoti, xususan investitsion faoliyatiga qanchalik ta’sir qilishi, uning kelgusida barqaror rivojlanishi va rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sanoat korxonalarining investitsiya loyihalariga mamlakat miqyosida alohida ustuvorlik berish, uning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, xorijiy xamkorlar bilan do‘stona munosabatlar va hamkorlikni o‘rnatish sanoat tarmog‘ining istiqbolli yo‘nalishlari bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, sanoat tarmoqlarini samarali joylashtirishning ichki va tashqi omillari hamda ularning salbiy va ijobiy jihatlarini mazkur tadqiqot natijalari va tahlillaridan kelib chiqib yanada kengroq bayon etish uchun SWOT tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mazkur tahlil strategik rejalashtirish va boshqaruv uchun foydalaniladigan metodika bo‘lib, undan tashkiliy strategiya va raqobat strategiyasini yaratishda samarali foydalanish mumkin¹⁶².

¹⁶² E.GÜREL. SWOT analysis: a theoretical review // Journal of International Social Research. August 2017, 10(51), pp. 994-1006



3.2.2-rasm. Sanoat korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar¹⁶³

Ushbu metod ishlab chiqarish strategiyalarini yuqori darajada tashkillashtirish vositasi sifatida ommalashgan bo'lib¹⁶⁴, tarmoqni barqaror rivojlantirish va joylashtirish senariylarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega¹⁶⁵. Ya'ni, SWOT tahlilda obektni rejalashtirish va boshqarish jarayonining zaif tomonlar, kuchli tomonlar, tahdidlar va imkoniyatlari aks ettiriladi¹⁶⁶.

¹⁶³Muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁶⁴ Arnott D. Success Factors for Data Warehouse and Business Intelligence Systems, AIS Electronic Library, ACIS 2008. 157 p.

¹⁶⁵ Namugenyi Christine, Nimmagadda Shastri L. Reiners Torsten Design of a SWOT Analysis Model and its Evaluation in Diverse Digital Business Ecosystem Contexts, Procedia Computer Science, 2019. Volume 159. Pages 1145-1154.

¹⁶⁶ Taherdoost H. et al. 2014, Perceived Barriers and Benefits of Web Based Services, International Conference on Computational Science and Computational Intelligence, 10-13 March, Las Vegas, USA, Page: 34-38.

Jumladan, sanoat tarmoq korxonalarini samarali joylashtirish va ularning rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqishda SWOT tahlilidan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- sanoat tarmoq korxonalarini samarali joylashtirish va rivojlantirishning kuchli tomonlari;
- sanoat tarmoq korxonalarini samarali joylashtirish va rivojlantirishning zaif tomonlari;
- sanoat tarmoq korxonalarini samarali joylashtirish va rivojlantirish uchun mavjud bo‘lgan imkoniyatlari;
- sanoat tarmoq korxonalarini samarali joylashtirish va rivojlantirishda tahdidlarni aniqlash imkonini beradi.

Shu boisdan, sanoat tarmoq korxonalarini samarali joylashtirish va rivojlantirish bo‘yicha SWOT tahlili asosida tahlil qilish hamda uning ichki va tashqi salbiy jihatlarini yoritish, ularni bartaraf etish, ya’ni sanoat tarmoq korxonalarini samarali joylashtirish va rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni samarali yechish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi (3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval

Sanoat korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish yuzasidan SWOT tahlil¹⁶⁷

	<i>Ijobiy</i>	<i>Salbiy</i>
	Kuchli tomonlari	Zaif jihatlari
<i>Ichki</i>	<ul style="list-style-type: none"> - korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilganligi; - korxonalariga berilayotgan moliyaviy imkoniyatlar va erkinliklar; - korxonalarda eksport qilish imkoniyatlarining yuqoriligi; - arzon ishchi kuchining mavjudligi; - asosiy fondlardan yanada samarali foydalanish mumkinligi; - boy xom ashyo bazasining mavjudligi; - innovatsion salohiyatni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi. 	<ul style="list-style-type: none"> - mahsulotlar raqobatbardoshligining pastligi; - kooperatsion aloqalarning uzilib qolishi; - mahsulot va xizmatlarni eksport qilishda infratuzilmalar yetishmasligi; - mahsulotlarni sotish va saqlashda muammolar mavjudligi; - yuqori malakaga ega ishchi kuchining boshqa tarmoqlarga ketib qolishi; - korxonada investitsion loyihalar mavjud emasligi yoki kamligi; - investitsiyalarning sezilarli darajada yetishmasligi, ko‘pgina korxonalarining past daromadlilikligi.

¹⁶⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

	Imkoniyatlari	Tahdidlar
<i>Tashqi</i>	<ul style="list-style-type: none"> - korxonalarda mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiyalash imkoniyatlari; - qulay investitsion muhit yaratilishi, davlatning korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha iqtisodiy siyosati; - xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyati; - korxonalarda integratsion jarayonlarni keng rivojlantirish. 	<ul style="list-style-type: none"> - ichki va tashqi bozorlarda narxlarning o'zgarishi; - mehnatga bo'lgan motivatsiyaning yetarli emasligi; - jahon bozorida raqobatning kuchayishi; - davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi.

SWOT tahlili natijalari ko'ra, sanoat korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirishning kuchli tomonlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud ekanligi kuzatildi. Xususan,

- sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligining pastligi. Taklif – mahsulot raqobatdoshligini oshirish bozor talabini yaxshi o'rganish, tushinish va unga moslashish orqali mahsulotning sotish hajmini oshirishga erishishdir. Bu esa birinchidan, mahsulot tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish orqali amalga oshiriladi;

- kooperatsion aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi. Taklif – xom ashyo ta'minoti - ishlab chiqaruvchi - bozor hamda saqlash va tashish xizmatlari o'rtasida yuqori interratsiyani ta'minlash, buning uchun esa barcha bog'liq faoliyatlar bo'yicha infratuzilmani yaxshilash lozim;

- mahsulot va xizmatlarni eksport qilishda infratuzilmalar yetishmasligi hamda mahsulotlarni sotish va saqlashda muammolar mavjudligi. Taklif – bunda asosan kichik korxonalarda ichki bozorning to'yinganligi va mahsulot sifatining talab darajasida emasligi, shu boisdan, "koorporativ xarid" amaliyotini tashkil etish orqali mahsulotlar bozorini kengaytirish maqsadga muvofiq;

- yuqori malakaga ega ishchi kuchining boshqa tarmoqlarga ketib qolishi. Buning asosiy sabablari: ish haqining pastligi, og'ir jismoniy mehnatning mavjudligi, ish vaqtlarining noto'g'ri taqsimoti va mehnat bozoridagi rentaning munosib emasligi. Taklif – ushbu salbiy ta'sirga ega sabablarni kamaytirish maqsadida sanoat korxonalarini sanoat 3.0 va 4.0 ga o'tkazish, buning uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan bir qatorda davlat har jihatdan ko'maklashish lozim;

- korxonada investitsion loyihalar mavjud emasligi yoki kamligi. Taklif – bugungi kunda sanoat bo'yicha investitsion loyihalar haqiqatdan kam. Sanoat iqtisodiyotning asosiy tarmog'i, unda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar, energiya resurslari ishlab chiqariladi. Shu boisdan, sanoat tarmog'ida istiqbolli investitsion loyihalarni ko'paytirish, ularning samarali va barqaror faoliyat yuritishi uchun barcha zururiy sharoitlarni yaratib berish shart;

- sanoat korxonalarining past daromadliligi. Taklif – sanoat korxonalarining yuqori darajada rentabelligini ta'minlash murakkab jarayondir. Chunki, tadqiqotning oldingi paragraflarida ta'kidlanganidek, rentabellik foydaning xarajatga nisbatidir. Demak, sanoat korxonalarida rentabellikni oshirishda quyidagi yondashuvlar mavjud:

- a) xarajatlarni qisqartirish – optimallashtirish;
- b) foydani maksimallashtiruvchi mahsulot ishlab chiqarish hajmini aniqlash;
- s) texnologik modernizatsiya va tovarlar diversifikatsiyasini amalga oshirish orqali yuqori va barqaror daromadga ega bo'lish;
- ye) sanoat loyihalarini optimal joylashtirish;
- j) investitsiya loyihalarini samarali tashkil etilishini ta'minlashning boshqa xususiy omillarni hisobga olish va boshqalar.

Ijobiy o'zgarishlar ko'p. Ammo, bu jarayonda hali yechimini kutayotgan muammolar ham talaygina. Jumladan, ko'pgina korxonalarda hamon eski uskunalarni saqlanib qolganligi tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sotilmay, omborlarda qolib ketmoqda, mehnat unumdorligi past, ayniqsa, hududiy sanoat ishlab chiqarishi tarkibida sanoatning rivojlanish darajasi o'rtasidagi tafovut keskinligicha qolmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda sanoatning barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida:

- sanoat korxonalarini zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlash;
- moddiy xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradiligini ko'tarish;
- ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirish;
- mahsulotlarining yangi turlarini o'zlashtirish;
- ishchi kuchilar "sifati"ni yaxshilash;


- eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish;
- xorijiy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish asosida yirik qo'shma korxonalar qurishni rivojlantirish lozim.

Bundan tashqari, sanoatning tarkibiy tuzilmasini yanada takomillashtirish, soha umumiy ishlab chiqarishi hajmida qayta ishlash sanoati tarmoqlarining zamonaviy drayver sohalari ulushini oshirishga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, hududlarda mavjud xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish va hududiy nomutanosiblikni ta'minlash darkor.

Sanoat loyihalarining samaradorligini oshirish va ularning rivojlanishini tartibga solishning iqtisodiy usullaridan ustun darajada foydalanish sanoat korxonalarini erkinligini ta'minlashga, davlat investitsiya dasturida ko'zda tutilgan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, hududlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish hamda tadbirkorlik shakllari rivojlanishiga keng yo'l ochib berish, hududiy tuzilmalarda sanoatning tarmoq tuzilishini yaxshilash hamda soha ishlab chiqarishini hududiy tashkil etishning ilg'or shakllarini jadal rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, investitsiya loyihalari asosida sanoat korxonalarini yanada rivojlanishini ta'minlashda iqtisodiy mexanizmlardan samarali foydalanish sanoat korxonalarini miqyosida sanoat ishlab chiqaruvchilari uchun qulay makroiqtisodiy muhit shakllanishiga olib keladi.

Popova YE.A. o'z tadqiqotlarida sanoat korxonalarini investitsion faoliyatini barqaror rivojlantirish mexanizmi, elementlari va ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalagan (3.2.2-rasm).

Albatta, har qanday sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarni samarali tashkil etish, faoliyatini barqaror rivojlantirish mazkur investitsiya loyihasining elementlari hamda imkoniyatlar va mavjud ko'rsatkichlariga bog'liq. Demak, ushbu bog'liqlikni o'zida mujassamlashtirgan "Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizmi"ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.



3.2.2-rasm. Sanoat korxonalarini investitsion faoliyatini barqaror rivojlantirish mexanizmi, elementlari va ko'rsatkichlari bog'liqligi¹⁶⁸

Zero, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ularni samarali amalga oshirish quyidagilarga imkon yaratadi¹⁶⁹:

- bo'sh turgan ishlab chiqarish quvvatlarini yuklash orqali kapital talab qilmaydigan o'sish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish;

- soliq imtiyozlari tizimi (iqtisodning real sektori korxonalarini uchun soliq yukini kamaytirish, soliq imtiyozlarini differensiallashtirish) orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalangan holda, moliya bozorlaridan iqtisodiyotning real sektoriga investitsiya kiritishgacha bo'lgan kapitalning to'lib ketishi mexanizmini tuzatish;


- investitsiya dasturlari va loyihalari, barcha investitsiya faoliyatining innovatsion yo'nalishini kuchaytirish;

¹⁶⁸ Попова Е.А. Развитие методики оценки эффективности инвестиционных проектов нефтегазовых компаний в условиях декарбонизации. Дисс. д.н.э., М.: ФУПРФ. 2024 г. 144 с.

¹⁶⁹ Khidirov N. Mechanisms and methods of financing enterprise investment projects // International Journal of Economics, Commerce & Management. Vol. VIII, Issue 7, July 2020. 324 p.

- investitsiya faoliyatining yaqin istiqboldagi asosiy yo‘nalishi sifatida import o‘rmini bosuvchi raqobatbardosh ishlab chiqarishlar va ishlab chiqarishning jahon texnologik darajasini saqlab qolgan tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi.

Shu boisdan, mazkur tadqiqot vazifalarini bajarish maqsadida, olib borilayotgan tadqiqotlardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizmi sifatida quyidagi mexanizmni taklif etish mumkin.



3.2.3-rasm. Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizmi¹⁷⁰

Ushbu taklif etilayotgan “Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizmi”

¹⁷⁰ Muallif ishlanmasi.

afzalligi shundaki, mavjud noaniqlik sharoitida sanoat korxonalaridagi investitsiya loyihalarini iqtisodiy va moliyaviy jihatdan kompleks baholash va uni yanada rivojlantirish bo'yicha aniq holatni hamda omillarni hisobga oluvchi choratadbirlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Xususan:

- har bir investitsiya loyihasining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning optimal variantini aniqlash;

- asosiy optimal loyihani tanlash va ularda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy risklarni aniqlash hamda baholash;

- noaniqlik sharoitida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy tomondan boshqarish usullarini samarali tashkil etish va ularning o'ziga xos yo'llarini aniqlash;

- investitsiya loyihasini baholash sifatini oshirish va hisob-kitobni real holatga yaqinlashtirish, shu bilan birga investitsiya loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash imkoniyati yaratiladi.

Fikrimizcha, yuqorida taklif etilayotgan mexanizmni ilmiy jihatdan baholash uchun ko'p senariy yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ya'ni, bunda "Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish" mexanizmlari bir nechta senariylari ishlab chiqiladi hamda ularning optimalini tanlashda "ekspert baholash" usulidan foydalaniladi.

Nazarda tutilayotgan "ekspert baholash" usulining afzal jihatlari shundan iboratki, bunda iqtisodiy hodisalarni miqdoriy baholash imkoniyati umuman yoki yetarli bo'lmagan va muayyan jarayon yoki obektga nisbatan shaxsiy fikrlarni shakllantirish talab etiladigan taqdirda mazkur usulga murojaat qilinadi va soha mutaxassislari (ekspertlar)ning fikrlariga tayangan holda muayyan xulosalar chiqariladi hamda shunga asosan qarorlar qabul qilinadi¹⁷¹.

Ekspertlar ma'lum bir yoki o'z sohasi bo'yicha yetakchi mutaxassislar bo'lib, ular o'zlarining vakolatlari doirasida u yoki bu hodisa va jarayonlar bo'yicha

¹⁷¹ Орлов А.И. Организационно-экономическое моделирование: Учебник: в 3 ч. - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана. - 2009. Ч. 2: Экспертные оценки. - 2011. - 486 с.

xulosalar ishlab chiqadilar. Ekspert baholash usulining mohiyati ekspertlar tomonidan muammolarning intuitiv - mantiqiy tahlil qilinishidan iboratdir. Ekspertlarning ishlov berishlari natijasida olingan umumlashma fikrlari muammoni hal qilish deb qabul qilinadi. Intuitsiyadan, mantiqiy fikrlardan va miqdoriy baholardan kompleks foydalanish muammoni samarali hal qilish imkonini beradi.

Ekspert baholash usulini qo'llash jarayonida asosan, ekspertlarni miqdoriy jihatdan tanlash va ekspert guruhlarini shakllantirish, ularning kompetentlik darajasini baholash, ekspertlar fikrlarining kelishuvchanlik darajasini aniqlash, ekspertlar tomonidan ma'lumotlarni qayta ishlash va olingan natijalar yuzasidan muayyan qarorlar qabul qilish kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi.

Odatda ekspertlarning guruhlardagi soni 7 ta dan 20 ta gacha bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ba'zan bu miqdor 10 ta dan 30 ta gacha ham bo'lishi mumkin. Juda kam miqdordagi ekspertlar soni ishonchsiz natijalarni keltirib chiqarsa, juda ko'p miqdordagi ekspertlar soni esa, tashkiliy xarakterdagi muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ekspertlar sonining zaruriy miqdorini aniqlashda quyidagi tengsizlikdan foydalanish tavsiya etiladi¹⁷²:

$$m \leq \frac{3}{2 \cdot Q_{\max}} \cdot \sum_{i=1}^{m^*} Q_i \quad (3.2.1)$$

bu yerda, m^* - nomzodlarning umumiy soni,

Q_{\max} - kompetentlik koeffitsiyentining maksimal qiymati,

Q_i - i -ekspertning kompetentligi.

Ba'zan ekspertlarning minimal sonini aniqlashda quyidagi formuladan ham foydalaniladi¹⁷³:

$$N = 0.5 \left(\frac{3}{\alpha} + 5 \right) \quad (3.2.2)$$

bu yerda, α - parametr ekspertiza xatoligining minimal darajasi bo'lib, uning qiymati $0 < \alpha \leq 1$ oraliqda o'zgarib turadi.

Ekspertlarning kompetentlik darajasini baholashda ekspertlarning baholari

¹⁷² Дюйзен Е.Ю. Метод экспертного осенивания: руководство к действию. Креативная экономика, 2014, № 2(86). - 30 с.

¹⁷³ Чернышева Т.Ю. Иерархическая модел осенки и отбора экспертов. Доклады ТУСУРа, №1 (19), част 1, 2009.

asosiy o‘rin tutadi va ularning kompetentlik darajasini aniqlashda turli xil usullar qo‘llaniladi. Shunday usullardan biri quyidagi formula yordamida aniqlanadi¹⁷⁴:

$$K_j = \frac{\sum (X_{ij} \times M_i)}{\sum (M_i \times S_i)} \quad (3.2.3)$$

bu yerda, K_j - j -ekspertning kompetentlik koeffitsiyenti,
 X_{ij} - j -ekspert tomonidan i -obektga qo‘yilgan baho,
 M_i - i -obektning o‘rtacha bahosi,
 S_i - i -obektning baholari yig‘indisi.

Ekspert baholashda “mutaxassislar fikrining kelishuvchanligi” juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar fikrining kelishuvchanlik darajasini baholash uchun “konkordatsiya koeffitsiyenti”dan foydalaniladi va u quyidagicha aniqlanadi¹⁷⁵:

$$W = \frac{12 \times S}{d^2 \times (m^3 - m)} \quad (3.2.4)$$

bu yerda, W - konkordatsiya koeffitsiyenti,
 d - jalb etilgan ekspert - mutaxassislar soni,
 m - obektlar, ya’ni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari soni,
 S - konkordatsiya koeffitsiyentidagi miqdoriy kattalik bo‘lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \sum_{i=1}^m \left(\sum_{s=1}^d r_{is} - \bar{r} \right)^2 \quad (3.2.5)$$

bu yerda, r_{is} - i -obektga s -ekspert tomonidan berilgan baho yoki rang bo‘lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$r_i = \sum_{s=1}^d r_{is}, \quad (i = \overline{1, m}) \quad (3.2.6)$$

(3.2.6) - tenglikdagi r_i - ning o‘rtachasi (\bar{r}) quyidagi formula yordamida topiladi:

¹⁷⁴ Гарифулин А.Ф. Экспертное осенивание при разработке эффективной стратегии. Справочник экономиста №8, 2013. - 4 с.

¹⁷⁵ Губский М.И. Методика осенки состояния развития логистики в Республике Беларусь. Проблемы управления №3 (40) 2011. - 123 с.

$$\bar{r} = \frac{1}{m} \times \sum_{i=1}^m \sum_{s=1}^d r_{is} \quad (3.2.7)$$

Agar mutaxassis - ekspertlar tomonidan baholanayotgan obektlarga qo‘yilgan baholar ustma-ust tushsa, u holda konkordatsiya koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi¹⁷⁶:

$$W = \frac{12 \times S}{d^2 \times (m^3 - m) - d \times \sum_{s=1}^d T_s} \quad (3.2.8)$$

bu yerda, T_s – s -ranjirlangan qiymatlar orasida o‘zaro bog‘langan ranglar ko‘rsatkichi bo‘lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$T_s = \sum_{k=1}^{H_s} (h_k^3 - h_k) \quad (3.2.9)$$

bu yerda, H_s – s -ranjirlangan qiymatlar orasida teng ranglarga ega bo‘lgan guruhlar soni,

h_k – k -guruhdagi teng ranglar soni.

Agar, ekspertlar baholarida taqqoslama ranglar bo‘lmasa, u holda $H_s = 0$, $h_k = 0$ va shuningdek $T_s = 0$ bo‘ladi.

Ekspertlar fikri kelishuvchanlik darajasining sifatini baholash uchun Xarringtonning quyidagi verbal - sonli shkalasidan foydalanish tavsiya etiladi (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval

Xarringtonning verbal - sonli shkalasi¹⁷⁷

№	Konkordatsiya koeffitsiyentining son qiymatlari	Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajalari
1	$0 \leq W < 0.2$	Kelishuvchanlik juda past
2	$0.2 \leq W < 0.37$	Kelishuvchanlik past
3	$0.37 \leq W < 0.64$	Kelishuvchanlik o‘rta
4	$0.64 \leq W < 0.8$	Kelishuvchanlik yuqori darajada
5	$0.8 \leq W \leq 1.0$	Kelishuvchanlik juda yuqori darajada

Xarringtonning verbal - sonli shkalasidan ko‘rinib turibdiki, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi 0 va 1 oralig‘ida o‘zgarib turadi. Agar

¹⁷⁶ Жилиякова Е.В., Ларин С.Н. Методы и приемы проведения независимой экспертизы. Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление. 2009. № 2. - 113 с.

¹⁷⁷ Галиновский А.Л., Самсонов К.С. и др. Сравнение различных методов контроля и диагностики качества керамики методом экспертного осеивания. Инновация и экспертиза. 2017. Выпуск 1 (19). - 68 с.

konkordatsiya koeffitsiyentining qiymati qanchalik birga yaqinlashsa, shunchalik ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi yuqori hisoblanadi va aksincha.

Amaliyotda $m > 7$ bo'lsa, u holda konkordatsiya koeffitsiyentining ahamiyatligini baholash uchun χ^2 - mezon qabul qilinadi¹⁷⁸.

χ^2 - taqsimot $\nu = m-1$ erkinlik darajasi bilan quyidagi qiymatni qabul qiladi:

$$\chi^2 = \frac{12 \times S}{d \times m \times (m+1) - \frac{1}{m-1} \sum_{s=1}^d T_s} \quad (3.2.10)$$

Agar $w > \chi^2$ bo'lsa, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi o'rinlidir, aks holatda bunday kelishuvchanlik ahamiyatsiz bo'lib chiqadi.

Amaliyotda ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasini baholash uchun "entropiya konkordatsiya koeffitsiyenti" dan ham foydalaniladi va u quyidagicha aniqlanadi¹⁷⁹:

$$W_e = 1 - \frac{H}{H_{\max}} \quad (3.2.11)$$

bu yerda, H - entropiya va H_{\max} - entropiyaning maksimal qiymati bo'lib, u quyidagicha topiladi:

$$H = - \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m p_{ij} \log_2 p_{ij} \quad (3.2.12)$$

Agar $p_{ij} = m_{ij} / m$ va $m_{ij} = m / n$ ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, u holda quyidagi tenglik hosil bo'ladi:

$$H = - \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m \log_2 \frac{1}{n} = \sum_{j=1}^m \log_2 n = m \cdot \log_2 n \quad (3.3.13)$$

bu yerda, p_{ij} – i -obekt va j -rang ehtimolligining bahosi,

m - ekspertlar va n - ranglar soni.

Oddiy konkordatsiya koeffitsiyentiga nisbatan entropiya konkordatsiya koeffitsiyenti biroz qo'polroq natija beradi va ekspertlar tomonidan barcha obektlarning ahamiyatlilik darajasi bir xil deb topilganda uning qiymati 1 ga ($w_e = 1$) teng bo'ladi.

¹⁷⁸ Жилиякова Е.В., Ларин С.Н. Методы и приемы проведения независимой экспертизы. Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление. 2009. № 2. - 113 с.

¹⁷⁹ Давнис В.В. Прогнозные модели экспертных предпочтений: Монография. гос. ун-т. - Воронеж: Изд-во Воронеж. гос. ун-т, 2005. - 45 с.

Ekspert baholash jarayonida konkordatsiya koeffitsiyentining olingan yuqori qiymati ekspertlar fikri kelishuvchanlik darajasining yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Bunday holatda odatda ekspertlarning baholanayotgan obektga yoki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga nisbatan shakllangan fikrlari bir-biriga yaqin hisoblanadi.

Endi yuqoridagi uslubiyotga asoslangan holda dastavval, shakllantirilgan ekspert guruhi a'zolariga taqdim etiladigan savol mazmunini shakllantirib olinadi va uning mazmuni quyidagicha bo'ladi:

Savol: "Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirishning quyidagi mexanizmlarining qaysi biri optimal mexanizm hisoblanadi?"

Ekspertlar tomonidan mazkur savolga javob topish maqsadida "5 ballik baholash shkalasi" qabul qilindi va ular tomonidan ustuvor faoliyat yo'nalishlariga quyidagi ballar belgilandi (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval

Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizmlariga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar¹⁸⁰


Taklif etilgan mexanizmlar →	A	B	S	D
Ekspertlar raqami ↓				
1	4,5	4,5	5,0	3,5
2	5,0	5,0	4,0	4,0
3	4,5	4,5	4,0	4,0
4	5,0	4,0	4,0	4,0
5	5,0	4,0	4,0	4,0

Ta'kidlash joizki, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizmlariga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan eng maksimal baho yoki rang ($r_{\max} = 5$) investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirishda optimal bo'lgan birinchi darajali mexanizmlarni o'zida aks ettiradi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar qaysi mexanizmda o'rtacha ball

¹⁸⁰ Ekspertlar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yuqori bo'lsa (\bar{r}_{\max}), ushbu mexanizm sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirishda birinchi darajali zaruriyatga aylanadi va mazkur mexanizm eng “optimal mexanizm” hisoblanadi (3.2.4-rasm).




3.2.4-rasm. Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizm-lariga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar o'rtachasi, (\bar{r}_i)¹⁸¹

Keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, Sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizmlari orasida “A – mexanizm” eng optimal variant bo'lib, mazkur mexanizmga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar 4,6 qiymatni tashkil etgan bo'lsa, navbatdagi o'rinda esa, “S - mexanizm” 4,5 qiymat bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Uchinchi o'rinda esa, baravariga “B va D - mexanizmlar” 4,3 qiymatlar bilan keyingi o'rinlarni band etdi.

Shakllantirilgan ekspert guruhi a'zolarining kompetentlik darajalarini 3.2.13-formula yordamida hamda ular fikrlarining kelishuvchanlik darajasini esa, 3.2.8-formula yordamida hisoblab chiqish mumkin.

¹⁸¹ Muallif hisob-kitoblari.



3.2.5-rasm. Ekspertlarning kompetentlik darajalari
(K_i - ko'effitsiyentda)¹⁸²

Ekspertlarning kompetentlik darajalari tahlili shuni ko'rsatdiki, beshinchi ekspertning kompetentlik darajasi 0,215 qiymatni ifoda etgani holda eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi va to'rtinchi ekspertlarning kompetentlik darajalari 0,192 qiymat bilan eng quyi bo'lgan ko'rsatkichni tashkil etdi.

Endi yuqorida ta'kidlanganidek, 3.2.8-formula yordamida ekspertlar fikrlarining kelishuvchanlik darajasi, ya'ni konkordatsiya ko'effitsiyentini (W) hisoblaymiz.

Bizda qaralayotgan jarayonda tanlangan ekspertlar soni 5 ta bo'lganligi uchun 3.2.10 - formuladagi $d = 5$ va baholanayotgan obektlar soni $m = 10$ bo'ladi.

Olingan tahlil natijalarining ko'rsatishicha, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish bo'yicha A - mexanizm bo'yicha ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi (W), ya'ni konkordatsiya ko'effitsiyenti 0,74 qiymatni tashkil etgani holda ushbu qiymat Xarringtonning verbal - sonli shkalasi bo'yicha 4-chi tartib raqamli oraliqqa to'g'ri keldi.

Konkordatsiya ko'effitsiyentining olingan qiymati asosida shunday xulosa qilish mumkinki, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish mexanizmlariga ekspertlar

¹⁸² Муаллиф ҳисоб-китоблари.

tomonidan ko'rsatilgan ballar ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Bundan ko'rinadiki, istiqbolda sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash va uni yanada oshirish bo'yicha A - mexanizm (3.2.3-rasm) boshqa V, S va D - mexanizmlarga nisbatan samaraliroq ekanligi asoslandi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajribalardan samarali foydalanish va uning metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan quyidagi xulosalar olindi:

- sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha quyida keltirilgan xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq: raqobat ustunligini ta'minlash, loyihalashtirishda ilg'or innovatsiyalar va bilimli iqtisodiyotga alohida e'tibor berish hamda bu yo'nalishga katta miqdorda investitsiya kiritish, (AQSH tajribasi), energiya tejankor texnologiyalardan keng foydalanishga alohida e'tibor berish va uni keng qo'llash, sanoat korxonalarining samarali investitsion faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan infratuzilmalarni, xususan xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning samarali integratsiyasini tashkil etish (Germaniya tajribasi), sanoat korxonalarini faoliyatini uzluksiz va arzon yoqilg'i-energiya manbalari bilan ta'minlash (bunda yoqilg'i-energiya yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi)larini mazkur sanoat orqali subsidiyalash) (Xitoy tajribasi), davlat kafolati asosida sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish davlat dasturlari asosida tashkil etish hamda ularning holatini onlayn kuzatib borish imkoniyatini yaratish (Rossiya tajribasi), mamlakatda sog'lom va erkin iqtisodiy muhit yaratish, xususan sanoat korxonalarini va loyihalarini jadal rivojlanishini ta'minlovchi asosiy

omillardan biri - “iqtisodiy erkinlik” va “moliyaviy erkinlik” omillari sanaladi (Qozog‘iston tajribasi);

- ushbu bobda sanoat korxonalarining mavjud holatini hisobga olgan holda sanoat korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish bo‘yicha institusional-huquqiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy-iqtisodiy jihatlarni o‘z ichiga olgan mexanizm ishlab chiqildi;

- sanoat korxonalarining innovatsion salohiyati va uning tuzilmaviy tarkibini statistik baholashni amalga oshirish bilan bog‘liq uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ushbu tizimning afzalliklari va uning tarkibiy qismlarini hisobga olish zarur. Shuning uchun ham bunday uslubiy yondashuvlarning bevosita qo‘llanilish sohasi bilan biriktirilishi: sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatining har tomonlama to‘laroq baholanishini, uslubiy yondashuvlarining maqsadi sifatida belgilab qo‘yish; qayta ishlash sanoatida korxonaning tarmoqdagi o‘ziga xosliklarini hisobga olish; sanoat korxonalarining tashkiliy va boshqaruvdagi o‘ziga xosliklarini qarab chiqish; korxonadagi innovatsion jarayonlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va qabul qilinayotgan qarorlarni chuqur tahlil qilish kabi mezonlarga asoslanishi zarur;

- sanoat korxonalarining yuqori darajada rentabelligini ta‘minlash murakkab jarayondir. Chunki, rentabellik foydaning xarajatga nisbatidir. Demak, sanoat korxonalarida rentabellikni oshirish xarajatlarni qisqartirish, foydani maksimallashtiruvchi mahsulot ishlab chiqarish hajmini aniqlash, texnologik modernizatsiya va tovarlar diversifikatsiyasini amalga oshirish orqali yuqori va barqaror daromadga ega bo‘lish, sanoat loyihalarini optimal joylashtirish, investitsiya loyihalarini samarali tashkil etilishini ta‘minlashning boshqa xususiy omillarni hisobga olish kabi yondashuvlarga asoslanishi kerak.

IV BOB. SANOAT KORXONALARIDA AMALGA OSHIRILADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYAVIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

4.1. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud muammolar va ularning yechimlari

Mazkur bob sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari bag'ishlangan bo'lib, bobning birinchi paragrafida esa mamlakatga kiritilayotgan investitsiyalar tarkibi, holati, yo'nalishlari, texnologik tarkibi hamda sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud muammolar atroflicha o'rganilib, ularning yechimlari sifatida mualliflik takliflari ishlab chiqiladi.

Umuman olganda sanoat loyihalarining samaradorligi bir tomondan investitsiyalarning texnologik tarkibiga bog'liq bo'ladi. Shu boisdan mamlakatda o'zlashtirilayotgan investitsiyalar holati va ularning texnologik tarkibini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda mamlakatimizda jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352064,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Shundan sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 187818,7 mlrd. so'm yoki qariyb 54 foizi, shu jumladan ishlab chiqarish sanoatiga 100639,8 mlrd. so'm yoki 28,6 foizi yo'naltirilgan (4.1.1-jadval).

4.1.1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi¹⁸³, mlrd. so'm


Yil	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmi	Shundan, sanoat kiritilgan investitsiyalar hajmi	Shu jumladan, ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi
2010	16 463,7	4 859,2	2 334,9
2011	19 500,0	6 214,1	3 016,4
2012	24 455,3	8 080,8	3 714,7

¹⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

2013	30 490,1	10 368,1	4 082,0
2014	37 646,2	13 874,9	4 780,7
2015	44 810,4	17 738,4	5 346,2
2016	51 232,0	19 605,4	8 992,1
2017	72 155,2	32 877,7	12 238,1
2018	124 231,3	59 821,6	25 741,2
2019	195 927,3	96 065,4	50 990,2
2020	210 195,1	94 178,9	55 943,3
2021	239 552,6	98 516,4	52 427,8
2022	266 240,0	117 317,9	67 818,3
2023	352 064,1	187 818,7	100 639,8

Tahlillarga ko‘ra, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan respublika bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning jami hajmi qariyb 1,3 baravarga oshgan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich 2011 va 2015-yillarda 1,2 baravarni va 2020-yilda esa 1,1 baravarni tashkil etgan. Shuningdek, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan sanoat tarmog‘i bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi qariyb 1,6 baravarga oshgan. Mazkur ko‘rsatkich 2011 va 2015-yillarda 1,3 baravarni va 2020-yilda 1,0 baravarni tashkil etgan.

Bundan tashqari, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan sanoatning asosiy tarmog‘i bo‘lgan ishlab chiqarish sanoatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,6 baravarga oshib, ushbu ko‘rsatkich 2011-yilda 1,3 baravarni, 2015-yilda 1,1 baravarni va 2020-yilda 1,1 baravarni tashkil etgan (4.1.1-rasm).



4.1.1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi o‘zgarish dinamikasi¹⁸⁴

¹⁸⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

E'tiborli jihati shundaki, tahlillar 2010-2023-yillar mobaynida mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi o'zgarish dinamikasi deyarli bir xil tendensiyaga ega bo'lgan. Ya'ni, 2010-2023-yillar mobaynida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining joriy-yilda o'tgan-yilga nisbatan o'zgarishi o'rtacha miqdorda jami iqtisodiyot va sanoat tarmog'i bo'yicha 1,3 baravarni, shu jumladan ishlab chiqarish sanoatida 1,4 baravarni tashkil etgan.


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar salmog'ining yuqoridagi tahlillarda keltirilganligi kabi oshib borishi mazkur investitsiyalardan samarali foydalanilayotganligi hamda ularning sanoat ishlab chiqarishiga yuqori ta'sir ko'rsatayotganligini anglatmaydi. Ya'ni, ishlab chiqarish jarayoni kabi ishlab chiqarishning biror bir omili salmog'ining ortib borishi bilan ushbu omil unumdorligining kamayish qonuni (odatda qisqa davr uchun) ro'y berishi holati kuzatilganidek, sanoat tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyalar hajmining muttasil oshib borishi uning samaradorlik ko'rsatkichlari ham oshib borishini ko'rsatmaydi.

Ushbu jarayonni aniqroq anglash va statistik baholash uchun asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnik tarkibi, ya'ni, investitsiyalar yo'naltirilayotgan sohalar va yo'nalishlar tarkibini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Jahon amaliyotiga ko'ra, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnik tarkibini quyidagi asosiy uchta yo'nalish o'z ichiga oladi:

- qurilish-montaj ishlari;
- texnologik modernizatsiya ishlari;
- boshqa xarajatlar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda jahonda o'rtacha hisobda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning qariyb 20-30 foizi qurilish-montaj ishlariga, 40-45 foizi texnologik modernizatsiya ishlariga va 30-35 foizi boshqa xarajatlarga yo'naltiriladi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 40-50 foizi qurilish-montaj ishlariga, 30-35 foizi texnologik modernizatsiya ishlariga va 20-25 foizi boshqa xarajatlarga yo'naltirilishini kuzatish mumkin (4.1.2-rasm).



4.1.2-rasm. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar texnik tarkibi¹⁸⁵, jamiga nisbatan foizda

Jahon amaliyotida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar texnik tarkibining yana bir e‘tiborli jihati shuki, boshqa maqsadlarga yo‘niltirilgan investitsiyalarning katta qismi shu tarmoqni rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltiriladi. Mamlakatimizda esa mazkur yo‘nalishga ajratilayotgan investitsiyalarning ulushi jami tarmoqqa kiritilgan investitsiyalarning bir foizini ham tashkil etmaydi.

Ushbu jihatdan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish holati, ya’ni ularning texnik tarkibi bo‘yicha mamlakatimiz va ayrim xorijiy mamlakatlar tajribalari solishtirma tahlil qilindi.

Xususan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) mamlakatlarida o‘rtacha hisobda ustuvor yo‘nalishlar konchilik va karer qazish (15,7 %, jami investitsiyaga nisbatan), ishlab chiqarish sanoati (13,2 %), transport va saqlash (17,4 %) va ko‘chmas mulk operatsiyalari (14,0 %) ekanligini ko‘rsatdi. Jumladan, Belarusiyada qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (16,2 %), ishlab chiqarish sanoati (18,1 %) va ko‘chmas mulk operatsiyalari (19,3 %) ustuvorlik qilgan. Qozog‘istonda investitsiyalarni yo‘naltirish bo‘yicha ustuvorlik konchilik va karer qazish (29,2 %),

¹⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

ko'chmas mulk operatsiyalari (19,3 %), transport va saqlash (11,3 %) hamda ishlab chiqarish sanoati (10,4 %)ga qaratilgan (4.1.2-jadval).

4.1.2-jadval

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi¹⁸⁶, jamiga nisbatan foizda

T/r	Yo'nalishlar	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOfI)	Belarus	Qozog'iston	Qirg'iziston	Rossiya
	Jami investitsiyalar	100	100	100	100	100
1	Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik	4,3	16,2	5,6	2,2	3,9
2	Konchilik va karer qazish	15,7	2,7	29,2	19,1	15,0
3	Ishlab chiqarish sanoati	13,2	18,1	10,4	3,5	13,4
4	Elektr, gaz, bug' va konditsioner	4,9	9,0	5,4	7,5	4,7
5	Suv ta'minoti; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va tarqatish ustidan nazorat	1,4	2,4	3,3	1,7	1,2
6	Qurilish	4,0	1,2	1,5	0,0	4,3
7	Ulgurji va chakana savdo; avtotransport va mototsikllarni ta'mirlash	3,6	3,1	2,3	2,4	3,7
8	Transport va saqlash	17,4	5,9	11,3	11,7	18,1
9	Turar joy va ovqatlanish xizmatlari	0,6	0,8	0,9	1,2	0,6
10	Axborot va aloqa	3,4	2,7	1,3	3,6	3,6
11	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2,7	0,5	0,8	0,1	2,9
12	Ko'chmas mulk operatsiyalari	14,0	26,3	19,3	1,3	13,3
13	Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	5,6	1,4	0,4	0,2	6,1
14	Ma'muriy faoliyat va ushbu sohadagi qo'shimcha xizmatlar	1,2	0,9	1,0	0,1	1,2
15	Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta'minot	1,9	1,6	1,1	0,6	2,0
16	Ta'lim	2,1	1,7	2,4	6,3	2,1
17	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2,3	3,6	1,7	1,1	2,3
18	San'at, dam olish xizmati	1,4	1,7	1,7	1,1	1,4
19	Boshqa xizmatlar ko'rsatish	0,3	0,2	0,4	36,3	0,2

Tahlillarga ko'ra, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ustuvorlik Qirg'izistonda boshqa xizmatlar ko'rsatish (36,3 %), konchilik va karer qazish (19,1 %), transport va saqlash (11,7 %), elektr, gaz, bug' va konditsioner (7,5 %) hamda ta'lim (6,3 %) sohalariga

¹⁸⁶ https://eec.eaunion.org/comission/department/dep_stat/union_stat/current_stat/investments/series/
<https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>


berilgan bo'lsa, Rossiyada transport va saqlash (18,1 %), konchilik va karer qazish (15,0 %), ishlab chiqarish sanoati (13,4 %), ko'chmas mulk operatsiyalari (13,3 %) hamda kasbiy, ilmiy va texnik faoliyatlar (6,1 %)ga qaratilgan. Shuningdek, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ustuvorlik mamlakatimizda esa qurilish (35,7 %) ishlari, jumladan, turar-joy binolari (8,2 %), noturar-joy binolari (15,8 %) va boshqa inshootlar (11,8 %) qurilishi hamda ishlab chiqarish sanoati (31,2 %)ga qaratilgan.

Bu boradagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy mamlakatlar tajribalari asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ustuvorlik sanoat, transport va ko'chmas mulk kabilarga qaratilgan bo'lsa, bu jarayon mamlakatimizda sanoat va qurilish sohasini qamrab olgan.

Fikrimizcha, mamlakatimizda noishlab chiqarish ishlariga, xususan bino inshootlar qurilishiga ko'p investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Undan ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri sanoat mahsulotlari, xususan sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish va kengaytirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, yuqorida ko'rib chiqilgani kabi xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ustuvorlikni belgilashda kompleks yondashilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Investitsiyalar bo'yicha tahlillar amalga oshirilganda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini uzoq davrlar bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Tahlillarga ko'ra, respublika bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini mashina, asbob-uskunalar va inventar sotib olishga 161540,2 mlrd. so'm (jaming 45,9 foizi), qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 160440,2 mlrd. so'm (45,6 %) hamda boshqa xarajatlar uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 30083,7 mlrd. so'm (8,5 %)ni tashkil etgan (4.1.3-rasm).




4.1.3-rasm. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar texnik tarkibi dinamikasi¹⁸⁷, jamiga nisbatan foizda

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda so‘ngi besh-yillikda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi deyarli o‘zgarishsiz bo‘lgan. Ayni shu jarayon iqtisodiy faoliyat turlari barcha tarmoqlar bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnik tarkibida ham kuzatilgan. Fikrimizcha, bu bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida emas, rejali iqtisodiyot tamoyillari asosida amalga oshirilgan.

Bu kabi jarayonlar jahonning rivojlangan mamlakatlari, xususan AQSH, Kanada va Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan farqli ravishda aksariyat Osiyo mamlakatlarida kuzatish mumkin. Xususan, Belarusda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnik tarkibi quyidagilardan iborat (4.1.4-rasm).

¹⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.



4.1.4-rasm. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar texnik tarkibi dinamikasi¹⁸⁸, jamiga nisbatan foizda

Umuman olganda, har qaysi tarmoq bo‘lmasin investitsiya mablag‘laridan samarali foydalanish – investitsiya mablag‘idan foydalanishni takomillashtirish, qurilish obektlarining muddatini qisqartirish, investitsiya mablag‘ini dolzarb loyihalarga sarflash, ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish, yuqori malakali kadrlar, fan-texnika, ilg‘or tajriba yutuqlaridan foydalanish, ijtimoiy rivojlanishni tezlashtirishga olib keladi.

Ishlab chiqarish investitsiyalarini tahlil qilishda markaziy o‘rinni muqobil investitsion loyihalar samaradorligini baholash va taqqoslash egallaydi. Investitsiyalar samaradorligini baholashni buxgalteriya va statistika hisobotlari natijasida olingan ma’lumotlar asosida, shuningdek, pul oqimlarini (kirim va chiqim) diskontlash uslublariga asoslanib xarakterlash orqali amalga oshirish mumkin¹⁸⁹.

Mablag‘larni investitsiyalashda riskni kamaytirish uchun natijalarning ishonchliligini oshirish maqsadida tahlilda turli xil usullar bo‘yicha yondashiladi, bularga statistik usullar, iqtisodiy-matematik usullar va boshqalarni kiritish mumkin.

Investitsiya samaradorligini u yoki bu ko‘rsatkichlari tizimi va tahlil usullarini qo‘llash investitsiya jarayonini amalga oshirishning aniq sharoitlaridan kelib chiqadi, shuningdek bu kutilayotgan mablag‘ning miqdoriga bunday tahlilni amalga

¹⁸⁸ <http://dataportal.belstat.gov.by/Indicators/Preview?key=156462>

¹⁸⁹ Shodiyev X.A. Moliya statistikasi. Darslik. T.: 2010. - 173 b.

o'shirmoqchi bo'lganlarning iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi, albatta. Ko'pincha investitsiya loyihasini optimal variantini tanlab olish imkoniyati vujudga kelishi uchun bir vaqtning o'zida juda ko'p usullar va ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Shunday ko'rsatkichlardan biri ICOR indeksi bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligini ICOR indeksi bo'yicha tahlil natijalari 2010-2023-yillar davomida o'rtacha hisobda ICOR indeksi umumiy respublika iqtisodiyotida 0,241 ga, sanoat tarmog'ida 0,190 ga, ishlab chiqarish sanoatida 0,109 ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari sanoatida esa 0,062 ga teng bo'lgan.


4.1.3-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan samarali foydalanish holatini ICOR indeksi asosida baholash natijalari¹⁹⁰

Yillar	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar bo'yicha	Shundan, sanoat kiritilgan investitsiyalar bo'yicha	Shu jumladan, ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar bo'yicha
2010	0,1947530	0,1203726	0,0745961
2011	0,1756741	0,1250808	0,0748184
2012	0,1789601	0,1328358	0,0788005
2013	0,1853527	0,1365432	0,0647137
2014	0,1885403	0,1580431	0,0648814
2015	0,1888107	0,1726009	0,0643163
2016	0,1893457	0,1662738	0,0921200
2017	0,2177085	0,2100084	0,0973164
2018	0,2759421	0,2294145	0,1257975
2019	0,3470338	0,2836610	0,1876836
2020	0,3403427	0,2531289	0,1695215
2021	0,3020483	0,1985461	0,1280056
2022	0,2809960	0,2013737	0,1397283
2023	0,3114383	0,2701852	0,1704584

Ta'kidlash lozimki, mazkur tedodika bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan samarali foydalanishda ishlab chiqarish sanoati, undan keyingi o'rinda sanoat tarmog'i va oxirgi o'rinda jami investitsiyalardan foydalanish egallagan (4.1.5-rasm).

¹⁹⁰ Muallif hisob-kitoblari.



4.1.5-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ICOR indeksi dinamikasi¹⁹¹

Yuqoridagi grafik tahlildan ham ko'rinib turibdiki, malakatimizda 2010-2016-yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligi keyingi davrlarga nisbatan yuqori bo'lgan. Shundan so'ng, ya'ni, 2017-2021-yillar davomida barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha investitsiyalar samaradorligi biroz pasayganligini ko'rish mumkin.

Albatta, 2017-yildan boshlab asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligining bunday pasayishining sababini – shu davrdan boshlab mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmining keskin ko'payganligi bilan izohlash mumkin.

Shu qatorida bu shuni anglatadiki, bugungi kunda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining ortishi bilan bir qatorda iqtisodiyot tarmoqlariga boshqa omillarni (jumladan, yangi texnologiyalar) jalb etishni oshirish lozimligini ko'rsatadi. Aks holda, investitsiyalar samaradorligining kamayish qonuni ro'y berishi mumkin.

Bundan tashqari, rivojlanish iqtisodiyotida iqtisodiyotning o'sish sur'atini kapital darajasi nuqtai nazaridan ifodalashda Xarrod-Domarning iqtisodiy o'sish modelidan foydalaniladi.

Boshqacha qilib aytganda, investitsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik Xarrod-Domarning¹⁹² bir omilli iqtisodiy o'sish modeli asosida

¹⁹¹ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

¹⁹² Harrod R.F. An Essay in Dynamic Theory // Economic Journal. - 1939. – March, №49. - 14-33 p.

baholaniladi.

$$GC = S \text{ yoki } G = S / C \quad 4.1.1$$

bu yerda, G – YAIMning qo‘shimcha o‘shish sur‘ati, C – investitsiya samaradorlik koeffitsiyenti (investitsiya hajmi / YAHMning qo‘shimcha o‘shishi), S – YAIMda investitsiyalar ulushi.

Xarrod-Domarning iqtisodiy o‘shish modelidan foydalanib, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash mumkin (4.1.4-jadval).

4.1.4-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha investitsiya va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi¹⁹³, Xarrod-Domar modeli bo‘yicha

Yillar	Iqtisodiyotda	Sanoat tarmog‘ida	Ishlab chiqarish sanoatida
2010	0,008987	0,015478	0,030964
2011	0,007290	0,009246	0,021719
2012	0,005567	0,009904	0,014206
2013	0,004759	0,010618	0,022294
2014	0,003679	0,005356	0,011726
2015	0,003261	0,005430	0,007517
2016	0,002322	0,004827	0,007324
2017	0,001384	0,003494	0,003480
2018	0,001295	0,004589	0,004166
2019	0,001123	0,001550	0,002590
2020	0,000330	0,000244	0,002573
2021	0,001003	0,001930	0,002195
2022	0,000633	0,000958	0,001173
2023	0,000562	0,000915	0,001211

Xarrod-Domarning iqtisodiy o‘shish modeli bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha investitsiyalar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash natijalariga ko‘ra, 2010-2023-yillar mobaynida umumiy iqtisodiyotda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy o‘shish bilan bog‘liqlik darajasi sanoat tarmog‘i va ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan yaxshiroq ekanligini aniqlandi.

Mazkur metodika bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi bo‘yicha yuqori ijobiy natija sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan yaxshiroq ekanligi kuzatildi.

Domar E. Capital Expansion, Rate of Growth and Employment // *Econometrica*. - 1946. – April, №2. - 137-147 p.
¹⁹³ Muallif hisob-kitoblari.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mamlakatda investitsiya muhitini yaratish va innovatsion faollikni rag’batlantirishga qaratilgan davlat va mintaqaviy miqyosdagi chora-tadbirlar sanoat korxonalarining innovatsion faolligini oshirish uchun imkoniyat va rag’bat vositalarini shakllantirishga olib keladi¹⁹⁴.

Rivojlanishning bugungi darajasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yanada takomillashtirish va rivojlantirishda asosiy yo’nalish bu – innovatsiyalardir.


Shu boisdan, mamlakatimizda ham har qanday turdagi (tegologik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa) innovatsiyalarni yaratish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga keng joriy etish bo’yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada, mamlakatning global innovatsion indeks (GII) ko’rsatkichlari tobora yaxshilanib bormoqda. Xususan, O’zbekiston global innovatsion indeksi bo’yicha 2015-yilda 122 o’rinni band etgan bo’lsa, 2023-yilga kelib 82 o’ringa ko’tarildi.

Respublikada keyingi-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida, shu jumladan sanoat tarmoqlarida bir qator turli innovatsion loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, energetika sanoatida past kuchlanishli elektr tarmog’ini modernizatsiya qilish pilot loyihasining amalga oshirilishi natijasida tarmoqdagi elektr energiya yo’qotishlari 26 foizdan 9,5 foizgacha kamaydi¹⁹⁵.

Bundan tashqari, o’tgan davrda fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi natijasida iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jami 209 ta loyiha amalga oshirildi. Jumladan, geologiya sohasi hamda konchilik va metallurgiya sanoatida 56 ta, yengil sanoat tarmog’ida 30 ta, energetika sanoatida 27 ta, kimyo va neft-gaz sanoatida 22 ta, qishloq xo’jaligida 11 ta, transport sohasida 28 ta va boshqa sohalarda 35 ta innovatsion loyihalar amalga oshirilgan (4.1.6-rasm).

¹⁹⁴ Пашеева Т.Ю., Зверев А.Л. Роль инвестиций в развитии промышленных предприятий. Экономика промышленности / Russian Journal of Industrial Economics. 2024;17(1):29-39.

¹⁹⁵ <https://innovation.gov.uz/opendata/post-1478>



4.1.6-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha amalga oshirilgan innovatsion loyihalar soni¹⁹⁶

Bundan tashqari, sanoat tarmog'ida quyidagi bir qator innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda¹⁹⁷:

1) Olmaliq kon-metallurgiya kombinati chiqindi oqava suvlarini EPSE texnologiyasi orqali tozalash loyihasi. Loyiha qiymati 660 mirg yevro bo'lib, loyihani amalga oshirish natijasida:

- zararli moddalar 15 baravarga kamaydi;
- oxak resursi (sarfi) 15 foizga kamayadi.

2) Ichimlik suvi tanqis bo'lgan innovatsion tumanlarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash loyihasi. Qurilma xarajatlari 138 mln. so'm bo'lib, suv tozalash quvvati 500 litr/soatni tashkil etib, suv chiqarish quvvati 200 metrni tashkil etadi;

3) Metanotrof sintez qilish orqali oqsil va oqsil-polimer mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasi. Investitsiya xajmi 20 mln. AQSH dollariga teng. Ishlab chiqariladigan biomassa 260 tonna va loyiha doirasida yaratiladigan ish o'rinlari soni 250 tadan iborat;

¹⁹⁶ Innovatsion rivojlanish agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁹⁷ Innovatsion rivojlanish agentligi ma'lumotlari.

4) Foydalanishdan chiqarilgan Mercedes-Benz rusumli avtobusni elektrifikatsiya qilish va prototipini yaratish loyihasi. Elektrobus qiymati 118,3 ming AQSH dollari bo‘lib,-yillik tejash 47 ming AQSH dollariga yetadi.

Yuqoridagi keltirilgan investitsiyalarning ijobiy xususiyatlarini va mamlakatimizning hozirgi sharoitidan kelib chiqib, zarurat tufayli ham so‘ngi-yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar markazida xorijiy investitsiyalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish asosiy maqsadlardan birini ifodalaydi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi¹⁹⁸ qabul qilingan bo‘lib, mazkur strategiyaning 49-maqsadi “Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish” deb, belgilangan. Ushbu maqsad doirasida mamlakatimizda 250 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 mlrd. AQSH dollari xorijiy investitsiyalar va 30 mlrd. AQSH dollari davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Dastlabki statistik ma’lumotlarga ko‘ra¹⁹⁹, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun 2023-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1 trln. so‘mni tashkil etib, uning o‘sish sur’ati 2022-yilga nisbatan 122,1 foizni tashkil etgan.

Mazkur asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar manbalari tarkibida eng yuqori ulush 24,1 % yoki 84,9 trln. so‘m korxonalar mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, jami investitsiyalarning 23,9 % yoki 84,3 trln. so‘mi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, 23,4 % yoki 82,4 trln. so‘mi kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda 9,5 % yoki 33,3 trln. so‘mi aholi mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

¹⁹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

¹⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

2023-yilda respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 80 ta investitsion loyihalar amalga oshirilgan. Mazkur loyihalar doirasida jami 43478,4 ming AQSH dollari miqdorida investitsiyalar yo'naltirilgan²⁰⁰ (2-ilovaga qarang).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'ngi-yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik va barqaror iqtisodiy islohotlar natijasida mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar yo'naltirishga bo'lgan qiziqish oshib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2 may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida "Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o'zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o'tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O'zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo'llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo'lib qolaveradi" – deb, ta'kidladi²⁰¹.

Bir so'z bilan aytganda davlat dasturlarining qabul qilinishi va ularda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi negizida mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan kuchli davlat qo'rish, jamiyatning manfaatlarini himoya qilish hamda aholi farovon yashashi uchun barcha zaruriy sharoitlarni yaratish, shuningdek iqtisodiyotni, xususan sanoatni rivojlantirish orqali iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash orqali dunyoning yetakchi rivojlangan mamlakatlari qatoridan joy olishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ammo, mazkur davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va ularni amalga oshirilishi ushbu paragraf bo'yicha quyilgan tadqiqot vazifasini, ya'ni sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud muammolarni to'liq yechib bermaydi.

Buning uchun ilmiy asoslanadigan ilmiy usullar asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha omillar va jarayonlarni

²⁰⁰ <http://old.miit.uz/oz/menu/subproekty-info>

²⁰¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2 may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/7195>

hisobga oluvchi kompleks tahlillarni amalga oshirish lozim. Shunday tahlil usullaridan biri bu PESTLE tahlilidir.

Amaliyotda keng qo'llaniladigan PESTLE tahlili sanoat korxonalarining faoliyat yuritayotgan muhitni har tomonlama tahlil qilish va istiqbolda samara beradigan ishlab chiqarish strategiyalarini yaratish hamda strategik rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega²⁰².

Aniqroq qilib aytganda, ushbu tahlil obekt bo'yicha siyosiy (P), iqtisodiy (E), ijtimoiy (S), texnologik (T), huquqiy (L) va ekologik (E) jihatdan omillarni tahlil qilish orqali korxonaning investitsion faoliyati rivojlanishining istiqbolli strategiyalarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi²⁰³.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha PESTLE tahlili amalga oshirildi (4.1.5-jadval)

4.1.5-jadval

Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha PESTLE tahlili²⁰⁴

Tashqi muhit omillari	Omil	Imkoniyat	Tahdid
Siyosiy	Siyosiy barqarorlik, tizimli iqtisodiy islohotlar va chora-tadbirlar	mavjud –“O‘zbekiston-2030” strategiyasi va boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlar asosida mamlakatda jadal iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda	mavjud – dunyoda ro‘y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, global iqtisodiy inqiroz, meyoriy-huquqiy xujjatlar bilan belgilangan tartib-tamoyillardagi tafovutlar, iqtisodiy siyosatning beqarorligi
Iqtisodiy	Resurslarning mavjudligi va arzonligi, to‘yinmagan bozorlarning mavjudligi	mavjud – arzon ishchi kuchi, qazilma boyliklar, sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va boshqa resurslarning mavjudligi hamda oshib borayotgan talab hajmi	mavjud – import mahsulotlarning raqobatdoshligi, ishlab chiqarishning importga qaramligi, moliyaviy rusurslarning qimmatligi va nobarqarorligi

²⁰² Vasileva, E. 2018. “Application of the Pest Analysis for Strategic Planning of Regional Development.” 49th International Scientific Conference Quantitative and Qualitative Analysis in Economics, Economic Faculty in Nis, 223-229 p.

²⁰³ Kolios, A., Read, G. 2013. “A Political, Economic, Social, Technology, Legal and Environmental (PESTLE) Approach for Risk Identification of the Tidal Industry in the United Kingdom.” *Energies* 6(10): 5023-5045

²⁰⁴ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy	Iqtisodiy subektlarning xulq atvori va jamiyatning yangi tovarlarga tez ko'nikolmasligi	mavjud – iqtisodiy bilimlarni ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitish (o'rgatish)	mavjud – “eskicha” dunyoqarash, “noo‘rin qadriyatlar”ning mavjudligi, vaziyatdan “hudbinlik” bilan foydalanib qolish
Tenologik	Ilm-fanning rivojlanishi va yutuqlari, innovatsionlar	mavjud – mamlakatda ilm-fan rivojini birinchi strategik vazifaga aylantirish, texnologik va boshqa innovatsion ishlanmalarni kuchli qo'llab-quvvatlash	mavjud – yangi innovatsion texnologiyalarning qimmatligi, mavjudlari manaviy eskirganligi, texnologik innovatsion ishlanmalar bilan bog'liq buyrokratiya va to'siqlarning mavjudligi
Huquqiy	Meyoriy-huquqiy asos va bazaning shakllanganligi hamda ustuvorligi	mavjud – iqtisodiy islohotlarning meyoriy-huquqiy asoslari mavjudligi va ularning doimiy ravishda takomillashtirilib borilishi	mavjud – qonun ustuvorligining teng emasligi, meyoriy-huquqiy xujjatlar bilan belgilangan tartib-tamoyillardagi tafovutlarning mavjudligi va ularning ko'pligi
Ekologik	Sanoat korxonalarini va loyihalarining atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta'siri	mavjud – 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida qator islohotlar, jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning jadallashuvi, chiqindilarni kamaytirish va yashil moliyalashtirishni rivojlantirish	mavjud – sanoat korxonalarini ko'payishi, qurg'oqchilikning kengayishi, “yashil” byudjetlashtirish va “yashil” moliyalashtirish tamoyillarining ishlab chiqilmaganligi, “yashillashtirish” yukining katta qismi aholi zimmasiga tushayotganligi

Yuqoridagilar va mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha asosiy omillariga ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi, arzonligi hamda boshqa yordamchi infratuzilmalarning (talab darajasida bo'lmasada) mavjudligini keltirish mumkin.

Albatta, investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish, ya'ni – bu jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, foydalanilayotgan tabiiy resurslar zahirasi tugab borayotganligi, resurslar ta'minoti va narxlari bilan bog'liq o'zgarishlar,

qolaversa, aholi turmush tarzining rivojlanishi va ular talabining o'zgarishlari, shuningdek bugungi kunda ro'y berayotganidek global iqlim o'zgarishlari va ekologik muammolardan kelib chiqib mavjud sanoatning tarkibiy qismlarini o'zgartirishni qamrab oladi hamda bularning barchasi tarmoqda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarining xarajat va kutiladigan daromadlariga ta'sir ko'rsatib, bu o'z navbatida ularning samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev "Sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar va sharoitlar natijasida so'nggi besh-yilda ushbu uchta tarmoqda ishlab chiqarish 2,6 barobar oshgan, ularning sanoatdagi ulushi 7 foizga yetgan. Shuningdek, 231 turdagi yangi mahsulotlar o'zlashtirilib, eksport 1,6 milliard dollarni tashkil etgan. Joriy-yilning o'zida elektrotexnikada 163 million dollarlik 39 ta, kimyo sanoatida 70 million dollarlik 17 ta va farmatsevtikada 87 million dollarlik 57 ta korxonaga ishga tushdi. Shu bilan birga, bu tarmoqlarda foydalanilmagan imkoniyatlar hali ko'p. Ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish elektrotexnikada 50 foizga, kimyo sanoatida 40 foizga, farmatsevtikada 18 foizga ham yetmaydi"²⁰⁵, deb ta'kidladi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mamlakatimiz sanoatida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini samaradorligini oshirish maqsadida ularni har tomonlama, xususan bozor talabi bo'yicha maqbullashtirish lozim hamda bu borada quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

1) Tobora tugab borayotgan va taqchillik sezilayotgan, xususan yoqilg'i resurslariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida:

- hozirda foydalanib kelinayotgan yoqilg'i resurslari: ko'mir, gaz, neft mahsulotlari, xususan benzin, dizel va boshqalar yoqilg'i turlari bo'yicha geologik qidiruv ishlarini samarali tashkil etish va yangi manbalarni (konlar) topib ishga tushirish;

²⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25 dekabr kuni hududlarda elektrotexnika, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazgan yig'ilishdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6945>

- yoqilg'iga bo'lgan talabning imkoni boricha ma'lum qismini (O'zbekiston-2030 strategiyasida mazkur raqam 40 % deb belgilangan) muqobil energiya manbalaridan foydalanishga o'tkazish;

- yoqilg'i-energiya nisbatan arzon bo'lgan Turkmaniston, Qozog'iston va Rossiya davlatlari bilan yoqilg'i yetkazib berish borasida o'zaro samarali bo'lgan o'rta va uzoq muddatli strategik kelishuvlarga erishish va boshqalar.

2) Xom ashyo "eksport qiluvchi davlat"dan tayyor mahsulot (yuqori qo'shimcha qiymatli) "eksport qiluvchi davlat"ga o'tish uchun jadal tub islohotlarni kuchaytirish:

- ilm-fan va texnologik rivojlanishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish va raqbatlantirish, ilmiy tadqiqot ishlarini tijoratlashtirish mexanizmini samarali amalga oshirish, ilmiy tadqiqot markazlarini (institutlari)ni ko'paytirish va ular bilan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini o'rtasida samarali integratsion hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- pirovarl natijada eksporti ko'paytiradigan va qayta ishlash (zararsiz va kam xarj evaziga) sanoati uchun xom ashyo bo'lgan tovarlar importini maqbullashtirish;

- eksportiyor korxonalarining eksport faoliyatini yanada qo'llab quvvatlash, ko'maklashish va munosib sharoitlar yaratib berish.

3) Ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish asosida improt tovarlar o'rnini bosuvchi yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini jadal rivojlantirish maqsadida:

- mavjud xom ashyo bazalari va boshqa iqtisodiy resurslar imkoniyatlarini real baholash hamda bu borada xorijiy investorlarni jalb ettiradigan "reklama" ishlarini kuchaytirish;

- yuqori texnologiyali va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi, jumladan xorijiy investorlarga qulay ishlab chiqarish muhitini yaratib berish;

- xom ashyo yetkazib beruvchi korxonalariga biznes konsalting xizmatlarini ko'rsatish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ularni tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga aylantirish maqsadga muvofiq.

4) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, chuqur qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanuvchi klasterlar va korporatsiyalar faoliyatini tashkil etishni dastlar markazlashgan (davlat tashabbusi bilan) va davlat xususiy sherikchiligi asosida samarali yo‘lga qo‘yish lozim;

5) Davlat (klaster, korporatsiya, kompaniya, korxonona) xaridi tajribasini qo‘llash orqali xom ashyoti yetishtirish, uni qayta ishlash va sotishni qamrab oluvchi tizimli ishlab chiqarish amaliyotini rivojlantirish va h.k.;

6) Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining asosiy tarkibiy o‘zgarishlaridan biri bu raqamlashtirish va sun‘iy intellektdan foydalanishdir. Bu iqtisodiy jarayonlar, xususan og‘ir va katta hajmidagi mehnatni talab qiladigan sanoat tarmog‘ida ishchilar mehnatini yengillashtirish (o‘z o‘rnida ayrim ish joylari qisqarsa, mazkur tarkibiy o‘zgarish bilan bog‘liq yangi ish joylari paydo bo‘ladi), ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga olib keladi. Shu boisdan, mavjud shart-sharoit va tenologik imkoniyatlar darajasida tarmoq (korxonalarini)ni maksimal darajada raqamlashtirish va sun‘iy intellekt vositalari asosida tarkibiy o‘zgartirishlarni kiritish hamda bunga davlat ko‘magidan foydalanishni amalga oshirish.

4.2. Sanoat tarmog‘ining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning prognoz senariylari

Ma'lumki, sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining natijaviy ko‘rsatkichi bu – yakuniy tovar ishlab chiqarish hajmidir. Bunda yuqori qiymatli tovarlar ulushining kattaligi mazkur loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi.

Albatta, sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar prognoz senariylarini ishlab chiqish va yuqorida ta’kidlangan natijaviy ko‘rsatkichga omillar ta’sirini miqdor jihatdan ekonometrik modellar asosida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Prognozlashtirish uchun asosiy ishlab chiqarish funksiyasi bo‘lgan Kobb-Duglas modelidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, sanoat tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan sanoat mahsulotlari hajmini asosiy omillar bo‘lgan kapital va mehnat resurslariga bog‘liq holda murakkab prognozlashtirish asosida prognoz senariylarini ishlab chiqish afzaldir.

Demak, sanoat mahsulotlari hajmiga mazkur tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar va tarmoqda band bo‘lganlar sonining ta’sirini miqdoriy baholash uchun quyidagi ko‘rinishda model ifodalab olinadi.

$$Q = AK^{\alpha}L^{\beta} \quad (4.2.1)$$

bu yerda, Q – sanoat mahsulotlari hajmi, K – sanoat tarmog‘ida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, L – sanoat tarmog‘ida band bo‘lganlar soni, A, α, β – modelning noma'lum parametrlari.

Modelning noma'lum parametrlarining qiymatlari eng kichik kvadratlar usuli yordamida topiladi.

Buning uchun (4.2.1) ishlab chiqarish funksiyasining har ikkala tomoni ham logarifm xossalari bo‘yicha logarifmlanadi va quyidagi ko‘rinishda yoziladi.

$$\ln(Q) = \ln(A) + \alpha \ln(K) + \beta \ln(L) \quad (4.2.2)$$

4.2.2-funksiya kattaliklarini shartli belgilash asosida quyidagicha belgilab olinadi.

$$\ln(Q) = Q', \ln(A) = A', \ln(K) = K' \text{ va } \ln(L) = L'$$

va ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Q' = A' + \alpha K' + \beta L' \quad (4.2.3)$$

2010-2023-yillar mobaynida sanoat mahsulotlari hajmi (Q), sanoat tarmog‘ida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (K) va sanoat tarmog‘ida band bo‘lganlar soni (L) bo‘yicha statistik ma’lumotlar asosida eng kichik kvadratlar usuli orqali 4.2.3-model parametrlari aniqlanadi.

Buning uchun sanoat mahsulotlari hajmi taqqoslama narxlarga (2023-yil narxiga) keltirib olindi. Shuningdek, ko‘rsatkichlar bo‘yicha vaqtli qatorlarda tafodifiylik komponentasi mavjudligi sabab, trend tekislash usulida tekislab olindi.

4.2.1-jadval

Sanoat tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari va ishlab chiqarish funksiyasi qiymatlari²⁰⁶

Yil	Sanoat mahsulotlari hajmi (Q) (mlrd. so‘m)	Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (K) (mlrd. so‘m)	Sanoat tarmog‘ida band bo‘lganlar soni (L) (ming kishi)	Q'	K'	L'	Q _{his.}
2010	73 223,5	4859,2	1605,7	11,20127223	8,48863	7,381315078	73 517,1
2011	86 964,4	6214,1	1 640,7	11,3732544	8,73458093	7,402878259	86 830,6
2012	103 283,9	8080,8	1669,5	11,54523656	8,997245686	7,420279459	102 700,3
2013	122 665,8	10368,1	1703,1	11,71721873	9,246484916	7,440205399	121 158,0
2014	145 684,8	13874,9	1736,5	11,8892009	9,537839794	7,459626872	145 983,9
2015	173 023,6	17738,4	1768,7	12,06118306	9,783484371	7,478000092	171 428,7
2016	205 492,6	19605,4	1802,4	12,23316523	9,88356045	7,496874389	186 728,3
2017	244 054,6	32877,7	1826,8	12,40514739	10,40055132	7,510321081	250 498,3
2018	289 853,1	59821,6	1802,9	12,57712956	10,99912142	7,497151759	334 645,2
2019	344 246,0	96065,4	1821,5	12,74911173	11,47278419	7,507415616	436 431,0
2020	408 846,0	94178,9	1809,5	12,92109389	11,45295095	7,500805843	426 939,5
2021	485 568,7	98516,4	1863,2	13,09307606	11,49797824	7,530050719	460 172,7
2022	576 688,9	117317,9	1810,6	13,26505823	11,67264266	7,501413561	479 387,6
2023	684 908,4	187818,7	1828,8	13,43704039	12,14323241	7,511415293	623 907,4

Ishlab chiqarish funksiyasi parametrlari $A = 20,06402 E - 04$, $\alpha = 0,5225428$, $\beta = 1,758631416$ qiymatlarga tengligi aniqlandi va quyidagi model tuzildi.

²⁰⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$$Q = 20,064 E - 04 \alpha K^{0,52} L^{1,76}$$

Tuzilgan model approksimatsiya hatolik (*MAPE*), standart hatolik (og‘ish), t-statistika mezoni, determinatsiya koeffitsiyenti, Fisher mezoni va Darbin-Uotson kabi baholash mezonlari bo‘yicha baholandi, natijalar quyidagi keltirilgan (4.2.2-jadval).

4.2.2-jadval

Tuzilgan modelni baholash natijalari²⁰⁷

Modelni baholash mezon	Hisoblash formulasi	Hisoblangan qiymat	Meyoriy qiymat
Approksimatsiya hatolik	$A = \frac{\sum \epsilon: y }{n} \cdot 100 \%$	0,51%	$A \leq 7\%$
Ctandard hatolik	$S_y = \sqrt{s^2}$	0,111	$S \rightarrow \min$
t-statistika mezoni	$t_i = \frac{b_i}{Sb_i}$	$t_0 = 2,602$; $t_1 = 9,638$; $t_2 = 3,217$	$t_{his} > t_{jad} = 2,593$
Determinatsiya koeffitsiyenti	$R^2 = 1 - \frac{s_e^2}{\sum (y_i - \bar{y})^2}$	0,98	$R \in [0; 1]$
Fisher mezoni	$F = \frac{R^2}{1 - R^2} \cdot \frac{n - m - 1}{m}$	269,253	$F_{his} > F_{jad} = 3,9823$
Darbin-Uotson mezoni	$DW = \frac{\sum (e_i - e_{i-1})^2}{\sum e_i^2}$	1,88	$1,5 < DW < 2,5$

Baholash natijalariga ko‘ra, mazkur modelning approksimatsiya xatoligi (*MAPE* < 7%) qabul qilinadigan qiymatdan $\bar{A} = 0,51 < 7$ kichik, F-mezoni bo‘yicha hisoblangan qiymat F_{jadval} qiymatidan yuqoriligi, $t_{hisob} > t_{jadval}$ bo‘lib, model va model parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli, Darbin-Uotson mezoni bo‘yicha $1,5 < DW = 1,88 < 2,5$ tenglik bajarildi (avtokorrelyatsiya mavjud emas), determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,98$ ga teng bo‘lib, model ishonchli deb baholandi.

Mazkur modelga asosan kapital sarfining 1 birlikka ko‘payishi sanoat mahsulotlari hajmining 0,52 birlikka ko‘payishini ko‘rsatgan bo‘lsa, mehnat sarfining 1 birlikka ko‘payishi esa sanoat mahsulotlari hajmining 1,76 birlikka oshishini ko‘rsatdi.

²⁰⁷ Muallif hisob-kitoblari.

Yuqorida tuzilgan ishlab chiqarish modeli bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmini tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar va mehnat resurslari ko'rsatkichlariga bog'liq holda murakkab usulda prognoz qilish uchun tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar va mehnat resurslari ko'rsatkichlarini oddiy usulda, ya'ni, vaqtli qatorlarning o'zgarish xususiyatidan kelib chiqib, mos trend modellari asosida 2024-2030-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli pronoz qiymatlarini ishlab chiqish lozim.

Demak, yuqoridagi jadvalda keltirilgan sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha vaqtli qatorlarning o'zgarish tendensiyalari xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur ko'rsatkichni prognozlashtirish uchun eksponensial trend modeli optimal variant sifatida tanlandi va modelning noma'lum parametrlari eng kichik kvadratlar usulida aniqlanib, prognoz modeli tuzib olindi.

$$y_t = 3423,402 e^{0,289t}$$

Tuzilgan model baholash mezonlari bo'yicha baholandi, natijalar quyidagi keltirilgan (4.2.3-jadval).

4.2.3-jadval

Tuzilgan modelni baholash natijalari²⁰⁸

Modelni baholash mezoni	Hisoblash formulasi	Hisoblangan qiymat	Meyoriy qiymat
Approksimatsiya hatolik	$A = \frac{\sum \epsilon: y }{n} \cdot 100 \%$	1,21%	$A \leq 7\%$
Ctandard hatolik	$S_y = \sqrt{s^2}$	0,192	$S \rightarrow \min$
t-statistika mezoni	$t_i = \frac{b_i}{Sb_i}$	$t_0 = 22,7236$; $t_1 = 75,0828$	$t_{his} > t_{jad} = 2,56$
Determinatsiya koeffitsiyenti	$R^2 = 1 - \frac{s_e^2}{\sum (y_i - \bar{y})^2}$	0,97	$R \in [0; 1]$
Fisher mezoni	$F = \frac{R^2}{1 - R^2} \cdot \frac{n - m - 1}{m}$	516,3642	$F_{his} > F_{jad} = 4,7472$
Darbin-Uotson mezoni	$DW = \frac{\sum (e_i - e_{i-1})^2}{\sum e_i^2}$	1,96	$1,5 < DW > 2,5$

Baholash natijalariga ko'ra, mazkur modelning approksimatsiya xatoligi ($MAPE < 7\%$) qabul qilinadigan qiymatdan $\bar{A} = 1,21 < 7$ kichik, F-mezoni bo'yicha

²⁰⁸ Muallif hisob-kitoblari.

hisoblangan qiymat F_{jadval} qiymatidan yuqoriligi, $t_{hisob} > t_{jadval}$ bo'lib, model va model parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli, Darbin-Uotson mezonini bo'yicha $1,5 < DW = 1,88 < 2,5$ tenglik bajarildi (avtokorrelyatsiya mavjud emas), determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,97$ ga teng bo'lib, model ishonchli deb baholandi.

Shu jumladan, yuqoridagi jadvalda keltirilgan sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni bo'yicha vaqtli qatorlarning o'zgarish tendensiyalari xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur ko'rsatkichni prognozlashtirish uchun darajali trend modeli optimal variant sifatida tanlandi va modelning noma'lum parametrlari eng kichik kvadratlar usulida aniqlanib, prognoz modeli tuzib olindi.

$$y_t = 1589,327 t^{0,0573}$$

Tuzilgan model baholash mezonlari bo'yicha baholandi, natijalar quyidagi keltirilgan (4.2.4-jadval).

4.2.4-jadval

Tuzilgan modelni baholash natijalari²⁰⁹

Modelni baholash mezonini	Hisoblash formulasi	Hisoblangan qiymat	Meyoriy qiymat
Approksimatsiya hatolik	$A = \frac{\sum \epsilon: y }{n} \cdot 100 \%$	0,13%	$A \leq 7\%$
Ctandard hatolik	$S_y = \sqrt{s^2}$	0,01242	$S \rightarrow \min$
t-statistika mezonini	$t_i = \frac{b_i}{Sb_i}$	$t_0 = 12,872$; $t_1 = 850,4509$	$t_{his} > t_{jad} = 2,56$
Determinatsiya koeffitsiyenti	$R^2 = 1 - \frac{s_e^2}{\sum (y_i - \bar{y})^2}$	0,93	$R \in [0; 1]$
Fisher mezonini	$F = \frac{R^2}{1 - R^2} \cdot \frac{n - m - 1}{m}$	165,6872	$F_{his} > F_{jad} = 4,7472$
Darbin-Uotson mezonini	$DW = \frac{\sum (e_i - e_{i-1})^2}{\sum e_i^2}$	1,57	$1,5 < DW > 2,5$

Baholash natijalariga ko'ra, mazkur modelning approksimatsiya xatoligi ($MAPE < 7\%$) qabul qilinadigan qiymatdan $\bar{A} = 0,13 < 7$ kichik, F-mezonini bo'yicha hisoblangan qiymat F_{jadval} qiymatidan yuqoriligi, $t_{hisob} > t_{jadval}$ bo'lib, model va

²⁰⁹ Muallif hisob-kitoblari.

model parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli, Darbin-Uotson mezon bo'yicha $1,5 < DW = 1,57 < 2,5$ tenglik bajarildi (avtokorrelyatsiya mavjud emas), determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,93$ ga teng bo'lib, model ishonchli deb baholandi.

Prognoz uchun tuzib olingan modellar asosida sanoat tarmog'ining quyidagi asosiy ko'rsatkichlari prognoz senariylari ishlab chiqildi (4.2.5-jadval).

4.2.5-jadval

Sanoat tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha o'rta muddatli prognoz senariylari²¹⁰


Yillar	Pessimistik stenariy	Dinamik stenariy	Optimistik stenariy
	Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm		
2024	759 678,2	760 788,2	761 898,2
2025	889 456,4	890 566,4	891 676,4
2026	1 040 961,7	1 042 071,7	1 043 181,7
2027	1 217 815,6	1 218 925,6	1 220 035,6
2028	1 424 239,9	1 425 349,9	1 426 459,9
2029	1 665 156,2	1 666 266,2	1 667 376,2
2030	1 946 301,6	1 947 411,6	1 948 521,6
	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd.so'm		
2024	259 253,6	261 173,6	263 093,6
2025	346 760,3	348 680,3	350 600,3
2026	463 586,2	465 506,2	467 426,2
2027	619 554,8	621 474,8	623 394,8
2028	827 781,1	829 701,1	831 621,1
2029	1 105 773,8	1 107 693,8	1 109 613,8
2030	1 476 908,6	1 478 828,6	1 480 748,6
	Sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni, ming kishi		
2024	1 732,1	1 856,1	1 980,1
2025	1 739,0	1 863,0	1 987,0
2026	1 745,5	1 869,5	1 993,5
2027	1 751,6	1 875,6	1 999,6
2028	1 757,4	1 881,4	2 005,4
2029	1 763,0	1 887,0	2 011,0
2030	1 768,2	1 892,2	2 016,2

Tadqiqot doirasida mamlakatimiz sanoat tarmog'ida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohatlar va rejalashtirilgan istiqbolli strategiyalarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, sanoat tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ishlab chiqilgan prognoz senariylari orasidan “**dinamik senariy**” optimal variant deb

²¹⁰ Muallif hisob-kitoblari.

topildi.

Unga ko‘ra, 2030-yilga borib, sanoat mahsulotlari hajmi 1947411,6 mlrd. so‘mga yoki joriy davrga nisbatan 2,84 baravarga, tarmoq bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1478828,6 mlrd. so‘mga yoki 7,87 baravarga hamda sanoat tarmog‘ida band bo‘lganlar soni 1892,2 ming kishiga yoki 1,03 baravarga oshishi mumkin (4.2.1-rasm).



4.2.1-rasm. 2030-yilda joriy davrga nisbatan sanoat tarmog‘ini asosiy ko‘rsatkichlarining o‘shish sur‘ati²¹¹, marta

Bundan tashqari, mazkur tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlari (resurslar) bo‘yicha ham o‘rta muddatli prognoz senariylarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

4.2.6-jadval

Sanoat tarmog‘i resurslari bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi²¹²


Yillar	Investitsiyalar samaradorligi, mlrd. so‘m/mlrd. so‘m	Asosiy fondlar samaradorligi, mlrd. so‘m/mlrd. so‘m	Mehnat unumdorligi, mlrd. so‘m/ming kishi
2010	7,84	1,50	23,74
2011	7,66	1,53	29,00
2012	7,12	1,49	34,47
2013	6,81	1,45	41,47
2014	6,05	1,42	48,38
2015	5,50	1,43	55,18
2016	5,71	1,18	62,07

²¹¹ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

²¹² O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2017	4,53	1,29	81,46
2018	3,93	1,39	130,53
2019	3,36	1,46	177,07
2020	3,92	1,31	203,78
2021	4,63	1,29	244,77
2022	4,72	1,32	305,57
2023	3,49	1,37	358,61

Albatta, sanoat tarmog‘i bo‘yicha investitsiyalar va asosiy fondlar samaradorligi hamda mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarining vaqtli qatorlarini grafik usulida statsionarlikka tekshirish orqali vaqtli qatorlarda trend, mavsumiylik, tasodifiylik, sikllik komponentalarini aniqlash lozim.



4.2.2-rasm. Sanoat tarmog‘i resurslari bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha statsionarlikni tekshirishni grafik usuli²¹³

Ushbu grafiklardan ko‘rish mumkinki, investitsiyalar va asosiy fondlar samaradorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha vaqtli qatorlarda trend, mavsumiylik,

²¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

tasodifiylik, sikllik komponentalari mavjudligi hamda mehnat unumdorligi ko'rsatkichi bo'yicha vaqtli qatorda faqat trend komponentasi mavjudligi aniqlandi.

Ammo, investitsiyalar va asosiy fondlar samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha vaqtli qatorlar statsionarligiga to'liq ishonch hosil qilish uchun test usuli orqali ham tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda ko'proq "Dickey-Fuller" testidan foydalaniladi, mazkur test ham boshqa usullar singari $p\text{-value} < 0,05$ shartini talab etadi. Bunda $p\text{-value}$ qiymatidan kelib chiqib, quyidagicha gipotezalar qabul qilinadi yoki rad etiladi:

H_0 : vaqtli qator statsionar turiga mansub;

H_1 : vaqtli qator statsionar emas.

Agar $p\text{-value} < 0,05$ bo'lsa, bosh gipoteza qabul qilinadi, alternativ gipoteza rad yetiladi, aksincha $p\text{-value} > 0,05$ bo'lsa, alternativ gipoteza qabul qilinadi, bosh gipoteza rad etiladi. Agar, vaqtli qator nostatsionar deb topilsa, uni statsionar ko'rinishga aylantirish mumkin. Buning uchun vaqtli qatorni differensiallash talab etiladi. Ekonometrikada bu integratsion jarayon deb yuritiladi.

Vaqtli qator integratsion jarayonning qaysi bosqichida statsionar ekanligi isbotlansa, ushbu davr d qiymatni anglatadi.

"Stata" dasturida investitsiyalar va asosiy fondlar samaradorligi bo'yicha vaqtli qator Dickey-Fuller testi orqali tekshirildi.

`. dfuller d2.Investitsiyalarsamaradorligim`

Dickey-Fuller test for unit root		Number of obs = 11		
Test Statistic	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value	
Z(t)	-3.203	-3.750	-3.000	-2.630


MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.0198

Investitsiyalar samaradorligi bo'yicha vaqtli qator Dickey-Fuller testi orqali tekshirilganda dastlabki (9-ilovaga qarang) va 1-tartibli (10-ilovaga qarang) differensiallash natijalari bo'yicha vaqtli qator nostatsionarligini ($p\text{-value} = 0,6956$, $p\text{-value} = 0,1408$) ko'rsatdi. Ammo, vaqtli qatorni 2-tartibli differensiallab, qayta

Dickey-Fuller testi orqali tekshirilganda vaqtli qator 2-tartibli differensiallash natijalari bo'yicha statsionar holatga keltirildi ($p\text{-value} = 0,0198$). Demak, Identification bosqichi uchun zarur bo'lgan d qiymat 2 ga teng ($d = 2$).

p va q qiymatlari mazmun-mohiyatiga ko'ra, ular vaqtli qatorning va investitsiya samaradorligi bo'yicha qoldiqlarning avtokorrelyatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Agar avtokorrelyatsiya mavjud bo'lmasa, $p=0$ yoki $q=0$ sifatida qabul qilinadi, agar avtokorrelyatsiya mavjud bo'lsa, uning tartibi $p = [1;2]$ yoki $q = [1;2]$ sifatida qabul qilinadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, agar vaqtli qator differensiallangan holatda statsionar ko'rinishga aylangan bo'lsa, p va q qiymatlar ayni shu o'zgartirilgan vaqtli qator bo'yicha topiladi.

Dastlab, vaqtli qatordagi o'zgaruvchilar o'zaro bog'liq yoki bog'liq emasligini, ya'ni q va p qiymatlarini aniqlash uchun Stata dasturida laglar ishonch oralig'i grafikda tasvirlanadi.



4.2.3-rasm. Investitsiyalar samaradorligi ko'rsatkichi vaqtli qatori bo'yicha avtokorrelyatsiya holatini tekshirish testi natijalari²¹⁴

Qoldiqlar o'rtasida 2- va 3-tartibli avtokorrelyatsiya mavjud. Chunki, laglarning 2 va 3 tasi ishonch oralig'i yuzasidan tashqarida joylashgan. Bundan kelib chiqadiki, qoldiqlar bo'yicha joriy holatdagi ko'rsatkich o'zidan 2 va 3 davr (yil) oldingi ko'rsatkich o'zgarishiga bog'liq. Shu bois, q va p qiymatlari sifatida 2 va 3 raqami qabul qilinadi ($q = 2; r = 3$). Demak, asosiy gepoteza sifatida ARIMA metodi uchun zarur bo'lgan p, d, q qiymatlari $(2, 2, 3)$ ekanligi aniqlandi.

²¹⁴ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

. dfuller d.Asosiyfondlarsamaradorligiml


Dickey-Fuller test for unit root

Number of obs = 12

Test Statistic	Interpolated Dickey-Fuller			
	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value	
Z(t)	-3.720	-3.750	-3.000	-2.630

MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.0038

Asosiy fondlar samaradorligi bo'yicha vaqtli qator Dickey-Fuller testi orqali tekshirilganda dastavval (11-ilovaga qarang) differensiallash natijalari bo'yicha vaqtli qator nostatsionarligini (p-value = 0,2412) ko'rsatdi. Ammo, asosiy fondlar samaradorligi bo'yicha vaqtli qator 1-tartibli differensiallash natijasi bo'yicha statsionar holatga keltirildi (p-value = 0,0038). Demak, Identification bosqichi uchun zarur bo'lgan d qiymat 1 ga teng ($d = 1$).



4.2.4-rasm. Asosiy fondlar samaradorligi ko'rsatkichi vaqtli qatori bo'yicha avtokorrelyatsiya holatini tekshirish testi natijalari²¹⁵

Qoldiqlar o'rtasida 2- va 3-tartibli avtokorrelyatsiya mavjud. Chunki, laglarning 2 va 3 tasi ishonch oralig'i yuzasidan tashqarida joylashgan. Bundan kelib chiqadiki, qoldiqlar bo'yicha joriy holatdagi ko'rsatkich o'zidan 2 va 3 davr (yil) oldingi ko'rsatkich o'zgarishiga bog'liq. Shu bois, q va p qiymatlari sifatida 2 va 3 raqami qabul qilinadi ($q = 2$; $r = 3$). Demak, asosiy gepoteza sifatida ARIMA metodi uchun zarur bo'lgan p, d, q qiymatlari (2,1,3) ekanligi aniqlandi.

²¹⁵ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiyalar va asosiy fondlar samaradorligi ko'rsatkichlari prognozi uchun ARIMA metodi bo'yicha qabul qilingan asosiy gepotezalar bilan birga alternativ gepotezalar sifatida har bir ko'rsatkich bo'yicha yana 2 yoki undan ortiq qo'shimcha gepotezalar belgilab olinadi.

ARIMA metodining Estimation bosqichida yuqorida tanlab olingan modellarning ahamiyatligi (sifati) Log likelihood, Akaike, Bayesian kabi mezonlar bo'yicha baholanadi va optimal variant tanlab olinadi.

4.2.7-jadval

ARIMA modellarini baholash natijalari²¹⁶

Mezonlar	Asosiy gepoteza	Alternativ gepotezalar	
	Investitsiyalar samaradorligi		
	ARIMA (2,2,3)	ARIMA (1,1,0)	ARIMA (1,2,3)
Sigma	0.4434899	0.5697646	0.587495
Log likelihood	-9.972239	-11.14385	-11.63912
Akaike	31.94448	28.28771	35.27824
Bayesian	34.85392	29.98256	38.18768
Asosiy fondlar samaradorligi			
	ARIMA (2,1,3)	ARIMA (2,1,2)	ARIMA (1,1,0)
Sigma	0.0606245	0.0792156	0.0945717
Log likelihood	15.41817	13.08267	12.20006
Akaike	-20.83633	-16.16534	-18.40011
Bayesian	-18.01159	-13.34059	-16.70527

Baholash natijalariga ko'ra, ARIMA metodi asosida prognoz qilish uchun investitsiyalar samaradorligi bo'yicha asosiy gepoteza (2,2,3) ($y_t = 0,0252437 - 0,859494 y_{t-2} - 0,9998599 e_{t-3}$) va asosiy fondlar samaradorligi bo'yicha esa asosiy gepoteza rad etilib, alternativ gepoteza (1,1,0) ($y_t = -0,0110771 - 0,1588242 y_{t-1}$) optimal variantlar sifatida baholandi.

ARIMA metodining yakuniy (forecasting) bosqichida tanlangan optimal ARIMA va ARI modellari asosida pessimistik, dinamik va optimistik senariylar bo'yicha 2024-2030-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (4.3.9-jadval).

²¹⁶ Muallif hisob-kitoblari.

Bundan tashqari, sanoatda mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari bo'yicha prognoz qiymatlar vaqtli qator xususiyatidan kelib chiqib, prognoz uchun eksponensial trend modeli tanlandi hamda model tuzildi.

$$y_t = 17,123 e^{0,218t}$$

Hamda model baholash mezonlari bo'yicha baholandi.

4.2.8-jadval

Ekspozitsional trend modelini baholash natijalari²¹⁷

Modelni baholash mezonlari	Hisoblash formulasi	Hisoblangan qiymat	Meyoriy qiymat
Approksimatsiya hatoligi (MAPE)	$\bar{A} = \frac{\sum_{i=1}^n \frac{ y_i - \hat{y}_i }{y_i}}{n} \cdot 100\%$	2,15%	$\bar{A} < 7\%$
Determinatsiya koeffitsiyenti	$R^2 = 1 - \frac{\sum (y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum (y_i - \bar{y})^2}$	0,98	$R \in [0; 1]$
Standart hatolik	$S_y = \sqrt{s_y^2}$	0,1205	$S \rightarrow \min$
Fisher mezonlari	$F = \frac{R^2}{1 - R^2} \cdot \frac{n - m - 1}{m}$	746,8339	$F_{his} > F_{jad} = 4,7472$
t-statistika mezonlari	$t_{a_i} = \frac{a_i}{S a_i}$	$t_{a_0} = 27,3283$; $t_{a_1} = 41,76$	$t_{his} > t_{jad} = 2,56$
Durbin-Uotson mezonlari	$DW = \frac{\sum (e_i - e_{i-1})^2}{\sum e_i^2}$	1,63	$1,5 < DW < 2,5$

Sanoatda mehnat unumdorligi bo'yicha tuzilgan eksponensial trend modeli barcha baholash mezonlari bo'yicha ijobiy baholandi hamda ushbu model asosida mehnat unumdorligi bo'yicha 2024-2030-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (4.2.9-jadval).

4.2.9-jadval

Sanoat tarmog'i resurslari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rta muddatli prognoz senariylari²¹⁸


Yillar	Pessimistik stenariy	Dinamik stenariy	Optimistik stenariy
Investitsiyalar samaradorligi, mlrd.so'm			
2025	2,5166942	2,598288	2,6798818
2026	2,9367072	3,018301	3,0998948
2027	2,9931742	3,074768	3,1563618

²¹⁷ Muallif hisob-kitoblari.

²¹⁸ Muallif hisob-kitoblari.

2028	2,4956702	2,577264	2,6588578
2029	2,1136472	2,195241	2,2768348
2030	2,2927012	2,374295	2,4558888
Asosiy fondlar samaradorligi, mlrd.so‘m			
2025	1,3082431	1,339686	1,3711289
2026	1,2969211	1,328364	1,3598069
2027	1,2858831	1,317326	1,3487689
2028	1,2747991	1,306242	1,3376849
2029	1,2637231	1,295166	1,3266089
2030	1,2526461	1,284089	1,3155319
Mehnat unumdorligi, mln.so‘m/kishi			
2025	558,87	560,07	561,27
2026	695,28	696,48	697,68
2027	864,91	866,11	867,31
2028	1 075,86	1 077,06	1 078,26
2029	1 338,19	1 339,39	1 340,59
2030	1 664,41	1 665,61	1 666,81


Tadqiqot doirasida mamlakatimiz sanoat tarmog‘ida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohatlar va rejalashtirilgan istiqbolli strategiyalarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, sanoat tarmog‘ida investitsiyalar va asosiy fondlar samaradorligi hamda mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan senariylardan **“optimistik senariy”** optimal variant deb topildi.



4.2.5-rasm. Sanoat tarmog‘ida investitsiyalar samaradorligi prognoz ko‘rsatkichlari grafigi²¹⁹


²¹⁹ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Optimistik senariy bo'yicha prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilga borib, sanoatda investitsiyalar samaradorligi 2,46 mlrd. so'mni tashkil etishi, ya'ni, mazkur ko'rsatkich 2030-yilda joriy davrga nisbatan qariyb 0,7 martaga pasayib ketishi mumkin.



4.2.6-rasm. Sanoat tarmog'ida asosiy fondlar samaradorligi prognoz ko'rsatkichlari grafigi ²²⁰

Prognoz natijalari bo'yicha 2030-yilga borib, sanoatda asosiy fondlar samaradorligi 1,32 mlrd. so'm tashkil etishi mumkin. Bu joriy davrga nisbatan qariyb 0,96 martaga pasayishi kuzatilishi mumkin.



4.2.7-rasm. Sanoat tarmog'ida mehnat unumdorligi prognoz ko'rsatkichlari grafigi ²²¹

²²⁰ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

²²¹ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Optimistik senariy bo'yicha prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilga borib, sanoatda mehnat unumdorligi 1666,81 mlrd. so'm/ming kishini tashkil etishi mumkin. Bu joriy davrga nisbatan qariyb 4,65 baravarga oshishi demakdir.

To'rtinchi bob bo'yicha xulosa

Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollarini ishlab chiqish jarayonida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

- jahonda o'rtacha hisobda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning qariyb 20-30 foizi qurilish-montaj ishlariga, 40-45 foizi texnologik modernizatsiya ishlariga va 30-35 foizi boshqa xarajatlarga yo'naltiriladi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 40-50 foizi qurilish-montaj ishlariga, 30-35 foizi texnologik modernizatsiya ishlariga va 20-25 foizi boshqa xarajatlarga yo'naltirilishi aniqlandi;

- tahlillarga ko'ra, respublika bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini mashina, asbob-uskunalar va inventar sotib olishga 161540,2 mlrd. so'm (jaming 45,9 foizi), qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 160440,2 mlrd. so'm (45,6 %) hamda boshqa xarajatlar uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 30083,7 mlrd. so'm (8,5 %)ni tashkil etgan;

- tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda so'ngi besh-yillikda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi deyarli o'zgarishsiz bo'lgan. Ayni shu jarayon iqtisodiy faoliyat turlari barcha tarmoqlar bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnik tarkibida ham kuzatilgan. Fikrimizcha, bu bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida emas, rejali iqtisodiyot tamoyillari asosida amalga oshirilgan;

- tahlillarga ko'ra, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligini ICOR indeksi bo'yicha tahlil natijalari 2010-2023-yillar davomida o'rtacha hisobda ICOR indeksi umumiy respublika iqtisodiyotida 0,241 ga, sanoat

tarmog'ida 0,190 ga, ishlab chiqarish sanoatida 0,109 ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari sanoatida esa 0,062 ga teng bo'lganligi aniqlandi;

